B.S.Raxmonova

# YONG'OQ YETISHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH






Monografiya

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

**RAXMONOVA BARNO SOXIBJONOVNA**

# YONG‘OQ YETISHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

**MONOGRAFIYA**

**Andijon– 2023**

*UO‘K 338.1*

**Raxmonova Barno Soxibjonovna.** “Yong‘oq yetishtirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish”. (Monografiya). “Step by step print” MChJ bosmaxonasi, Andijon, 2023 y. 152 b.

Monografiyada yong‘oq yetishtirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish yoritilgan bo‘lib, unda tarmoq samaradorligini oshirishda alohida yo‘nalishlar tanlab olingan. Ilmiy tadqiqotlar asosida mazkur yo‘nalishlar tashkiliy-iqtisodiy va ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

**Taqrizchilar:**

Tursunov Ulug‘bek Sativoldiyevich – iqtisod fanlari doktori, (Dc)

Nosirov Bahodirjon Zokirovich –i.f.n., dotsent.

Monografiya Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti Kengashining 2023-yil 29-avgustdagi 1-sonli yig‘ilishida muhokamadan o‘tdi va chop etishga tavsiya etildi.

**ISBN: 978-9910-9972-3-5**

© **Raxmonova Barno Soxibjonovna.** “Yong‘oq yetishtirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish”. (Monografiya).
© “Step by step print” MChJ bosmaxonasi, Andijon, 2023 y.

MUNDARIJA


| | |
|---|---|
| **KIRISH** | **4** |
| **1.YONG‘OQ YETISHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI** | **8** |
| 1.1. Yong‘oq yetishtirishning iqtisodiy zaruriyati va o‘ziga xos xususiyatlari | 8 |
| 1.2. Yong‘oq yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini baholashning uslubiy asoslari | 17 |
| 1.3. Yong‘oq ishlab chiqarishni rivojlantirish bo‘yicha xorijiy tajribalar | 31 |
| **2. OZIQ-OVQAT TARMOG‘IDA YONG‘OQ YETISHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI** | 51 |
| 2.1. Yong‘oqchilik sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijalari | 51 |
| 2.2. Oziq-ovqat tarmog‘ida yong‘oq ishlab chiqarish samaradorligi | 64 |
| 2.3. Yong‘oq va yong‘oq mahsulotlarini sotish hamda qayta ishlashning hozirgi holati | 78 |
| **3. YONG‘OQ YETISHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI** | **95** |
| 3.1. Yong‘oq yetishtirish va qayta ishlash sohasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari. | 95 |
| 3.2. Qishloq xo‘jaligida yong‘oq yetishtirish va ko‘chatchilik tizimini rivojlantirishni rag‘batlantirish yo‘nalishlari. | 106 |
| 3.3.Ko‘p omilli ekonometrik va trend modellari yordamida yong‘oq yalpi hosilining prognoz qiymatlarini aniqlash | 116 |
| XULOSA VA TAKLIFLAR | 138 |
| FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR | 141 |

# KIRISH

Dunyo mamlakatlarida tobora koʻpayib borayotgan aholini sifatli va yuqori kaloriyaga ega toʻyimli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash dolzarb sanaladi. Bu yoʻnalishda yongʻoqchilik sohasi alohida oʻrin tutadi. Chunki, yongʻoqchilik sohasi oziq-ovqat ta'minoti, iste'mol va aholi daromadlarining muhim manbai hisoblanib, dunyo mamlakatlarining aholisini oziq-ovqat ta'minotini yaxshilash vositalaridan biri sifatida katta ahamiyatga egadir. Ammo, aksariyat davlatlarda ekologik jarayonlarning yomonlashishi, yillik oʻrtacha haroratning koʻtarilishi, yogʻingarchilikning yillik oʻrtacha darajasining pasayib, qurgʻoqchilik holatlari koʻpayishi kabi omillar yongʻoq yetishtirish, hududlarning tuproq-iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda yongʻoq turlarini optimal joylashtirish va yongʻoq yetishtirish hajmini oshirishga, shuningdek, yongʻoq mevasining sifati pasayishiga olib kelishi hamda kasallanishiga sabab boʻlmoqda.

Global iqlim oʻzgarishi sharoitida dunyoning yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari va muassasalari tomonidan yongʻoq yetishtirish borasida koʻplab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, yongʻoqning serhosil turlarini hududlarning tabiiy-iqlim sharoitlarga mos holda tanlab olish va koʻpaytirish, yongʻoq va yongʻoq mahsulotlarini sotish tizimida zamonaviy marketing usullarini joriy etish, sohada innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot ishlarining samaradorligini oshirish, yuqori sifatli mahsulotni sanoat usulida yetishtirilgan tanlangan navlar koʻchatlaridan olish, intensiv yongʻoqchilikning tashkil etish hamda ishlab chiqarishning texnik va texnologik parametrlar boʻyicha platformalar yaratish kabi ilmiy tadqiqot yoʻnalishlari shular jumlasidandir.

Mamlakatimiz togʻli hududlarining iqlim sharoiti yongʻoq, bodom, pista kabi daraxt koʻchatlarining oʻsishi va yuqori hosil berishi uchun nisbatan qulay makon hisoblanadi. Shu bois, yongʻoq yetishtirish va ushbu mahsulotni qayta ishlash tarmogʻini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan keng tarmoqli tarkibiy islohotlar amalga oshirildi. Ammo "... sohada ayniqsa, meva-sabzavotchilikni rivojlantirishda samarali bozor mexanizmlari tizimli yoʻlga

qo‘yilmagan-ligi, ilmiy yondashuvning yetarli emasligi tarmoqning mavjud imkoniyatlari-dan to‘liq foydalanilmasligiga olib kelmoqda. Hisob-kitoblarga ko‘ra, 1 gek-tar maydonda yetishtirilgan paxta xom ashyosiga nisbatan uzumdan 7 baravar, gilosdan 6 baravar, yong‘oqdan 5 baravar ko‘p daromad olish imkoniyati mavjud”[1]. Shuningdek, respublikada yillik yong‘oq iste’moli bir kishiga o‘rtacha 1,8-2,4 kg ni[2] tashkil etgani holda tibbiy me’yorga nisbatan bu ko‘rsatkich 6,2 barobar-ga kam. Shu bois, bugungi kunda intensiv yong‘oqchilikni rivojlantirish hamda tarmoq samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini tadqiq etish asosida ilmiy-amaliy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish dolzarblik kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-martdagi PF-5388-son “O‘zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlan-tirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-son Farmonlari, 2017-yil 1-iyundagi “Yong‘oq ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasini tuzish va uning faoliyatini tashkil etish to‘g‘rsida”gi, 2018-yil 17-oktabrdagi PQ-3978-son “Meva-sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019-yil 14-martdagi PQ-4239-son “Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Qishloq xo‘jaligida yong‘oq ishlab chiqarishni rivojlantirish, grek yong‘og‘i hosildorligini oshirish va tog‘ oldi mintaqalarida bog‘dorchilikni rivojlantirish masalalari bilan xorijlik agroiqtisodchi olimlardan H.Adem & Peter H.Jerie, Larry Harper, Dr. William

[1] Хасанов С. Ўзбекистонда мева-сабзавотликни ривожлантириш тенденциялари ва истиқболлари. // Ж.: Экономическое обозрение, 2020. - №6 (246). - 56-61-бет.

[2] Ahrorov F., Avezov H. O‘zbekistonning yong'oq ishlab chiqarish salohiyati va istiqbollari: Samarqand viloyati kesimida. Current issues of bio economics and digitalization in the sustainable development of regions. International scientific - practical conference. 764-769-бетлар.

Kurtz, rossiyalik iqtisodchi olimlar Nazranov X.M., Chemazokova Z.Z., Salvaridze L.X., Nakonechnaya O.A., Xashir A.A., M.Baxshinejad[3] kabi olimlar tadqiqotlar olib borishgan.

Respublikamiz qishloq xo‘jaligida meva-sabzavotchilik sohasini rivoj-lantirish, kooperatsiya munosabatlari, intensiv bog‘dorchilikni iqtisodiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-nazariy yechimlar O‘.Umurzakov, N.Xushmatov, O.Jumaev, X.Xushvaqtova, Sh.Murodov, S.Eshmatov, O.Sattorov, N.Ashurmetova, O.Norbekov, F.Polvonov[4] kabi qator agrar iqtisodchi olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan.

Ammo, yuqorida keltirilgan olimlarning ishlarida yong‘oq yetishtirish-ning o‘ziga xos xususiyatlari, iqtisodiy samaradorligi va tashkiliy-iqtisodiy jihatlari tadqiqot predmeti sifatida atroflicha o‘rganilmagan. O‘zbekiston sharoitida yong‘oq yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatkichlari esa nisbatan yangi yo‘nalish bo‘lib, mevachilik sohasidagi bir qancha tadqiqotlar tarkibida

---

[3] H.Adem & Peter H.Jerie. “Walnut Industry. Research & Best Practice Implementation”. A report for the Rural Industries Research and Development Corporation. 2004. Publication № 04/032. Project No.Dav-164A.; Larry Harper, Dr. William Kurtz. “Economics of Eastern Black Walnut Agroforestry Systems”. School of Natural Resources, University of Missouri, USA. 2014.; Назранов Х.М., Чемазокова З.З. Урожайность ореха грецкого в Лескенском лесничестве. Сборник научных трудов по итогам VI Международной научно-практической конференции “Аграрная наука и образование в условиях цифровизации экономики”. Нальчик. 2018. – 255-258 стр.; Салваридзе Л.Х. Приоритетные направления повышения эффективности горного садоводства. к.э.н. … дисс авт. – Краснодар. 1991. – 22 стр.; Наконечная О.А. Повышение эффективности производства продукции садоводства в специализированных организациях. к.э.н. … дисс авт. - Новосибирск 2009. – 24 стр.; Хашир А.А. “Организационно-экономический механизм повышения эффективности промышленной переработки орехов в России” дисс к.э.н. Краснодар, 2004г.; Бахшинежад М. Сравнительные преимущества культур семейства ореховых в Иране” дисс к.э.н. МГУ. им М.Ломоносова. 2012 г.;

[4] Ў.П.Умурзоков, С.К.Эшматов. Мева-сабзавотчилик киймат занжири таҳлили/ http://evu.uz/magazine/meva-sabzavotchilikda-qiymat-zanjiri-tahlili.html.; Н.С.Хушматов Дунёнинг йирик мамлакатларида ёнғоқ етиштириш ва савдоси ўзгариши тенденциялари. Ж. “Агроиктисодиёт” – 2018. №2. – Б. 8-10.; О.Жумаев Кўп укладли иктисодиёт шароитида мева-сабзавотчилик мажмуида кооперацияни ривожлантиришнинг ташкилий-иктисодий асослари. и.ф.н... дисс. авт. – Т.: ЎзБИИТИ, 2004. – 24 б.; Ҳ.С.Хушвақтова Бозор шароитида мева-сабзавот кичик мажмуасида агросаноат интеграциясини ривожлантиришнинг ташкилий-иктисодий муаммолари. и.ф.н. ... дисс. авт. – Т.: ЎзБИИТИ, 2005. – 23 б.; Ш.Муродов Мева-сабзавот маҳсулотларини сотиш соҳасида кооперация муносабатларини шакллантириш. и.ф.ф.д. ... дисс. авт. – Т.: ТИҚХММИ, 2020. – 24 б.; С.Эшматов Мева-сабзавотчилик тармоғида қўшилган киймат занжирини ривожлантириш йўналишлари. и.ф.ф.д. ... дисс. авт. – Т.: ТИҚХММИ, 2021. – 26 б.; О.Сатторов Фермер хўжаликларида интенсив боғдорчиликни ривожлантиришнинг иктисодий асосларини такомиллаштириш йўналишлари. и.ф.ф.д. ... дисс. авт. – Т.: ТИҚХММИ, 2021. – 28 б.; Ашурметова Н.А. Анализ развития интенсивного садоводства в Ташкентской области Республики. “Аграр тармоқ иқтисодий салоҳиятини оширишда институционал ислоҳотлар ва агрокластерларни ривожлантиришнинг ўрни: муаммо ва ечимлар” мавзусидаги Республика илмий-амалий анжумани материаллар тўплами. Т.: ТДАУ, 2021. – 88-92 бетлар.; О.Норбеков Озиқ-овқат таъминоти – устувор вазифа. Агро илм – Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. 2016. Б.15.; Ф.Полвонов, Н.Хушматов Қишлоқ хўжалигида етиштирилаётган мева-сабзавот маҳсулотлари бозорини ривожлантириш йўналишлари. “Аграр тармоқ иқтисодий салоҳиятини оширишда институционал ислоҳотлар ва агрокластерларни ривожлантиришнинг ўрни: муаммо ва ечимлар” мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани материаллар тўплами. Т.: ТДАУ, 2021. – 39-43 бетлар.

qisman o‘rganilgan xolos. Shuningdek, mamlakatimizda yangicha tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar tatbiq etilayotgan intensiv rivojlanish davrida yong‘oq va yong‘oq mahsulotlariga bo‘lgan talab ortib bormoqda.

Bundan tashqari, ichki va tashqi bozorda meva-sabzavot mahsulotlari bozorini kengayib borayotgani, grek yong‘og‘i va boshqa yong‘oq mahsulotlarini yetishtirish, sotish va qayta ishlash tizimini yanada rivojlantirish borasida yong‘oqchilik sohasi oldiga tubdan yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Shu nuqtai-nazardan, yong‘oq yetishtirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomil-lashtirishga qaratilgan ilmiy tavsiya va amaliy takliflar ishlab chiqish zarurati monografiya mavzusining tanlanishiga asos bo‘ldi.

# I BOB. YONG‘OQ YETISHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

## 1.1. Yong‘oq yetishtirishning iqtisodiy zaruriyati va o‘ziga xos xususiyatlari

Respublikamizda meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash, eksport salohiyatini oshirish maqsadida mevazor hamda intensiv bog‘dorchilikni barpo etish, eskilarini rekonstruksiya qilishga yo‘naltiril-gan kompleks investitsiya loyihalari bajarib kelinmoqda. Shuningdek, mamla-katimizda yetishtirilgan meva-sabzavot mahsulotlari jahondagi bir qator mamlakatlarga eksport qilinib, eksport geografiyasi kengaymoqda. Yong‘oq biznesini rivojlantirishga nafaqat tadbirkorlar, balki davlat ham alohida e’tibor qaratib kelmoqda.

Insoniyatning ovqatlanish ratsionida yong‘oqning ahamiyati juda katta. Yong‘oq mevasi boshqa mevalardan tarkibiy elementlari va xususiyatlariga ko‘ra yuqori kaloriyaligi bilan ajralib turadi. Yong‘oq mag‘zi kaloriyaliligi bo‘yicha mol go‘shtidan 7 marotaba yuqori hisoblanadi. Grek yong‘og‘i mag‘zi tarkibida temir, fosfor, mis, serotin moddalari, 58–77% yog‘, 12–25% oqsil va 5–25% uglevodlar mavjud bo‘lib, uni iste’mol qilgan insonning asab tizimi me’yorlashadi, xotirasi mustahkamlanadi. Yong‘oq tarkibidagi yog‘ qondagi xolesterinni kamaytiradi, yurak-qon tomirlari kasalliklarini oldini olishga yordam beradi.

Mamlakatimiz tuproq-iqlim sharoiti yong‘oq ko‘chatlari rivojlanishi uchun ancha qulay hisoblanadi. Yong‘oqni parvarishlashda noqulay tabiiy sharoitlar, masalan sug‘orish qiyin bo‘lgan adirliklarda ham yaxshi samaradorlikka erishish mumkin. Grek yong‘og‘i qattiq issiq va sovuq bo‘lgan sharoitda hamda har xil kasalliklar va zararkunandalar paydo bo‘lgan paytda ham boshqa meva turlariga qaraganda ancha chidamli hisoblanadi.

Yong‘oqning juda ko‘p foydali xususiyatlari mavjud bo‘lib, yog‘ochi mebel-sozlik sanoati uchun qimmatbaho xomashyo bo‘lsa, bargidan tortib mevasigacha shifobaxsh xususiyatga ega sanaladi. Xalq tabobatida yong‘oqning po‘stlog‘i, mag‘zi va yog‘idan keng foydalaniladi. Yong‘oq va yong‘oq mahsulotlarida vitaminlar, minerallar, shuningdek xolesterin miqdorini kamaytirishga yordam

beradigan bir qancha yog'lar mavjud. Tibbiyotda ko'plab tajriba-sinovlar tahlillariga ko'ra, yong'oqning insonlarning ovqatlanish ratsioniga turli ko'rinishda kiritilishi inson organizmiga yaxshi ta'sir qilishi bilan birga, moddalar almashinuvini me'yorlashtirish, xotirani mustahkamlash va immunitetni oshirish mumkinligi isbotlangan.

Avvalambor, yaxshi ko'chatni tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa grek yong'og'idan yuqori hosil va daromad olish imkonini beradi.

Ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimizda aholining kun sayin tabiiy mahsulotlariga nisbatan o'sib borayotgan ehtiyojlari, sanoatni esa xom ashyoga bo'lgan talablarini to'la-to'kis qondirish eng asosiy vazifalardan biridir. Chunki hozirgi kunda aholining turmush darajasi va mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish sharoitida o'ta dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Respublikamizning deyarli barcha hududlarida yong'oq yetishtiriladi. Bugungi kunda mamlakatimiz bo'yicha 337,3 ming gektar bog'lar mavjud bo'lib, shundan 18,7 ming gektarini yong'oq plantatsiyalari tashkil etadi. Ma'lum qilinishicha, mamlakatimizda yong'oqning "Bo'stonliq", "Yupqa po'stloq", "Yubiley", "Ideal", "Shakl N-86", "Chandler", "Peschanskiy", "Cogalniceanh", "Codrene" kabi navlari yetishtirilmoqda[5].

O'simliklarning tarkibini o'rganish asosida foydali va shifobaxsh o'simliklarning turlari yildan-yilga ko'payib borishi mumkin. Shu bois, o'simliklarning turlari atroflicha o'rganilsa, ularning foydali xususiyatlaridan keng foydalanilsa, xalqimizni turmush darajasi va farovonligi ortadi. Ayniqsa, 2700 ga yaqin tur o'simliklarga ega bo'lgan Farg'ona vodiysi bir necha ming yillar davomida xalqimizni xushbo'y, yoqimli to'yimli, yog' oqsilga boy, shifobaxsh xilma-xil mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirib kelmoqda. Bu borada yong'oq mevalilar, ayniqsa, grek yong'og'i alohida ahamiyatga ega.

5 https://east-fruit.com/uz/yangiliklar/bu-yilgi-bahorda-ozbekistonning-yonqoq-ekilgan-maydonlari-11-ming-gektarga-ortdi/

Yong‘oqzorlar barpo qilish, yong‘oqli o‘rmonlar tashkil qilish orqali qurib qaqshab yotgan qir va adirlarda, tog‘ yon bag‘irlarida, aholi yashaydigan joylarda ushbu imkoniyatlaridan foydalanish orqali aholining yong‘oq va yong‘oq mahsulotlariga bo‘lgan talabini yanada yaxshiroq qondirish mumkin.

Hozirgi kunda yong‘oqning yangi yaratilgan mahalliy navlari ko‘p, ular orasidan serhosil, yuqori sifatli, mahalliy sharoitda o‘sishga moslashgan navlarini tanlay bilish, agrotexnikasini puxta o‘rganish, tabiiy yong‘oqzorlar ko‘p bo‘lsada, serhosil navlar hisobiga ularni to‘ldirish, yangilash hisobiga hosildorlikni oshirish imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali hosildorlikni oshirish mumkin.

Tabiiy yong‘oqzorlarni saqlab qolish, yangi navlar hisobiga boyitish, bo‘sh yotgan cho‘l, adir va tog‘larda yong‘oqzorlar, yong‘oqli bog‘lar, yong‘oqli o‘rmonlar barpo qilish, hosildorligi yuqori yangi navlarni yaratish, eski tabiiy yong‘oqzorlarni boyitish hisobiga xalqimizni yong‘oq mahsulotlariga bo‘lgan talablarini qondirish, barcha yong‘oqzorlardan ilmiy asoslangan rejalar asosida foydalanishga erishish muhimdir.

Yong‘oq va uning mevasidan tayyorlanadigan mahsulotlar xalqimiz sevib iste’mol qilib kelayotgan va yilma-yil talab ortib borayotgan qimmatbaho ne’mat ekanligi sababli yong‘oqzorlardan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish va xalqimiz orasida bu borada targ‘ibot ishlarini yanada jonlantirish maqsadga muvofiq.

“Yong‘oqni ko‘p iste’mol qilgan insonlarning xotirasi boshqalarga nisbatan mustahkam bo‘lib, yong‘oq iste’molining inson organizmiga ijobiy ta’siri quyidagilardan iborat:

- yong‘oq tarkibida ko‘p miqdorda yog‘ mavjud bo‘lib, u nafaqat xotirani yaxshilaydi, balki organizmni uzoq vaqt to‘q tutadi;
- ozg‘inlikdan azob chekayotganlar bemalol yong‘oqni iste’mol qilishi mumkin. Chunki yong‘oqdagi kaloriya organizmni ko‘p miqdordagi yog‘ bilan ta’minlay oladi;
- 6 hafta davomida yong‘oqning kamida 3 turini birgalikda iste’mol qilish tanadagi tuz miqdorini kamaytiradi;

- yong‘oq organizmdagi qand miqdorini tushiradi. Shu sababli qandli diabet kasalligiga chalinganlar ham bemalol iste’mol qilishi mumkin;
- shifokorlarning 12 haftalik tekshiruvi natijasida kuniga ikki marta yong‘oq iste’mol qiladigan insonlarda qondagi shakar miqdorining 9% ga kamayishi aniqlangan;
- yong‘oq iste’moli yuzdagi ajinlarni yo‘qotish xususiyatiga ega;
- yong‘oqni istalgan holatda iste’mol qilish mumkin. Hatto oziq-ovqat ustiga maydalab sepib chiqilsa ham uning foydali elementlari saqlanib qoladi;
- ko‘pchilik insonlar yong‘oqni quruq holatda qovurib iste’mol qilishadi. Bu organizmni uzoq vaqt ochlikdan asraydi;
- yong‘oqni imkon qadar tongda iste’mol qilish lozim. Bunda nafaqat ishtaha ochiladi, balki xotira ham maksimal darajada mustahkamlanadi”[6].

O‘zbekistonda yong‘oq (Juglans regia L.) daraxti eng muhim xususiyatlari bilan bir qatorda yerlarni meliorativ holatini yaxshilashda ham katta ahamiyatga ega. Yong‘oq mevali daraxtzorlar hududlarda sel oqimlari va tuproq eroziyasi jarayonlarining oldini oladi va xalq xo‘jaligi uchun katta zararning oldini oladi. Grek yong‘og‘ining yovvoyi turdoshi ham bo‘lib, u hosildorligi pastligi bilan ajralib turadi. Grek yong‘og‘ini yetishtirishda qimmatli navi va shakllarini tanlash, bog‘ barpo etish, zamonaviy agrotexnologiyalarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Abu Ali Ibn Sino yong‘oqning barg shirasini iliq holda quloq ichi yiringlaganda tomizgan. Yong‘oq po‘stlog‘idan tayyorlangan qaynatmani bachadondan qon ketishini to‘xtatishda va gijja haydovchi omil sifatida tavsiya etgan. Yong‘oqning mag‘zi endigina sut yiqqan paytida juda foydali bo‘ladi. Bu davrda unda vitaminlar ko‘payadi. Shu bois, yong‘oqning hali to‘la pishmagan mevasidan sanoat miqyosida vitaminli konsentratlar olinadi.

Yong‘oq bargining ajoyib xususiyatlaridan yana biri ularning turli hasharot va kuyalarga qiron keltiruvchi is chiqarishidir. Uy sharoitida yong‘oqdan damlama tayyorlash uchun quritilgan va

[6] Sayfiddinova M. Yong‘oq yeb turish foydami yo zarar? https://archive.qalampir.uz/news/yongoq-eb-turish-foydami-yo-zarar-25838.

kukunlashtirilgan yong'oq bargidan 1 choy qoshiq miqdorda olib 1 stakan qaynoq suv bilan damlab qo'yiladi. Damlama sovugandan so'ng, dokadan suziladi, sharbati ajratiladi va kuniga 3-4 mahal 1 qoshiqdan ichiladi. Yong'oqning yangi barglaridan moyli damlama tayyorlash ham mumkin. Buning uchun 50-80 g miqdorda maydalangan yangi yong'oq barglari olinib, 300 g qizdirilib sovutilgan kungaboqar moyi bilan aralashtiriladi va uy haroratida 20 kun damlab qo'yiladi.

Tabiatshunos olimlarimizning keltirgan ma'lumotlariga qaraganda, yong'oq daraxtlari keyingi vaqtlarda sezilarli darajada kamayayotgan edi. Respublikamizda yong'oqzorlarni ko'paytirishga barcha sharoitlar bor. Yong'oq anchagina chidamli o'simlik bo'lib, nam yetarli bo'lgan tuproqlarda yaxshi o'sadi, sovuqqa chidamlidir. Uning rivojlanish davri 165-210 kundan iborat. Hosilga kirgan yong'oq daraxtidan 100-150 kg, ayrim tuplaridan 500 kg gacha hosil yig'ish mumkin.

Mevasining mag'zi juda mazali va to'yimli, tarkibida 60-70% yog' 11-20% oqsil, 20% gacha uglevodlar va vitaminlar bor. Xom yong'oq tarkibida na'mataknikiga qaraganda 3-5 barobardan ortiq S vitamini mavjud.

O'zbekistonda asosan yong'oqning quyidagi navlari ekiladi. Bo'stonliq navi daraxti balandligi 16 m gacha boradi. Mevasi yirik (13,3 g), tuxum shaklida, po'stlog'i och sariq, yupqa. Mag'zi po'chog'idan oson ajraladi. Mag'zi chiqishi 48,6%. Tarkibida 68,8% yog' va 2,2% qand bor.

G'alvirak (yupqa po'choq) daraxti 16 metrgacha. Mevasi o'rtacha (9-9,5 g), tuxum shaklida, po'chog'i oqish sariq, yupqa. Mag'zi po'chog'idan oson ajraladi, tarkibida 68,8% yog' va 3% qand bor.

O'zbekistonda yong'oqning yana Konsoy, Pioner, Vatan, Yubiley, Do'rmon1, Do'rmon2 va boshqa navlari yetishtiriladi.

Xalqimizda "Bir tup yong'oq eksang, hosilidan yetti avloding bahramand bo'ladi", degan gap bor. Bu bejiz emas. Yong'oq daraxti 300-400-yil yashab, hosil bergani bois, undan bir necha avlod bemalol bahramand bo'ladi.

Yong‘oqdan uzoq yillar davomida 250-300, hatto 500 kilogrammgacha hosil olish mumkin. Qolaversa, bu unchalik ko‘p mehnat va xarajat talab qilmaydi. Shunday ekan, ikki-uch tup yong‘og‘i bor oila bir yilda qancha daromad olishini hisoblash qiyin emas.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoev joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari bilan yaqindan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida viloyatlarga tashrifi chog‘ida xonadonlarda bo‘lib, limon, yong‘oq, anor, bodring kabi serdaromad daraxt va ekinlar ekish zarurligini alohida ta’kidlamoqda. Ana shunday e’tibor samarasida yurtimizning tog‘li hududlarida 30 ming gektar yong‘oqzor barpo etish bo‘yicha ishlar boshlab yuborildi.

Mutaxassislarning fikricha, mamlakatimizda bog‘dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish uchun viloyatlarning tog‘li mintaqalari istiqbolli hisoblanadi.

Yong‘oq mag‘zi o‘z shakli bo‘yicha odam miyasiga juda o‘xshab ketishini hammamiz yaxshi bilamiz. Bu bejiz emas. Yangi o‘qish va ish mavsumi boshlanadigan sentabrь oyida yong‘oqli taomlar juda dolzarb hisoblanadi.

Yong‘oqlarning o‘ziga xos mazasi olma va nok, lavlagi va sabzi, selderey va baqlajon, yumshoq qaymoqli va moviy pishloqlar, shuningdek, asal, zarang daraxti qiyomi, kinza, petrushka, tovuq go‘shti, xren va sarimsoq piyoz bilan ham ajoyib tarzda birika oladi. Yong‘oqlardan asosan shirinliklarni (piroglar, tortlar, bulochkalar, pahlava va h.k.) pishirishda foydalaniladi, ammo ular salatlarni, ruletlar uchun qiymatlarni, pasta uchun souslar va pashtetlarni ham o‘zining ta’mi bilan a’lo darajada to‘ldirishi mumkin.

Yong‘oq va yong‘oq mahsulotlarining yuqorida keltirilgan qator foydali va shifobaxsh jihatlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, mamlakatimizda yong‘oq yetishtirishni rivojlantirish iqtisodiy jihatdan zaruriyat hisoblanadi. Yong‘oqchilik sohasini rivojlantirish uchun amalga oshirilayotgan izchil islohotlar respublika aholisining grek yong‘og‘i va boshqa yong‘oq turlariga bo‘lgan talabini qondirishga xizmat qiladi.

Yong‘oq yetishtirishni rivojlantirish iqtisodiy jihatdan zaruriyatini asoslashda quyidagi tadbirlarni bajarish muhimdir:

kamyob resurslar sharoitida suv tanqisligi va tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqib, lalmikor tog‘ oldi hududlarida yong‘oqzorlarni barpo etish;

yong‘oq qobiq orqali himoyalanganligiga qaramasdan kasalliklar va zararkunandalarga qarshi kurash tizimi bo‘yicha konsalьting (maslahat) agroxizmatlarini tashkil etish va rivojlantirish;

grek yong‘og‘ining yuqori hosil beradigan navlarini tanlab olish va ko‘chatchilikni mahalliy sharoitda rivojlantirish;

xorijiy mamlakatlar bilan qiyoslaganda, ishchi kuchi va resurslarning arzonligi sababli yong‘oq ishlab chiqarish xarajatlari nisbatan pastligini inobatga olgan holda yong‘oq yetishtirish yuzasidan tadqiqotlarni olib borish;

yong‘oq pishib yetilgandan so‘ng uni sotish bosqichigacha tayyorlash, tabiiy holda quritish;

yong‘oqni ko‘p muddatga yaxshi holatda saqlash imkoniyati hamda boshqa mevalarga qaraganda katta xarajat talab etmasligini inobatga olgan holda grek yong‘og‘ini ichki va tashqi bozorda yaxshi narxlarda sotish;

qayta ishlash: po‘stlog‘idan tozalash, quritish, oqartirish va navlarga ajratish natijasida mahsulot narxi ko‘tarilishiga erishish va talab katta bo‘lgan potensial savdo bozorlarini aniqlab olish;

sifatni yaxshilash, brendlash, sertifikatlash, qadoqlash orqali qo‘shimcha qiymatli mahsulot yaratish[7];

yong‘oq, bodom va pista daraxtlari 25-50 yilgacha meva berishini inobatga olib, yong‘oq ishlab chiqarish hajmini oshirish maqsadida investitsiyalar kiritish;

bugungi kunda o‘rmonlarni kesish holatlari ko‘p uchramoqda, shu bois tog‘ va tog‘ oldi hududlarida grek yong‘og‘i va boshqa yong‘oq turlarini yetishtirish va dehqon xo‘jaliklari daromadlarini oshirish;

---

[7] Oilaviy tadbirkorlik: yong‘oq biznesini qanday tashkil qilish mumkin? EastFruit 17 Mar 21. https://east-fruit.com/uz/yangiliklar/oilaviy-yonqoq-biznesi-nima-uchun-bu-istiqbolli-va-uni-qanday-tashkil-qilish-mumkin/.

yong‘oq ishlab chiqarish hajmini oshirish, yong‘oq hosildorligini ko‘tarish va ichki hamda tashqi bozorda raqobatbardoshligini ta’minlash maqsadida intensiv yong‘oqchilikni rivojlantirish, intensiv ko‘chatlarni ekish;

yong‘oq yetishtirishda o‘g‘it yetkazib berish va ko‘chatlar bilan ta’minlash tizimini iqtisodiy rag‘batlantirish maqsadga muvofiqdir.

Qishloq ho‘jaligida bir bo‘g‘in sifatida yong‘oqchilik sohasining xususiyatlarini inobatga olmasdan turib, sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash va tahlil qilish murakkab jarayondir. Shu sababli, yong‘oqchilik sohasining o‘ziga xos xususiyatlarni tizimlashtirgan holda o‘rganish sohani tadqiq etishda eng muhim masala sifatida izohlanadi. Qishloq xo‘jaligida yong‘oqchilik sohasining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat (1.1-rasm):

- yong‘oqchilik sohasida yong‘oq yetishtirishning uzoq muddatli xarakterga ega ekanligi;

- yong‘oq bozorida yong‘oqning o‘rinbosar turlarini mavjud ekanligi;

- investorlarni jalb qilish uchun yong‘oq ishlab chiqarishda diversifikatsiyalash imkoniyatining mavjudligi;

- yong‘oqchilik xo‘jaligida yer asosiy ishlab chiqarish vositasi ekanligi;

- an’anaviy yong‘oqzorlarda hosil berish jarayonining tez bo‘lmasligi, intensiv bog‘larda esa yong‘oq daraxtlarining nisbatan tez hosilga kirishi;

- yong‘oqchilik qishloq xo‘jaligining rentabel sohalaridan biri ekanligi va yong‘oq daraxtlarining uzoq umr ko‘rishi mumkinligi;

- past bo‘yli, pakana va yarim pakana yong‘oq daraxtlarida mexanik shikastlanishning kamayishi va foyda miqdorining ortishi;

- yong‘oq yetishtirishning tuproq-iqlim sharoitiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqligi;

- yong‘oq daraxti va mevasining turli kasalliklar va zararkunandalarga qarshi chidamliligi;

- yong‘oqning boshqa meva turlariga nisbatan kam xarajat ekanligi.

Qishloq xo‘jaligida yong‘oq yetishtirish tannarxining pasayishi mehnat unumdorligining ortishi hamda resurslardan samarali foydalanish evaziga bo‘lishi mumkin.

**Qishloq xo‘jaligida yong‘oqchilik sohasining o‘ziga xos xususiyatlari**

- yong‘oqchilik sohasida yong‘oq yetishtirishning uzoq muddatli harakterga ega ekanligi
- yong‘oq bozorida yong‘oqning o‘rinbosar turlarini mavjud ekanligi
- investorlarni jalb qilish uchun yong‘oq ishlab chiqarishda diversifikatsiyalash imkoniyatining mavjudligi
- an’anaviy yong‘oqzorlarda hosil berish jarayonining tez bo‘lmasligi, intensiv bog‘larda esa yong‘oq daraxtlarining nisbatan tez hosilga kirishi
- yong‘oqchilik qishloq xo‘jaligining rentabel sohalaridan biri ekanligi va yong‘oq daraxtlarining uzoq umr ko‘rishi mumkinligi
- yong‘oqchilik xo‘jaligida yer asosiy ishlab chiqarish vositasi ekanligi
- past bo‘yli, pakana va yarim pakana yong‘oq daraxtlarida mexanik shikastlanishning kamayishi va foyda miqdorining ortishi
- yong‘oq yetishtirishning tuproq-iqlim sharoitiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqligi
- yong‘oq daraxti va mevasining turli kasalliklar va zararkunandalarga qarshi chidamliligi
- yong‘oqning boshqa meva turlariga nisbatan kam xarajat ekanligi

**1.1-rasm. Qishloq xo‘jaligida yong‘oqchilik sohasining o‘ziga xos xususiyatlari[8]**

Biroq, yong‘oqchilik infratuzilma tarmoqlari rivojining hozirgi holati tahlili, ularning samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun quyidagilarga e’tibor qaratish lozimligini taqozo etmoqda:

- ishlab chiqarish infratuzilmasining bir qancha ob’ektlari monopol sharoitda faoliyat ko‘rsatayotganliklarini inobatga olgan holda, ularning faoliyatini davlat tomonidan tartibga keltirish;

- ishlab chiqarish infratuzilmasi ob’ektlarining yong‘oqchilik xo‘jaliklariga nisbatan qulay joylashganligi va ko‘rsatiladigan xizmatlarning narxi arzon hamda sifatli bo‘lishi;

- qishloq hududlarida muqobil xizmat ko‘rsatish turlarini tashkil etish va rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlarni ta’minlash zarurligi.Ushbu xususiyatlarni yong‘oq yetishtirish samaradorligini baholash, jumladan, iqtisodiy samaradorlikni aniqlovchi ko‘rsatkichlar va ularning hisob usullarini takomillashtirishda e’tiborga olish talab etiladi.

## 1.2. Yong‘oq yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini baholashning uslubiy asoslari

Zamonaviy iqtisodiyotda tashqi muhitning rivojlanishi uning tez o‘zgaruvchan sharoitlari bilan tavsiflanadi, mahsulotlarning raqobatbar-doshligi, chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, ichki va tashqi bozorlarda xizmatlar ko‘rsatilishi korxonaning umuman bozorda muvaffaqiyatli ishlashini belgilaydi. Iqtisodiy samaradorlik kategoriyasi orqali korxona xo‘jalik faoliyatining eng muhim xususiyatlari, ya’ni dinamik o‘zgaruvchanlik, yaxlitlik, raqobatbardoshlik, ko‘p o‘lchovlilik, biznesni rejalashtirish va hokazolar o‘z aksini topadi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda amalga oshirilayotgan jarayonlarning iqtisodiy samaradorligini baholash konsepsiyasi umumiy xarakterda bo‘lib, har qanday shakldagi va faoliyat yo‘nalishidagi tashkilotlarga nisbatan qo‘llaniladi.

[8] Muallifning ilmiy-tadqiqotlari asosida tuzilgan.

Iqtisodiy samaradorlik korxonaning kompleks tarzda xo‘jalik faoliyati natijasi va uning elementlarini o‘zaro ta’sirini aks ettiradi. Iqtisodiy samaradorlikni baholash mezonlari-bu korxonada qo‘llaniladigan iqtisodiy samaradorlikni ta’minlash usullari va vositalarining natijadorligini baholash imkonini beruvchi mutlaq, nisbiy va dinamik samaradorlik ko‘rsatkichlari tizimi hisoblanadi.

“Samaradorlik” atamasini keng ma’noda ko‘rib chiqsak, uning umumiy tushuncha ekanligini ta’kidlashimiz mumkin, chunki bu atama inson faoliyatining har qanday sohasida qo‘llanilishi mumkin. Iqtisodiyot fanida konsepsiya asoschilaridan biri D.Rikardo o‘zining “Siyosiy iqtisod va soliqqa tortishning boshlanishi” (1817) asarida “iqtisodiy samaradorlikni natijaning ma’lum turdagi xarajatlarga nisbati sifatida ifodalagan”[9].

K.Marks “iqtisodiy samaradorlikni bir ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot bosqichini boshqasiga aylantirishning asosiy sharti sifatida qaragan”[10].

A. Pigu esa, “iqtisodiy tizim qachonki, barcha omillarning marjinal foydaliligi tenglashtirilganda maksimal samaradorlikka erishadi deb hisoblangan”[11]. Iqtisodchi olim J.Galbreyt o‘z asarlarida “iqtisodiy samaradorlik maqsadlarga erishish qobiliyati bilan belgilanadi”[12], deb yozgan.

Rossiyalik iqtisodchi olimlarning ishlarida “iqtisodiy samaradorlik” tushunchasining quyidagi ta’riflarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Jumladan, A.N.Asaul iqtisodiy samaradorlikka atroflicha ta’rif beradi, uni sifat kategoriyasi sifatida e’tirof etadi. “Bu kategoriya tadbirkorlik faoliyati-ning barcha bosqichlarida (ishlab chiqarish samaradorligi, tizimni tashkil etish darajasi, maqsadlarga erishish darajasi va boshqalar) o‘z aksini topadi”[13].

Z.A.Demchenko va boshqalar o‘z asarlarida “iqtisodiy samaradorlikka aniq bir vaqt oralig‘ida barcha ishlab chiqarish

---

9 Рикардо Д. Начала политической экономии и налогового обложения. М.: ЭСКМО, 2007. 960 с. С. 48.;

10 Маркс К. К критике политической экономии. М.: ЛИБРОКОМ, 2012. 178 с. С. 42.;

11 Arthur Cecil Pigou. The Economics of Welfare. London: Macmillan, 1920. p. 953

12 Джон Кеннет Гэлбрейт. Экономические теории и цели общества. Моска1976 стр -405

13 Управление устойчивостью предпринимательских структур. А.Н.Асаул. СПб.: Издание института проблем экономического возрождения, 2008. – 285 стр. ISBN-978-5-91460-015-7

resurslaridan foydalanishning yakuniy natijasi”[14] sifatida ta’rif berganlar.

N.A.Polyanskaya esa, “iqtisodiy samaradorlikni iqtisodiy faoliyat, iqtisodiy dasturlar va tadbirlar natijasi sifatida e’tirof etadi, bu olingan iqtisodiy samaraning ushbu natijaga olib kelgan omillar, resurslar xarajatlariga nisbati bilan tavsiflanishini ta’kidlab o‘tadi”[15].

Iqtisodiy lug‘atlarda “samaradorlik deganda samarani (erishilgan natija) uni olishga ketgan xarajatlarga nisbati tushuniladi”[16] deb keltirilgan. Xorijiy va rossiyalik iqtisodchi olimlarning ta’riflarini taqqoslab aytish mumkinki, “iqtisodiy samaradorlik” tushunchasi bir tomondan, iqtisodiy samaradorlik kategoriyasining ko‘p qirraliligi, boshqa tomondan esa ko‘rsatkichlar va o‘lchov birliklarida ifodalashning murakkab ekanligi bilan ajralib turadi degan xulosaga kelamiz. Biroq, ko‘pchilik mualliflar hali ham iqtisodiy samaradorlik yakuniy samara (natija)ning unga sarflangan resurslarga nisbatidan iboratligi deya o‘xshash fikrlarni ilgari surishadi. Xorijiy va mahalliy iqtisodiy adabiyotlarni tahlil qilishda ma’lum bo‘ldiki, hozirgi kunda “iqtisodiy samaradorlik”, “samara” va “natijadorlik” tushunchalari o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasi dolzarb bo‘lib turibdi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, “Iqtisodiy samaradorlik” tushuncha-sini tahlil qilib bo‘lgach, “samara” tushunchasi iqtisodiy samaradorlik ta’rifining bir qismi ekanligini tushunamiz.

“Samara” bu mutlaq qiymat bo‘lib, u qandaydir jarayonning natijasidir[17]. Shunday qilib, korxonaning ishlab chiqarish faoliyatining samarasi (natijasi) sifatida ishlab chiqarish hajmini va iqtisodiy faoliyatdan – sotish hajmini, oddiy faoliyatning moliyaviy natijalarini, foydani, sof foydani ko‘rib chiqish mumkin. “Samaradorlik” esa samaraning mutlaq qiymatini xarajatlar va resurslarning mutlaq qiymatlari bilan taqqoslash natijasida olingan nisbiy ko‘ratkich va u korxonaning faoliyatini belgilab beradi.

---

14 Демченко З.А., Быковский Е.И. Экономическая эффективность предприятия: понятие, сущность, показатели, способы определения // Наука XXI века: СПб., 2016. С. 141–145.;

15 Полянская Н.А. Некоторые подходы к определению эффективности использования производственных ресурсов // Вестник НГИЭИ. 2014. № 4 (5). Т. 1.

16 Азрилиян И. Н. Большой экономический словарь. - М.: Институт новой экономики, 1999. - 1248 с.;

17 Козырев В.М. Основы современной экономики: учебник. - 2-е изд., перераб. и доп. - М. Финансы и статистика, 2001. - 432 с.

Boshqacha qilib aytganda, samaradorlikning ma'nosi olingan natija-larga qanday xarajat (xarajatlar, resurslar) evaziga erishilganligini aniqlashdir.

Samaradorlik deganda rejalashtirilgan natijaga erishish darajasi, ya'ni haqiqiy va rejalashtirilgan natijalar nisbati tushunilishi kerak"[18].

"Samaradorlik" va "natijadorlik" tushunchalari o'rtasidagi bog'liqlik to'g'risidagi qiziqarli ilmiy yondashuvlar mashhur iqtisodchi olim P.Druker tomonidan shakllantirilgan bo'lib, u o'rganilayotgan atamalarning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini aniqlagan: u natijadorlikni "aniq va muayyan tadbirlarni qay tarzda amalga oshirish" deya tavsiflaydi. Samaradorlik esa "ishni to'g'ri tashkil etish" bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. P.Drukerning fikriga ko'ra, dastlabki bosqichda aniq strategiyani belgilash va muayyan maqsadni qo'yish orqali eng kam xarajatlar hisobiga belgilangan maqsadlarga erishish mumkin[19].

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalarga asoslanib aytish mumkinki, "samaradorlik", "samara" va "natijadorlik" tushunchalari bir-birini to'ldiradigan va o'zaro bog'liq, ammo ular aynan bir xil emas degan xulosaga kelish mumkin[20].

Shu bilan birgalikda, yong'oqchilik sohasida ham iqtisodiy ko'rsatkichlar va samaradorlik tushunchalariga xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan juda ko'plab izohlar va yondashuvlar keltirilgan. Jumladan, bir qator rossiyalik iqtisodchi olimlarning ta'kidlashicha, "yong'oq bog'larining past hosildorligi asosan navdan tashqari tarkib, yetarlicha changlanmasligi, mevalarning tushib ketishi, kasalliklar va boshqalar bilan izohlaydilar"[21].

A.F.Zarubin va F.S.Barыshmanlarning ta'kidlashicha, "yong'oqning hosildorligi past bo'lishining asosiy sabablaridan biri yong'oq plantatsiyalarining zichligidir"[22]. Bundan tashqari,

18 Иваницкий В. С. Оценка экономической эффективности функционирования предприятия в рыночных условиях: дисс. канд. экон. наук: 08.00.05. - Екатеринбург, 2003. - 149 с.; Оборина О.Е. Экономическая эффективность: понятие и сущность. - Текст: непосредственный // Молодой ученый. - 2020. - № 23 (313). - С. 427-429. - URL: https://moluch.ru/archive/313/71251/ (дата обращения: 26.07.2022).

19 Друкер П.Ф. Управление, нацеленное на результаты: пер. с англ. / П.Ф. Друкер. – М.: Технологическая школа бизнеса, 1994.

20 Оборина О.Е. Экономическая эффективность: понятие и сущность. - Текст: непосредственный // Молодой ученый. - 2020. - № 23 (313). - С. 427-429. - URL: https://moluch.ru/archive/313/71251.

21 Чепурной В.С., Василенко И.И. Резервы повышения урожайности грецкого ореха. // Садоводство и виноградарство. 1991 г. № 11. - с. 36-39.

22 Барышман Ф.С. Селекция ореха для повышения продуктивности защитных лесов. // Труды Кубанского сельскохозяйственного института, 1975. Выпуск 111 (139), - с. 83-94.

A.F.Zarubin "yong'oqni yupqalashdan oldin va undan keyin maydon birligidan olinadigan hosil bir xil bo'lib qoladi"[23], degan xulosaga keldi. V.A.Olisaev ta'kidlaganidek, ba'zi mualliflarning fikricha, "yong'oq hosildorligi pastligining asosiy sabablaridan biri plantatsiyalarning zichligidir. Yorug'likning yetishmasligi va hosilning keskin pasayishiga olib keladi. Shuning uchun, ishlab chiqarishda, plantatsiyalarni ilmiy asoslangan ekish sxemasi bo'yicha tashkil etish tavsiya qilinadi"[24].

Yong'oq yetishtirish va uni hajmini oshirish, yong'oq yetishtirishning iqtisodiy ko'rsatkichlari, sohani rivojlantirish masalalari bo'yicha ko'plab xorijiy iqtisodchi olimlar shug'ullanishgan. Jumladan, Eronlik tadqiqotchi Maxmud Baxshinejadning "Sravnitelьnыe preimuщestva kulьtur semeystva orexovых v Irane" nomzodlik dissertatsiyasida[25] Eron yong'oq ishlab chiqarish va eksport qilishda mavjud nisbiy ustunlikni oshirib borish uchun yuqori salohiyatga egaligi keltiriladi. Uning fikricha, sohada moddiy-texnika bazasini shakllantirish, kadrlar tayyorlash, infratuzilmani rivojlantirish kabilarni o'z ichiga olgan samarali ishlab chiqarish uchun mos sharoitlarni yaratish bo'yicha chora-tadbirlar zarurdir. Yong'oq kabi ekinlarni yetishtirish uchun zaruriy sharoitlar yaratilganda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga ishchilarni yana jalb qilish mumkin.

Avstraliyalik H. Adem & Peter H. Jerie[26] hisobotlarida yong'oq yetishtiruvchilar uyushmasi shaklida ishlab chiqarishni tashkil etish orqali sohada iqtisodiy samaradorlikni oshirish istiqbollari ko'rib chiqilgan. Bunda tashkiliy masalalarga ko'proq to'xtalib, yong'oq ko'chatlarini tayyorlash, ekish, ishlov berish jarayonlari samaradorlikka erishishda muhim omillar ekaniga urg'u berilgan. Shuningdek, yong'oqzorning rivojlanish davrida yilma-yil daromad va xarajatlar taqqoslab chiqilgan hamda maxsus

23 Зарубин А. Ф. К вопросу о вторичном цветении грецкого ореха. «Природа», 1949.

24 Олисаев В.А. На плантациях ореха грецкого. // Сельские зори. 1979 г. № 11. - с. 57-58.

25 Махмуд Бахшинежад. "Сравнительные преимущества культур семейства ореховых в Иране" диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. МГУ им М.Ломоносова (2012 г.).

26 H. Adem & Peter H. Jerie. "Walnut Industry. Research & Best Practice Implementation". A report for the Rural Industries Research and Development Corporation. 2004. Publication №.04/032. Project No. Dav-164A.;

investitsion dasturlar, soliq imtiyozlari orqali iqtisodiy samaradorlik oshishiga erishish mumkinligi taklif etilgan[27].

AQShlik tadqiqotchilar Larry Harper, Dr. William Kurtz ning “Economics of Eastern Black Walnut Agroforestry Systems” maqolasida Missuri asosiy agro-o‘rmon tizimida yong‘oq daraxtlari rentabelligi tahlil etilgan. Ko‘pgina hollarda korxonaning barqaror rentabelligi deyarli yong‘oq ishlab chiqarishga bog‘liq bo‘lishini keltirib o‘tadi va yong‘oqchilikni rivojlantirish-da davlatning iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlari bo‘lishi kerakligini tushuntiradi[28].

Mamlakatimizda yong‘oq yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatkichlari hali to‘liq o‘rganilmagan bo‘lib, mevachilik sohasidagi bir qancha tadqiqotlar tarkibida qisman ko‘rib chiqilgan.

Jumladan, mamlakatimizning iqtisodchi olimlaridan N.S.Xushmatov, T.Fayzullaevalarning fikricha, “grek yong‘og‘i yetishtirishning katta miqdor-dagi sarf-xarajatlar talab qiladigan davri bu yong‘oq plantatsiyasini tashkil qilish davri bo‘lib, daraxtlar hosilga kirgandan keyingi uzoq yillik (250-300 yilgacha) mahsulot berish davrining o‘ta kam xarajatli ekanligi, tadbir-kor uchun investitsion jozibadorlik kasb qiladi. Mahsulot yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi juda yuqori bo‘lib, mutaxassislarning hisob-kitoblariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, serhosil navli yong‘oqlar 8 yildan keyin yaxshi hosilga kirib, bitta daraxt hisobiga o‘rtacha 18 kilogramm mahsulot bera boshlaydi”[29].

Sh.Murodov fikriga ko‘ra, “ko‘p sonli fermer va dehqon xo‘jaliklarini bir vaqtda meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, moddiy-texnik resurs-lar sotib olish, bozorlarni o‘rganish, xaridor qidirish va mahsulotning iste’molchigacha sifatli yetkazib berishga ega emasligi boisdan kooperativlar samarali hisoblanadi”[30].

---

27 H. Adem & Peter H. Jeric. “Walnut Industry. Research & Best Practice Implementation”. A report for the Rural Industries Research and Development Corporation. 2004. Publication №.04/032. Project No. Dav-164A.;

28 Larry Harper, Dr. William Kurtz. “Economics of Eastern Black Walnut Agroforestry Systems”. School of Natural Resources, University of Missouri, USA. 2014.

29 Н.Хушматов, Т.Файзуллаева Грек ёнғоги етиштиришда баҳо шаклланиши ва бозорнинг ўзгарувчанлик хусусиятлари. Ж.: Agro ilm – O‘zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi. - №5. 2019. Б.106.

30 Ш.Муродов Мева-сабзавот маҳсулотларини сотиш соҳасида кооперация муносабатларини шакллантириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. 2020. – Б.21-22·

S.Eshmatovning ta'kidlashicha, "meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirishda ekinlarni jahon va ichki bozor kon'yukturasi talablaridan kelib chiqib joylashtirmaslik, eksportbop navlarni yetishtirish, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashishda ilmiy va innovatsion tizim yo'lga qo'yilmaganligi, hududlardagi qayta ishlash korxonalari quvvatlarini hisobga olmaslik, intensiv texnologiyalarni joriy etishning sekinligi kabi omillar hosildorlik pasayishiga va mahsulotlar tannarxi oshishiga sabab bo'lmoqda"[31].

O.Sattorovning ilmiy ishlarida, "intensiv bog'larda yuqori darajadagi va barqaror hosildorlik ta'minlanishi, mevali daraxtlar past bo'lganligi sababli hosil qiyinchiliksiz qo'lda terib olinishi, terib olingan hosilning mexanik shikastlanishini oldi olinishi tufayli bozorga taklif qilinadigan yuqori sifatli mahsulotlar salmog'i ortishi intensiv bog'lar iqtisodiy samaradorligining 20-25 foizga ortishini ta'minlaydi. Shuningdek, vegetatsiya davrida oziqlantirish tadbirlarini o'tkazish, tomchilatib sug'orish tizimidan hamda mexanizatsiya vositalaridan foydalanishda katta qo'layliklar yaratilishi kabi ilmiy va amaliy yondashuvlar"[32] o'z aksini topgan.

Umuman olganda, yong'oqni ichki va tashqi bozorda sotish imkoniyatlarini baholash, yong'oqchilik sohasidagi tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarga oid ilmiy-tadqiqotlar bilan respublikamizdagi qator yetakchi olimlar o'zlarining ilmiy va amaliy taklif hamda tavsiyalari bilan muhim hissa qo'shib kelmoqdalar.

Bizningcha, yong'oqchilikda har bir yong'oq turlari bo'yicha yong'oq yetishtirishning iqtisodiy ko'rsatkichlari va o'ziga xos xususiyatlari o'rganilishi, yong'oq narxini shakllanishi bosqichlari tahlil qilinishi, yong'oq yetishtirishdan sotishgacha va oxirgi iste'molchigacha bo'lgan zanjir ishtirok-chilarining qo'shilgan qiymatlari ulushlari orqali aholi daromadlarini baholanishi va tahlil qilinishi bugungi kunda mamlakatimizda, ayniqsa, tog' va tog' oldi mintaqalarida lalmikor yerlarda yong'oq, pista va bodom kabi meva mahsulotlari yetishtirishning iqtisodiy va ijtimoiy zaruriyatini aniq

31 С.Эшматов Мева-сабзавотчилик тармоғида қўшилган қиймат занжирини ривожлантириш йўналишлари. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори диссертация автореферати. 2021. – Б.25-26.

32 О.Б.Сатторов "Фермер хўжаликларида интенсив боғдорчиликни ривожлантиришнинг иқтисодий асосларини такомиллаштириш йўналишлари" иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. 2021. – Б.12.

belgilab beradi. Shuningdek, yong‘oq yetishtirishda iqtisodiy ko‘rsatkichlarni atroflicha tahlil etib, xulosalar chiqarish muhim hisoblanadi.

Yong‘oqchilik sohasida iqtisodiy ko‘rsatkichlar, samaradorlik tushuncha-lari bo‘yicha yetakchi iqtisodchi olimlarning turlicha yondashuvlarini tahlil qilib aytish mumkinki, bizning nazarimizda, yong‘oq yetishtirishning o‘ziga xos xususiyatlari, yong‘oq yetishtirish samaradorligini baholash, jumladan, iqtisodiy samaradorlikni aniqlovchi ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirish va ularning hisob usullarini takomillashtirishda e’tiborga olinishi maqsadga muvofiqdir (1.1-jadval).

**1.1-jadval**

**Yong‘oq yetishtirishning iqtisodiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha yetakchi iqtisodchi olimlarning turlicha yondashuvlari[33]**

| № | Olimlarning F.I.Sh. | “Samaradorlik” tushunchalari, yong‘oq yetishtirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari bo‘yicha turli yondashuvlar | Muallif-lik yonda-shuvlari |
|---|---|---|---|
| 1. | D.Rikardo, J. Galbreyt | Iqtisodiy samaradorlikni natijaning ma’lum turdagi xarajatlarga nisbati sifatida ifodalagan. U maqsadlarga erishish qobiliyati bilan belgilanadi. | Yong‘oq yetishtirishning o‘ziga xos xususiyatlari, yong‘oq yetishtirish samaradorligini baholash, jumladan, iqtisodiy samaradorlikni aniqlovchi ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirish va ularning hisob usullarini takomillashtirishda e’tiborga olinishi maqsadga muvofiqdir |
| 2. | A.N.Asaul | Iqtisodiy samaradorlikni sifat kategoriyasi sifatida tadbirkorlik faoliyatining barcha bosqichlarida (ishlab chiqarish samaradorligi, tizimni tashkil etish darajasi, maqsadlarga erishish darajasi va boshqalar) o‘z aksini topadi deya e’tirof etadi. | |
| 3. | Z.A.Demchenko | Iqtisodiy samaradorlikka aniq bir vaqt orali-g‘ida barcha ishlab chiqarish resurslaridan foyda-lanishning yakuniy natijasi sifatida ta’rif beradilar. | |
| 4. | Chepurnoy V.S., Vasilenko I.I. | Yong‘oq bog‘larining past hosildorligi asosan navdan tashqari tarkib, yetarlicha changlanmas-ligi, mevalarning tushib ketishi, kasalliklar va boshqalar bilan izohlaydilar. | |
| 5. | A.F.Zarubin, F.S.Barыshman | Yong‘oqning hosildorligi past bo‘lishining asosiy sabablaridan biri yong‘oq plantatsiyalarining zichligidir. | |
| 6. | M.Baxshinejad | Yong‘oqchilik sohasida moddiy-texnika bazasini shakllantirish, kadrlar tayyorlash, infratuzil-mani rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. | |
| 7. | H. Adem & Peter H. Jerie | Yong‘oqzorning rivojlanish davrida yilma-yil daromad va xarajatlar taqqoslab chiqilgan hamda maxsus investitsion dasturlar, soliq imtiyoz-lari orqali iqtisodiy samaradorlik oshishiga erishish mumkinligi taklif etilgan. | |

33 Muallifning ilmiy-tadqiqotlar asosida tuzilgan.

| | | | |
|---|---|---|---|
| 8. | N.S.Xushmatov, T.Fayzullaeva | Grek yong‘og‘i yetishtirishda ko‘proq sarf-xarajat-lar yong‘oq plantatsiyasini tashkil qilish davriga to‘g‘ri keladi. | |

Jadvalda keltirilgan ilmiy yondashuvlar va fikr-mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, yong‘oq yetishtirishda iqtisodiy samaradorlik tushunchasi birinchidan, yong‘oq yetishtirishning iqtisodiy jihatdan muhim xususiyatlarini inobatga olgan holda, bevosita mavjud resurslardan tejamkorlik bilan foydalanib, ilmiy usul va intensiv texnologiyalarni keng tatbiq etish evaziga olingan foydaning yong‘oq yetishtirish uchun ketgan umumiy xarajatlarga nisbati tarzida ifodalanishi, bugungi kunda yong‘oqchilik xo‘jaliklari faoliyatini to‘g‘ri baholash va tahlil qilishda yordam beradi.

Iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichini aniqlashda, birinchi galda, yong‘oq yetishtirish va sotish xarajatlari tarkibida qaysi xarajatlarning ulushi nisbatan yuqoriligi atroflicha tahlil qilinsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Tahlillarning ko‘rsatishicha, grek yong‘og‘i yetishtirish xarajatlarning tarkibida dastlab yong‘oqzorlar barpo etish davrida eng katta xarajat ulushi sifatida ko‘chat va ko‘chat yetkazib berish uchun sarflanadigan xarajatlar, agrotexnologik xarajatlar tashkil qilmoqda.

Umuman olganda, bizningcha, yong‘oq yetishtirish va sotishning iqtisodiy samaradorligini baholashda birinchidan, yong‘oq yetishtirish va sotish xarajatlarining tarkibiy qismlarini aniqlab olib, to‘g‘ri hisobini yuritish kerak.

Bundan tashqari, yong‘oq yetishtirishning xususiyatlari, iqtisodiy jihatlari, ekilgan ko‘chatlar soni va ekish sxemasi, kasalliklar va zararkunandalarga qarshi kurash tizimining mavjudligi, ichki va tashqi bozordagi mahsulotga bo‘lgan talabning barqarorligi, bozordagi narxning shakllanish xususiyatlari va boshqa jihatlarga chuqur e’tibor bergan holda atroflicha tahlil qilib, so‘ngra iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichini ilmiy-nazariy jihatdan to‘laqonli asoslash mumkin.

Yong‘oqchilik sohasining samaradorlik ko‘rsatkichlarini makro, mezo va mikrodarajada tadqiq etish yong‘oqchilik sohasini to‘laqonli tahlil etishda yordam beradi. Sohadagi miqdoriy hamda

tarkibiy o‘zgarishlar tendensiyalari bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishda asos bo‘ladi (1.2-jadval).

**1.2-jadval**

**Yong‘oq yetishtirish va sotishning iqtisodiy ko‘rsatkichlari[34]**

| | Darajasi | Ko‘rsatkichlar |
|---|---|---|
| Yong‘oq yetishtirish va sotishning iqtisodiy ko‘rsatkichlari | **makrodaraja** | Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yong‘oq mahsulotlari iste’moli hajmi |
| | | Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yong‘oq mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi |
| | | YaIMning umumiy hajmida yong‘oqchilikning ulushi |
| | | YaHMning umumiy hajmida yong‘oq yetishtirish va qayta ishlashning ulushi |
| | | Tashqi va ichki bozorlarda yong‘oq mahsulotlarini sotish hajmi |
| | **mezodaraja** | Mamlakat yong‘oq yetishtirish umumiy hajmida hududlarning ulushi |
| | | Ichki bozorda yong‘oq mahsulotlarining ulushi |
| | | Yong‘oq mahsulotlarining import va eksport ulushi |
| | **mikrodaraja** | Yong‘oq ishlab chiqarish va sotish xarajatlari |
| | | Yong‘oqchilik xo‘jaliklarining fond bilan qurollanganlik va ta’minlanganlik ko‘rsatkichlari |
| | | Yong‘oqchilik xo‘jaliklarining yalpi daromadi, foydasi va sof foydasi |
| | | Yong‘oqchilik xo‘jaliklarida xarajatlar rentabelligi darajasi |

Yuqoridagi fikr va ilmiy yondashuvlaridan kelib chiqib, yong‘oq yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatkichlari tizimi ishlab chiqildi.

Mazkur 1 kg yong‘oq mevasini intensiv tarzda yetishtirish uchun zarur bo‘lgan tomchilatib sug‘orish tizimi jihozlari qiymati, 1 tup intensiv yong‘oq daraxtidan olingan yong‘oq miqdori, 1 kg yong‘oq yetishtirish uchun talab etiladigan suv hajmi, 1 tup yong‘oq daraxtiga ishlov berish uchun to‘g‘ri keladigan mehnat sarfi, 1 tup

[34] Muallif ilmiy-tadqiqotlar asosida tuzilgan.

yong‘oq daraxtida yetishtirilgan yong‘oqning tovarlilik darajasi, 1 tup yong‘oq daraxtida yong‘oq yetishtirishning xarajatlar rentabelligi kabi samaradorlik ko‘rsatkichlari intensiv yong‘oqchilik xo‘jaliklarida yong‘oq yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini hisoblash va tahlil qilish imkonini beradi (1.2-rasm).




*Izoh: punktir chiziqli kvadratlardagi ko‘rsatkichlarni muallif tavsiya qilmoqda.*

**1.2-rasm. Intensiv yong‘oqchilikda yong‘oq yetishtirish iqtisodiy samaradorligini baholovchi ko‘rsatkichlar tizimi**[35]

Keltirilgan iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlar tizimi bo‘yicha har bir ko‘rsatkichni alohida hisoblash usullarini keltirib o‘tamiz:

[35] Muallifning ilmiy-tadqiqotlari asosida ishlab chiqlgan.

***Qiymat ko'rsatkichlari:***

$YoEt = JT / YaH$ [so'm/kg] (1)

bu yerda, YoEt – 1 kg yong'oq yetishtirish tannarxi; JT – jami tannarx, so'm; YaH – grek yong'og'i yalpi hosili, kg.

$F_{ga} = F / E_m$ [so'm/ga] (2)

bu yerda, $F_{ga}$ – 1 ga ekin maydoniga to'g'ri keladigan foyda, so'm; F – yalpi foyda, so'm; $E_m$ – yong'oq ekilgan ekin maydoni hajmi, ga.

$STT = YaM * B_n$ [kg*so'm] (3)

bu yerda, STT – sotishdan tushgan tushum, so'm; YaM – yalpi mahsulot, kg; $B_n$ – mahsulotning bozor narxi, so'm.

$SF_{ga} = SF / E_m$ [so'm/ga] (4)

bu yerda, $SF_{ga}$ – 1 ga ekin maydonidan olingan sof foyda, so'm; SF – sof foyda, so'm; $E_m$ – yong'oq ekilgan ekin maydoni hajmi, ga.

$JX_{ga} = JX / E_m$ [so'm/ga] (5)

bu yerda, $JX_{ga}$ – 1 ga ekin maydoniga to'g'ri keladigan jami xarajat, so'm; JX – jami xarajatlar, so'm; $E_m$ – yong'oq ekilgan ekin maydoni hajmi, ga.

$YaD_{ga} = YaD / E_m$ [so'm/ga] (6)

bu yerda, $YaD_{ga}$ – 1 ga ekin maydoniga to'g'ri keladigan yalpi daromad, so'm;
YaD – yalpi daromad, so'm; Em – yong'oq ekilgan ekin maydoni hajmi, ga.

Endi qiymat ko'rsatkichlariga tegishli tavsiya etilayotgan ko'rsatkichlarni hisoblash usullarini ifodalaymiz:

***Yong'oq navining (mevasining) bahosi bo'yicha bozorgirlik indeksi (BBI);***

**BBI=BEN/SEB** (7)

*Bu yerda, BEN- baxolanayotgan yong'oq mevasining o'rtacha bozor bahosi;*
*SEB-standart yong'oq mevasi o'rtacha bahosi, (so'm/kg).*

***Natural ko'rsatkichlar:***

$H_{yo} = YaH / E_m$ [s/ga yoki t/ga] (8)

bu yerda, $H_{yo}$ – yong'oq hosildorligi, s/ga; YaH – yalpi hosil, s/ga; $E_m$ – yong'oq ekilgan ekin maydoni hajmi, ga.

$YaH = H_{yo} * E_m$ [s/ga yoki t/ga] (9)

bu yerda, YaH – yalpi hosil, s/ga.

$MS_{ga} = MX / E_m$ [kishi/soat/ga] (10)

bu yerda, $MS_{ga}$ – 1 ga maydon uchun mehnat sarfi (kishi-soat yoki kishi-kun/ga).

$MU_{ga} = MU / E_m$ [kg/ga yoki tonna/ga] (11)

bu yerda, $MU_{ga}$ – 1 ga ekin maydoniga to‘g‘ri keladigan mineral o‘g‘it miqdori, kg/ga; MU – jami sarflangan mineral o‘g‘it hajmi (kg, s, t).

$OU_{ga} = OU / E_m$ [kg/ga yoki tonna/ga] (12)

bu yerda, $OU_{ga}$ – 1 ga ekin maydoniga to‘g‘ri keladigan organik (mahalliy) o‘g‘it miqdori, kg/ga; OU – jami sarflangan organik (mahalliy) o‘g‘it hajmi (kg, s, t).

$KS_{ga} = JKS / E_m$ [dona/ga] (13)

bu yerda, $KS_{ga}$ - 1 ga maydondagi ko‘chatlar soni, dona; JKS – jami ko‘chatlar soni, dona.

Endi natural ko‘rsatkichlariga tegishli tavsiya etilayotgan ko‘rsatkichlarni hisoblash usullarini ifodalaymiz:

***yong‘oq navining (mevasining) yirikligi bo‘yicha bozorgirlik indeksi (YBI);***

***IBI=BEM / 15,0*** (14)

*Bu yerda, BEM- baxolanayotgan yong‘oq navi 1 dona mevasi o‘rtacha og‘irligi, gr/dona;*

*15,0-Chandler yong‘oq navi mevasi o‘rtacha og‘irligi, gr/dona*

***Nisbiy ko‘rsatkichlar:***

$R_x = SF / JX * 100$ [%] (15)

bu yerda, $R_x$ – xarajatlar rentabelligi darajasi, %; SF – sof foyda, so‘m; JX – jami xarajatlar (mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari), so‘m; SF - bu foyda bilan majburiy to‘lovlar (soliq tushumlari) o‘rtasidagi tafovut orqali aniqlanadi.

$R_s = SF / JST * 100$ [%] (16)

bu yerda, $R_s$ – sotish rentabelligi, %; JST – mahsulot sotishdan olingan jami sof tushum, so‘m.

$U_{at} = H_{at} / YaH * 100$ [%] (17)

bu yerda, $U_{at}$ - alohida yong‘oq hosilining yalpi hosildagi ulushi, % (yoki koeffitsient bo‘lishi ham mumkin); $H_{at}$ – alohida yong‘oq turi bo‘yicha hosil, t, kg, s.

$$I_{td}= I_{hga} / I_{rga} *100 \ [\%] \qquad (18)$$

bu yerda, $I_{td}$ - 1 ga ekin maydonida ishchi kuchi bilan ta’minlanganlik darajasi, %; $I_{hga}$ – 1 ga maydonda haqiqatda ishlayotgan ishchilar soni, bu ko‘rsatkich jami haqiqatda ishlayotgan ishchilar sonini jami ekin maydoniga nisbati sifatida topiladi; $I_{rga}$ - reja bo‘yicha 1 ga maydonda ishlashi lozim bo‘lgan ishchilar soni, bu ko‘rsatkich jami rejadagi ishchilar sonini jami ekin maydoniga nisbati orqali aniqlanadi.

$$U_{sx}= SX / I_{tt} *100 \ [\%] \qquad (19)$$

bu yerda, $U_{sx}$ - jami ishlab chiqarish to‘liq tannarxida sotish xarajatlari ulushi, %; $I_{tt}$ - ishlab chiqarish to‘liq tannarxi, so‘m; SX – sotish xarajatlari, so‘m.

Endi nisbiy ko‘rsatkichlarga tegishli tavsiya etilayotgan ko‘rsatkichlarni hisoblash usullarini ifodalaymiz:

***yong‘oq navining (mevasining) raqobatbardoshlik indeksi (BRI);***

$$BRI=BEN+IBI/2,0 \qquad (20)$$

Bu yerda alohida yong‘oq navlariga va mahalliy navsiz yong‘oqlarga, jahon bozori talabi asosida iqtisodiy baho beriladi.

Umuman olganda, intensiv bog‘larda yong‘oq yetishtirish va sotishning iqtisodiy samaradorligi yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlar orqali aniqlanishi va tahlil qilinishi yong‘oq yetishtirish holatiga birinchidan aniq baho berilishi, yong‘oq ishlab chiqarish hajmining ortishi va resurslardan samarali foydalanishga hamda biznes rejalarni tuzishda, loyihalarni samaradorligini oshirishda muhim uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

## 1.3. Yong‘oq ishlab chiqarishni rivojlantirish bo‘yicha xorijiy tajribalar

Dunyo miqyosida oziq-ovqat ta’minotini yaxshilash har bir mamlakatning iqtisodiy maqsadi va milliy xavfsizligining ajralmas bir bo‘lagi sanaladi. Oziq-ovqat bozorida mahsulot ishlab

chiqaruvchilarning real holati va iste'molchilarning talabi aks ettiriladi.

Oziq-ovqat xavfsizligining asosiy elementlaridan biri bu yong'oq va yong'oq mahsulotlari hisoblanadi. Yong'oqchilikka oid mutaxassislar oziq-ovqat xavfsizligida yong'oqchilikning hissasi yuqori ekanligini ta'kidlab, yong'oq ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish va samaradorligini oshirish masalalariga alohida e'tibor berishni ta'kidlashadi.

Shuningdek, bugungi kunda yong'oq iste'molining ortishi va uning ovqatlanish tarkibiga kiritilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa yong'oqda ko'p miqdorda oqsil va boshqa foydali elementlar borligi bilan ifodalanadi.

Yong'oqchilik sohasi oziq-ovqat ta'minoti, iste'mol va aholi daromadlarining muhim manbai hisoblanib, dunyo mamlakatlarining aholisini oziq-ovqat ta'minotini yaxshilash vositalaridan biri sifatida katta ahamiyatga egadir.

Yong'oq va quruq mevalar ishlab chiqaruvchilar xalqaro kengashi (International Nut and Dried Fruit Council)ning tahlillariga ko'ra, rivojla-nayotgan ko'plab davlatlarda ananaviy bog'dorchilik o'rnini ixtisoslashgan tarmoqlar egallamoqda. Xususan, intensiv yong'oqchilik rivojlanmoqda. 2017-2018 -yillar mavsumida jahonda 4,2 million tonnadan ortiq yong'oqlar yetishtirilib, bu o'tgan mavsumdagidan 11 foiz, oxirgi o'n yillikdagi o'rtacha ko'rsatkichdan esa 30 foiz ko'pdir.

AQSh mazkur yo'nalishda yetakchilik qilib kelmoqda. AQShda yong'oqchilik qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotidagi ulushi 41 foizga teng.

Binobarin, yong'oqchilik Amerika fermerlari faoliyatining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Hosilning asosiy qismi, ya'ni 96 foizi Kaliforniyada yetishtirilib, shtatda asosan "Chandler" yong'oq turi yetishtiriladi. AQShning ushbu shtatida yetishtirilgan hosilning 40 foizi ichki bozorda sotilsa, qolgan qismi Koreya Respublikasi, Yaponiya, Turkiya, Hindiston, Xitoy va Yevropa ittifoqi mamlakatlariga eksport qilinadi. Qandolatchilik fabrikalari, tez tayyor bo'ladigan

ovqatlar etkazib berish tarmoqlari asosiy xaridorlar sanaladi. Chunki “Chandler” yong‘og‘ining mazg‘i oq va juda mazali hisoblanadi.

Yong‘oq mo‘tadil iqlim sharoitida etishtiriladigan muhim yong‘oq mevasidir. Meva fors (hozirgi Eron) tomonidan qo‘shni davlatlar bilan ayirboshlash uchun keng qo‘llanilganligi sababli fors yong‘og‘i sifatida tanilgan (Verma, 2014). Yong‘oq Juglandaceae oilasiga tegishli o‘simlikdir. Butun dunyoda yong‘oqning 20 turi mavjud va Juglans to‘rt qismdan iborat: Rhysocaryon (qora yong‘oq), Cardiocaryon (Yapon, Manchurian, Xitoy yong‘oqlari), Trachycaryon (Butternut) va Juglans (J. Regia). Juglanlarning vatani Xitoy, Yaponiya, Hindiston, Eron, Meksika, Markaziy Amerika, G‘arbiy Hindiston, Kolumbiya va Venesueladan Argentina va AQShgacha bo‘lgan Janubiy Amerika mintaqasi hisoblanadi.

Juglans nigra L. AQShning eng muhim yong‘oq turi bo‘lib, u Sharqiy Amerika qora yong‘og‘i sifatida ham tanilgan, Rokki tog‘larining sharqida yog‘och uchun yetishtiriladi.

Yong‘oqlar yuqori ta’mga ega, ammo ularning qattiq qobig‘i va yomon qobig‘ining xususiyatlari tufayli tijorat maqsadlarida etishtirish uchun tejamkor emas. Juglans hindsii Jeps - Shimoliy Amerika qora yong‘og‘i, vatani AQShning Shimoliy Kaliforniyasida. Uning yong‘oqlari biroz kichikroq va silliq qobiq va yadrolari kamroq ta’mga ega. Juglans californica S. Wats, shuningdek, Janubiy Kaliforniya qora yong‘og‘i sifatida ham tanilgan, vatani janubiy Kaliforniyada joylashgan bo‘lib, ular ilgari ingliz yong‘og‘i uchun ildiz sifatida ishlatilgan. Juglans rupestris Engelm ning vatani Arizona, Nyu-Meksiko va Texasda.

Jahon tajribasi ko‘rsatishicha, yuqori sifatli mahsulotni faqat sanoat usulida yetishtirilgan tanlangan navlar ko‘chatlaridan olish mumkin. Bunda yig‘ilgan hosilni yaxshi jihozlangan korxonalarda saralash, quritish va zamonaviy shaklda qadoqlash kerak. Hozirda dunyo bo‘yicha yetishtirilgan yong‘oqning 12,7 % Eronning hissasiga to‘g‘ri keladi, bu esa Xitoy va AQShdan keyin 3-o‘rinda turadi[36].

[36] Sh.Xurramov O‘zbekistonning “yong‘oq” potensiali: uni qanday ro‘yobga chiqarsa bo‘ladi? https://www.uzanalytics.com/iqtisodi%D0%B5t/5056/ asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jahon mamlakatlari kesimida yong'oq iste'moli hajmi 2018-yilda sezilarli darajada ortganini kuzatish mumkin. Jumladan, Xitoyda 989 ming tonna, Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlarda 399 ming tonna, AQShda 171 ming tonna, Turkiyada 131 ming tonna yong'oq iste'mol qilingan. Shuningdek, Xindistonda 47 ming tonna va boshqa mamlakatlarda o'rtacha 224 ming tonna yong'oq iste'mol qilinib, bu kelajakda mazkur sohaga e'tiborni yanada ortishi mumkinligini bildiradi.

Yong'oq eksporti bo'yicha AQSh boshqa davlatlarga nisbatan yuqori o'rinda turadi. AQShda 409 ming tonna, Chilida 95 ming tonna, uchinchi o'rinda turgan Ukrainada 81 ming tonna (AQShdan 5 barobar kam), Xitoyda 40 ming tonna (AQShdan 10 barobar kam) yong'oq eksport qilingan.

Ukraina dunyoda yong'oq yetishtirish bo'yicha to'rtinchi, eksport qilish bo'yicha esa uchinchi o'rinni egallaydi. Ushbu mamlakatda yong'oqzorlar maydoni yil sayin ortib bormoqda. Ukraina hukumati har bir yangi ekilgan ko'chat uchun 330 grivna (qariyb 12 dollar) kompensatsiya berish orqali fermerlarga yordam ko'rsatmoqda.

Ukraina agrar konfederatsiyasi tahlilchisi Nelya Onishenkoning ma'lum qilishicha, 2018-yilda yong'oqzorlar maydoni 3 foiz o'sib, 18,9 ming gektarga yetdi. Ayni damda hosilning atigi 14 foizi sanoat miqyosida yetishtiriladi. Ukrainada yetishtirilgan yong'oqning qariyb 70 foizi eksport qilinadi.

Dunyo miqyosida yong'oq va yong'oq mahsulotlarini eng ko'p import qiladiganlar Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar (291 ming tonna) hisoblanadi.

Shuningdek, Turkiya (77 ming tonna), Osiyodan Yaponiya (47 ming tonna), Janubiy Koreya (28 ming tonna), BAA (27 ming tonna), Kanada (26 ming tonna), Xitoy (30 ming tonna) yong'oq va yong'oq mahsulotlarini import qilishadi.

Turkiya prezidentining 2020-yil 31-dekabrda qabul qilingan farmoniga ko'ra, Turkiya qobig'i tozalanmagan va qobig'i tozalangan yong'oqning import tarifini barcha davlatlar uchun 15 foizga oshirdi (USDA, 2021). Turkiya bilan erkin savdo shartnomasiga ega bo'lgan davlatlar bundan mustasno. Avvalgi

tartibga ko‘ra, 1 tonna yong‘oq importi uchun 320 AQSh dollari import tarifi o‘zgartirildi.

Nazorat narxi - bu Turkiya hukumati soliq maqsadlarida foydalanadigan minimal narx. Misol uchun, agar turkiyalik treyder 2500 AQSh dollariga 1 tonna yong‘oqni sotib olsa, bu nazorat narxidan past, tarif 3500 AQSh dollari yordamida hisoblab chiqiladi. Biroq, agar haqiqiy narx 3500 AQSh dollaridan ortiq bo‘lsa, hukumat soliqlarni hisoblashda haqiqiy hisob-faktura narxidan foydalanadi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, barcha kelib chiqishi uchun 15 foizlik tarif stavkasidan tashqari, AQShning turk po‘latiga bojlarini oshirishga qarshi chora sifatida AQShda ishlab chiqarilgan daraxt yong‘oqlariga 10 foizlik qo‘shimcha soliq ham mavjud. So‘nggi o‘zgarishlar va javob tariflarining davom etishi natijasida AQShda ishlab chiqarilgan yong‘oq uchun bojxona to‘lovi stavkasi 2020-yil avgustgacha bo‘lgani kabi 25 foizni (15 + 10) tashkil etdi.

2020-yil yakuniga ko‘ra, dunyo bo‘yicha yong‘oqning umumiy ishlab chiqarilishi 3 million tonna chegaradan oshib, 3 323 964 tonnani tashkil etdi[37], bu avvalgi mavsumga nisbatan 11% ga ko‘p va oldingi o‘n yillikdagi eng yuqori ko‘rsatkichdir (1.3-rasm). Ushbu miqdor 1 021 391 gektar maydonda yetishtirilgan.




| | 2010 й. | 2011 й. | 2012 й. | 2013 й. | 2014 й. | 2015 й. | 2016 й. | 2017 й. | 2018 й. | 2019 й. | 2020 й. |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Ekin maydoni, gektar | 1010131 | 1121858 | 617910 | 571098 | 625726 | 656022 | 912673 | 868178 | 862188 | 938880 | 1021391 |
| Yalpi hosil, tonna | 2778923 | 3208766 | 2366556 | 2369019 | 2718851 | 2947400 | 3009468 | 2963969 | 2863851 | 2985845 | 3323964 |

Manba: FAO, 2022 ma’lumotlariga asoslanib muallif tomonidan tuzildi.

**1.3-rasm. Dunyoda yetishtirilgan yong‘oq ko‘rsatkichlari.**

[37] https://www.fao.org/faostat/en/#data/QCL/visualize (FAO, 2022)

Dunyo bo‘yicha 2010-yilda esa 2 778 923 tonna hosil 1 010 131 gektar maydonda yetishtirilgan. Yetishtirilgan yalpi xosili 2020-yilda 2010-yilga nisbatan 20% ga yaqin, ekin maydonlari bo‘yicha esa juda kichik o‘zgarish, ya’ni 1.11% ga o‘sganini ko‘rishimiz mumkin.

Xitoy, AQSh, Eron, Turkiya va Meksika dunyodagi eng ko‘p yong‘oq yetishtiruvchi mamlakatlar bo‘lib, ular hissasiga dunyoda yetishtirilgan jami yong‘oqning 79% to‘g‘ri keladi. Ushbu mamlakatlarning jami yong‘oq eksporti 676,3 mln AQSh dollariga teng. FAO ma’lumotiga ko‘ra, 2020-yilda 1 gektar maydonidan olingan hosil miqdori Ruminiyada eng yuqori 35,2 tonnani tashkil qilgan va dunyo yong‘oq yalpi hosilining 1.5% ushbu davlatda yetishtirilgan (1.3-jadval).

**1.3-jadval.**

**2020-yilda davlatlar kesimida yetishtirilgan yong‘oq hosildorligi va uning eksporti ma’lumotlari**

| Davlat | Ekilgan maydoni | Xosildorlik, kg/ga | Yalpi hosil, tonna | Yetishtirish ulushi | Eksport |
|---|---|---|---|---|---|
| **Xitoy** | 390 224 | 4 065 | 1 586 367 | 43,3% | $69 916 000 |
| **AQSh** | 141 640 | 4 330 | 613 260 | 16,7% | $422 820 000 |
| **Eron** | 146 565 | 2 794 | 409 562 | 11,2% | $128 000 |
| **Turkiya** | 111 775 | 1 924 | 215 000 | 5,9% | $32 000 |
| **Meksika** | 96 909 | 1 646 | 159 535 | 4,4% | $183 402 000 |
| **Ukraina** | 13 500 | 9 421 | 127 190 | 3,5% | $8 852 000 |
| **Chili** | 36 819 | 2 277 | 83 835 | 2,3% | $217 483 000 |
| **Ruminiya** | 1 591 | 35 231 | 56 053 | 1,5% | $330 000 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **Fransiya** | 22 131 | 1 688 | 37 347 | 1,0% | $92 797 000 |
| **O'zbekiston** | 5 011 | 7 081 | 35 484 | 1,0% | $433 000 |
| **Hindiston** | 31 552 | 1 030 | 32 500 | 0,9% | $310 000 |
| **Gresiya** | 15 270 | 2 086 | 31 860 | 0,9% | $663 000 |
| **Misr** | 4 634 | 5 197 | 24 081 | 0,7% | |
| **Germaniya** | 5 750 | 3 204 | 18 423 | 0,5% | $3 453 000 |
| **Argentina** | 14 912 | 1 235 | 18 412 | 0,5% | $13 381 000 |
| **Moldova Respublikasi** | 18 913 | 965 | 18 247 | 0,5% | $1 681 000 |
| **Belorus** | 4 988 | 3 408 | 16 997 | 0,5% | $313 000 |
| **Ispaniya** | 10 997 | 1 380 | 15 176 | 0,4% | $7 007 000 |
| **Pokiston** | 1 705 | 8 574 | 14 618 | 0,4% | $1 000 |
| **Marokash** | 7 702 | 1 619 | 12 467 | 0,3% | $0 |
| **Italiya** | 3 962 | 3 072 | 12 173 | 0,3% | $3 303 000 |
| **Ozarbayjon** | 3 386 | 3 469 | 11 745 | 0,3% | |
| **Afg'oniston** | 2 201 | 4 909 | 10 804 | 0,3% | $707 000 |
| **Serbiya** | 2 798 | 3 492 | 9 772 | 0,3% | |
| **Polsha** | 2 606 | 3 253 | 8 477 | 0,2% | $552 000 |
| **Nepal** | 1 985 | 4 138 | 8 213 | 0,2% | $0 |
| **Braziliya** | 3 874 | 1 903 | 7 373 | 0,2% | $89 000 |
| **Qirg'iziston** | 1 420 | 4 785 | 6 795 | 0,2% | $405 000 |
| **Bosniya va Gersegovina** | 3 999 | 1 576 | 6 301 | 0,2% | $61 000 |
| **Avstriya** | | | 5 938 | 0,2% | $900 000 |
| **Vengriya** | 5 408 | 1 067 | 5 770 | 0,2% | $3 540 000 |
| **Gruziya** | 3 771 | 1 512 | 5 700 | 0,2% | $182 000 |
| **Bolgariya** | 6 181 | 828 | 5 116 | 0,1% | $1 306 000 |
| **Shimoliy Makedoniya** | 7 408 | 651 | 4 826 | 0,1% | $3 000 |
| **Portugaliya** | 3 624 | 1 263 | 4 576 | 0,1% | $1 239 000 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **Xorvatiya** | 6 697 | 549 | 3 675 | 0,1% | $4 000 |
| **Armaniston** | 1 890 | 1 745 | 3 298 | 0,1% | $12 000 |
| **Qozog'iston** | 996 | 3 101 | 3 089 | 0,1% | $280 000 |
| **Avstraliya** | 7 760 | 345 | 2 681 | 0,1% | $14 298 000 |
| **Shveysariya** | 1 724 | 1 470 | 2 535 | 0,1% | $3 000 |
| **Livan** | 1 275 | 1 334 | 1 701 | 0,0% | $6 000 |
| **Iroq** | 1 136 | 1 379 | 1 567 | 0,0% | |
| **Koreya Respublikasi** | 569 | 2 023 | 1 151 | 0,0% | |
| **Sloveniya** | 378 | 1 966 | 743 | 0,0% | $2 000 |
| **Chernogoriya** | 409 | 1 650 | 675 | 0,0% | |
| **Belgiya** | 166 | 2 193 | 364 | 0,0% | $12 091 000 |
| **Peru** | 75 | 4 160 | 312 | 0,0% | $1 000 |
| **Chexiya** | 166 | 928 | 154 | 0,0% | $7 000 |
| **Falastin** | 30 | 4 933 | 148 | 0,0% | |
| **Kipr** | 182 | 676 | 123 | 0,0% | $22 000 |
| **Luksemburg** | 12 | 2 500 | 30 | 0,0% | $23 000 |
| **Slovakiya** | 360 | 78 | 28 | 0,0% | $370 000 |
| **Jami** | **1 159 036** | | **3 662 267** | **100%** | |

Manba: FAO, 2022 ma'lumotlariga asoslanib mualliflar tomonidan tuzildi.

2010-2020-yillar oralig'ida yetishtirilgan yalpi yong'oq hosilining turli qit'alar kesimiga qaraydigan bo'lsak, Osiyo mintaqasi 59.6% ulush bilan yetakchilik qilgan (1.4-rasm).




Manba: FAO, 2022 ma'lumotlariga asoslanib mualliflar tomonidan tuzildi.

**1.4-rasm. 2010-2020-yillarda yetishtirilgan yong'oqning qit'alar kesimida o'rtacha taqsimoti.**

Eng kam ko'rsatkich esa, Okeaniya qit'asi davlatlari xissasiga to'g'ri kelgan va ular tomonidan 0.1% mahsulot yetishtirilgan.

2010-2020-yillar bo'yicha dunyo bo'yicha yetishtirilgan o'rtacha yillik yalpi hosili bo'yicha davlatlar kesimida Xitoy yetakchi hisoblanadi (1.4-jadval).

**1.4-jadval.**

**2010-2020-yillar bo'yicha dunyo bo'yicha yetishtirilgan o'rtacha yillik yalpi hosili**

| Davlatlar | Yalpi o'rtacha tonna | Davlatlar | Yalpi o'rta-cha, tonna | Davlat-lar | Yalpi o'rta-cha, ton-na | Davlat-lar | Yalpi o'r-ta-cha, tonna |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **Xitoy** | 1031805 | Argentina | 15 399 | Vengriya | 5 508 | Chernogoriya | 701 |
| **AQSh** | 545 536 | Ispaniya | 15 357 | Makedoniya | 4 984 | Belgiya | 387 |
| **Eron** | 327 561 | Serbiya | 14 727 | Portugaliya | 4 456 | Peru | 322 |
| **kurka** | 207 204 | Moldova | 14 042 | Bosniya va Gers. | 4 123 | Butan | 305 |
| **Meksika** | 129 427 | Pokiston | 12 570 | Armaniston | 4 004 | Falastin | 139 |
| **Ukraina** | 110 321 | Italiya | 12 341 | Bolgariya | 3 653 | Kipr | 137 |
| **Chili** | 85 479 | Suriya | 11 802 | Avstraliya | 3 646 | Slovakiya | 118 |
| **O'zbekiston** | 40 757 | Marokash | 11 659 | Avstriya | 3 405 | Chexiya | 103 |
| **Ruminiya** | 38 952 | Afg'oniston | 10 821 | Livan | 2 915 | Luksemburg | 26 |
| **Hindiston** | 37 286 | Ozarbayjon | 10 081 | Shveysariya | 2 456 | Iordaniya | 7 |
| **Fransiya** | 36 296 | Nepal | 7 953 | Qozog'iston | 2 037 | Estoniya | 0 |
| **Gresiya** | 27 961 | Polsha | 7 707 | Xorvatiya | 1 850 | Finlyandiya | 0 |
| **Misr** | 23 589 | Qirg'iziston | 6 050 | Iroq | 1 571 | Irlandiya | 0 |
| **Germaniya** | 17 738 | Gruziya | 5 809 | Jan. Koreya | 1 163 | Latviya | 0 |
| **Belorusiya** | 15 801 | Braziliya | 5 691 | Sloveniya | 808 | Malta | 0 |

Manba: FAO, 2022 ma'lumotlariga asoslanib mualliflar tomonidan tuzildi.

Xitoy dunyodagi eng yirik ishlab chiqaruvchi mamlakat bo‘lib, 2010-2020-yillar oralig‘ida o‘rtacha yalpi hosil 1 031 805 tonnani tashkil qilgan va dunyo o‘rtacha yalpi hosilining 36 foiziga teng bo‘lgan (1.5-rasm).




Manba: FAO, 2022 ma’lumotlariga asoslanib mualliflar tomonidan tuzildi.

**1.5-rasm. 2010-2020-yillarda yetishtirilgan o‘rtacha yillik yalpi hosilda davlatlar ulushi**

Keyingi o‘rinda, 19% ulush bilan Amerika Qo‘shma Shtatlarida 545 536 tonna o‘rtacha yalpi hosil yetishtirishga erishilgan. Dunyo yong‘oq yetishtiruvchilari eng katta 10 taligida O‘zbekiston Chili davlatidan keyin 1.42% ulush hamda o‘rtacha yillik 40 757 tonna hosil bilan 8-o‘rinni egallagan.

2020-yilda jami qobiqli yong‘oq eksporti 411 625 tonnani yoki 1 136 171 AQSh dollarini tashkil qildi[38]. Bu 2010-yilga nisbatan miqdorda 92% va qiymatda 69.4% o‘sgan (1.6-rasm).

[38] The Foundation of the International Nut and Dried Fruit Council, 2021




Manba: FAO, 2022 ma'lumotlariga asoslanib mualliflar tomonidan tuzildi.

**1.6-rasm. 2010-2020-yillarda dunyo yong‘oq eksporti.**

2019 yilda butun dunyo bo‘ylab 430277 tonna qobiqli yong‘oq sotilgan bo‘lib, ularning 36 foizi AQShdan, 17 foizi Xitoydan va 10 foizi Chilidan jo‘natilgan. Qo‘shma Shtatlar va Chilining asosiy importchilari Turkiya, Birlashgan Arab Amirliklari va Italiya davlatlaridir (1.7-rasm).

Qo‘shma Shtatlar yetakchi eksportchi bo‘lib, uning ulushi jahon yong‘oq eksportining 42% tashkil qilgan. Ushbu davlatning asosiy asosiy eksport bozorlari Yevropa Ittifoqi + Buyuk Britaniya (45%), asosan Germaniya, undan keyin Yaponiya (14%), Janubiy Koreya (10%) va Yaqin Sharq (12%). Yevropa Ittifoqi, shuningdek, Ukraina va Chili eksporti uchun asosiy bozorlar hisoblanadi.




Manba: The Foundation of the International Nut and Dried Fruit Council, 2021

**1.7-rasm. 2019 yilda qobiqli yong‘ok eksporti hajmi.**

Germaniya, Yaponiya va Gollandiya yong‘oqni eng ko‘p import qilgan davlatlar hisoblanadi. Ushbu davlatlarning 2019 yildagi import xajmi mos ravishda 41451,0 tonna, 19009,0 tonna va 18909,0 tonnani tashkil qilgan (1.5-jadval).

**1.5-jadval.**

**Dunyo mamlakatlarining qobiqli yong'oq importi, tonna**

| Davlat | 2010 | 2011 | 2012 | 2013 | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Germaniya | 16461.0 | 18260.0 | 15777.0 | 16339.0 | 19959.0 | 24815.0 | 25978.0 | 32667.0 | 35297.0 | 41451.0 |
| Yaponiya | 13224.0 | 13006.0 | 12409.0 | 11870.0 | 15046.0 | 14918.0 | 18392.0 | 21172.0 | 17038.0 | 19009.0 |
| Gollandiya | 3977.0 | 5504.0 | 4584.0 | 6026.0 | 8167.0 | 14026.0 | 12691.0 | 17579.0 | 14535.0 | 18909.0 |
| Ispaniya | 9660.0 | 9677.0 | 9087.0 | 9735.0 | 9872.0 | 12204.0 | 14709.0 | 14745.0 | 15983.0 | 17509.0 |
| Turkiya | 3517.0 | 4994.0 | 7340.0 | 2251.0 | 3653.0 | 7827.0 | 3892.0 | 9195.0 | 9093.0 | 16189.0 |
| Fransiya | 7073.0 | 7372.0 | 3914.0 | 6354.0 | 4621.0 | 10179.0 | 9768.0 | 13181.0 | 11215.0 | 12941.0 |
| Jan.Korea | 9262.0 | 9815.0 | 12433.0 | 11025.0 | 13141.0 | 12631.0 | 16130.0 | 12685.0 | 12459.0 | 12760.0 |
| Kanada | 6748.0 | 7183.0 | 8398.0 | 8704.0 | 9221.0 | 9386.0 | 10862.0 | 10287.0 | 11160.0 | 11596.0 |
| Italiya | 3944.0 | 4037.0 | 3766.0 | 4241.0 | 3801.0 | 6116.0 | 7630.0 | 7633.0 | 7554.0 | 9711.0 |
| Angliya | 5456.0 | 6681.0 | 5600.0 | 5731.0 | 7162.0 | 8617.0 | 9559.0 | 10552.0 | 8892.0 | 9508.0 |
| Isroil | 3510.0 | 3893.0 | 3341.0 | 3667.0 | 3135.0 | 4810.0 | 5170.0 | 5139.0 | 5614.0 | 6180.0 |
| B.A. Amirlik | 2315.0 | 2127.0 | 1449.0 | 1907.0 | 2683.0 | 3709.0 | 4347.0 | 4245.0 | 3335.0 | 5583.0 |
| Avstriya | 2288.0 | 2969.0 | 2128.0 | 2493.0 | 2349.0 | 3654.0 | 3621.0 | 4791.0 | 5033.0 | 5122.0 |
| Avstraliya | 3857.0 | 4253.0 | 6159.0 | 4396.0 | 4923.0 | 5117.0 | 4660.0 | 5527.0 | 4086.0 | 4197.0 |
| Rossiya | 13217.0 | 10629.0 | 9137.0 | 3668.0 | 1517.0 | 651.0 | 755.0 | 2152.0 | 2017.0 | 4167.0 |
| Braziliya | 2801.0 | 2653.0 | 3351.0 | 2864.0 | 3134.0 | 2659.0 | 3187.0 | 3287.0 | 3583.0 | 3855.0 |
| Gresiya | 2402.0 | 2443.0 | 1232.0 | 1667.0 | 1546.0 | 2670.0 | 2681.0 | 3198.0 | 3508.0 | 3774.0 |
| Ozorbayjon | 1249.0 | 1715.0 | 2485.0 | 1462.0 | 1423.0 | 1611.0 | 1872.0 | 3182.0 | 2580.0 | 3467.0 |
| Moldova | 273.0 | 499.0 | 113.0 | 209.0 | 850.0 | 1634.0 | 1446.0 | 755.0 | 329.0 | 3336.0 |
| Arabiston | 420.0 | 741.0 | 783.0 | 945.0 | 1129.0 | 1299.0 | 2135.0 | 2137.0 | 2196.0 | 3063.0 |
| Boshqa davl. | 48526.0 | 49603.0 | 46028.0 | 62697.0 | 77830.0 | 83969.0 | 61871.0 | 65497.0 | 55306.0 | 70094.0 |
| **Jami dunyo** | **160180.0** | **168054.0** | **159513.0** | **168251.0** | **195162.0** | **232502.0** | **221356.0** | **249604.0** | **230812.0** | **282419.0** |

Manba: The Foundation of the International Nut and Dried Fruit Council, 2021

Ko‘rish mumkinki, dunyo davlatlari tomonidan 2010-yilda jami 160180,0 tonna, 2019 yil yakuniga kelib esa 282419,0 tonna mahsulot import qilingan.

Dunyo davlatlari ichida kishi boshiga to‘g‘ri kelgan yong‘oq iste’moli miqdori bo‘yicha 2010-yil yakuniga ko‘ra, Vengriyada 0.695 kg eng ko‘p ko‘rsatkich qayd etilgan bo‘lsa, 2019 yil yakuniga kelib esa, Gollandiya 0.817 kg miqdor bilan eng yuqori miqdor to‘g‘ri kelgan (1.6-jadval).

**1.6-jadval**

**Dunyo davlatlarida kishi boshiga to‘g‘ri kelgan yong‘oq iste’moli, kg**

| Davlatlar | 2015 | | 2017 | | 2019 | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Jami iste’mol, tonna | Kishi boshiga iste’mol, kg | Jami iste’mol, tonna | Kishi boshiga iste’mol, kg | Jami iste’mol, tonna | Kishi boshiga iste’mol, kg |
| Xitoy | 249579,0 | 0.180 | 362383,0 | 0.252 | 409608,0 | 0.279 |
| AQSh | 124305,0 | 0.386 | 132236,0 | 0.408 | 142739,0 | 0.434 |
| Germaniya | 17922,0 | 0.222 | 21691,0 | 0.264 | 27882,0 | 0.334 |
| Fransiya | 24998,0 | 0.388 | 27064,0 | 0.417 | 25965,0 | 0.399 |
| Turkiya | 15450,0 | 0.196 | 19016,0 | 0.234 | 25390,0 | 0.304 |
| Yaponiya | 14906,0 | 0.118 | 21172,0 | 0.166 | 19009,0 | 0.150 |
| Ispaniya | 11173,0 | 0.242 | 13649,0 | 0.294 | 16126,0 | 0.345 |
| Italiya | 12748,0 | 0.213 | 14947,0 | 0.252 | 16122,0 | 0.266 |
| Gollandiya | 9894,0 | 0.585 | 14066,0 | 0.827 | 13963,0 | 0.817 |
| Hindiston | 17934,0 | 0.014 | 9135,0 | 0.007 | 13576,0 | 0.010 |
| Eron | 19956,0 | 0.252 | 13216,0 | 0.163 | 12815,0 | 0.155 |
| J.Korea | 12601,0 | 0.251 | 12651,0 | 0.249 | 12729,0 | 0.248 |
| Ukraina | 19031,0 | 0.425 | 17845,0 | 0.404 | 12468,0 | 0.283 |
| Kanada | 6402,0 | 0.178 | 9260,0 | 0.253 | 11567,0 | 0.309 |
| Ruminiya | 6997,0 | 0.359 | 7946,0 | 0.404 | 10629,0 | 0.549 |
| Avstraliya | 9517,0 | 0.397 | 10361,0 | 0.424 | 9332,0 | 0.370 |
| Angliya | 8225,0 | 0.127 | 9953,0 | 0.150 | 9205,0 | 0.136 |
| Isroil | 4810,0 | 0.596 | 5139,0 | 0.617 | 6159,0 | 0.723 |
| Vengriya | 6852,0 | 0.695 | 3524,0 | 0.363 | 5059,0 | 0.522 |
| Avstriya | 2342,0 | 0.274 | 3070,0 | 0.353 | 3831,0 | 0.428 |
| **Dunyo jami** | **676856,0** | **0.103** | **834198,0** | **0.125** | **914383,0** | **0.132** |

Manba: The Foundation of the International Nut and Dried Fruit Council, 2021.

Dunyo aholisi boshiga to‘g‘ri kelgan yillik yong‘oq miqdori 2015 yildagi 0.103 kgdan 2019 yil yakuniga kelib 0.132 kg ga yetgan. Ushbu davr oralig‘ida Gollandiya (+0.232 kg) va Avstriya (+0.154 kg) davlatlarida keskin o‘sish kuzatilgan bo‘lsa, keskin kamayish tendensiyalari Ukraina (-0.142 kg) va Vengriya (-0.173 kg) davlatlarida kuzatilgan.

Yong‘oq yetishtirishda mavjud muammolarni aniqlash va soha rivojiga ta’sir qiluvchi omillarning o‘zaro ta’sir darajalarini baholashda turli metod, model va yondashuvlardan tashqari xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalarini o‘rganish yaxshi natija beradi. Yong‘oqchilik sohasi rivojlangan mamlakatlar misolida yong‘oq yetishtirish texnologiyalari, sohaga berilayotgan e’tibor va iqtisodiy rag‘batlantirish yo‘nalishlari va xizmat ko‘rsatish infratuzilmalarini tadqiq etish va mamlakatimiz tabiiy-iqlim sharoitiga mos kelgan yo‘nalishlarini ajratib olish maqsadga muvofiqdir. Yong‘oq yetishtirish va sotish mexanizmlari bo‘yicha xorijiy tajribalarning muhim jihatlari va mamlakatimizda foydalanish mumkin bo‘lgan ahamiyatli yo‘nalishlari 1.7-jadvalda keltirilgan.

Yong‘oq ishlab chiqarish va sotishning samarali mexanizmlari bo‘yicha xorijiy tajribalarni tahlil etib, aholi daromadlarini oshirish yo‘nalishlari bo‘yicha quyidagi muhim yo‘nalishlar:

• yong‘oq yetishtirishda yong‘oq yetishtirish xarajatlarining bir qismini qoplash maqsadida subsidiyalarni (kompensatsiyalar) joriy etish (Ukraina, YeI mamlakatlari tajribalari);

• yong‘oqchilik sohasidagi muammolar yechimiga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlarni kuchaytirish va amaliy loyihalarni bajarish, xorijiy mutaxassislarni keng jalb etgan holda, seminar-treninglar, “vorkshoplar” va ilmiy-amaliy konferensiyalarni tashkil etish (AQSh, Xitoy, Rossiya va Ukraina tajribalari);

• mutaxassislar tayyorlash va malakasini oshirish uchun xorijiy universitetlarga o‘qishga yuborishni tashkil qilish (Xorvatiya va Yevropa Ittifoqiga a’zo mamlakatlar tajribalari);

• sohada konsalьting axborot-maslahat berish tizimi va onlayn

platformani yaratish (Xorvatiya va Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar tajribalari);

- yong'oqchilik sohasida aksariyat mayda ishlab chiqaruvchilarning faoliyat olib borishi ko'p imkoniyatlarning chegaralanishiga olib keladi va bu borada

**1.7–jadval**

**Yong'oq yetishtirish va sotishning samarali mexanizmlari bo'yicha xorijiy tajribalarning muhim jihatlari**[39]

| Yong'oqchilikda foydalanish uchun muhim e'tiborli jihatlar | Mamlakatimiz yong'oqchilik sohasida tatbiq etish yo'nalishlari |
|---|---|
| 1). Yong'oqchilikni rivojlantirish yo'nalishlari misolida:<br>• yong'oqning serhosil turlarini ko'paytirishga e'tibor qaratilganligi va intensiv yong'oqchilikning yo'lga qo'yilganligi (AQSh, Xitoy va Eron tajribalari). | • hosildorligi yuqori bo'lgan yong'oq turlarini ko'paytirish (masalan: "Chandler" turi) va ularni intensiv tarzda yetishtirish an'anaviy texnologiyaga qaraganda 80-100 barobargacha foyda keltirishi mumkin. |
| 2). Yong'oq yetishtirishni rag'batlantirish yo'nalishida:<br>• har bir ekilgan yong'oq ko'chati uchun kompensatsiya berish va ma'lum bir ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash bo'yicha subsidiyalarning joriy qilinganligi (Ukraina, YeI mamlakatlari tajribalari). | Yong'oq yetishtirishni ko'paytirish, yong'oqzorlarni barpo etish va yong'oq mahsulotlarini eksportini rivojlanti-rish maqsadida iqtisodiy qo'llab-quvvatlash (subsidiyalar, sug'urta-lash, soliq va boj imtiyozlari berish va h.k.) maqsadga muvofiq hisoblanadi. |
| 3). Mamlakatda yong'oq yetishtirishdan asosiy maqsad:<br>• yong'oq yetishtirishni rivojlantirish xorijiy valyutani jalb qilishning muqobil manbai sifatida qaraladi (Eron tajribasi). | Qishloq xo'jaligini barqaror rivoj-lantirishda valyuta zahiralarini yanada ko'paytirish maqsadida yong'oqchilik sohasini qo'llab-quvvatlash va yong'oq eksportini kuchaytirish yuqori samara berishi mumkin. |

[39] Тадқиқотлар асосида муаллиф томонидан ишлаб chиқилган.

| | |
|---|---|
| 4). Sohadagi tashkiliy – iqtisodiy munosabatlar:<br>• Yong‘oq yetishtirish va sotish bilan bog‘liq kooperativlarni tashkil etilganligi (Fransiya, Italiya tajribalari). | Yong‘oqchilik sohasida aksariyat mayda ishlab chiqaruvchilarning faoliyat olib borishi ko‘p imkoniyatlarning chegara-lanishiga olib keladi va bu borada sotish kooperativlarini tashkil etish yaxshi samara berishi mumkin. |
| 5). Yong‘oqchilikda xizmat ko‘rsatish sohasida:<br>• qishloq xo‘jaligida marketing, texnik va texnologik parametrlar bo‘yicha platforma yaratilganligi (Xorvatiya va YeI mamlakatlari tajribalari);<br>• sohaga oid boy ilmiy-tadqiqot bazasining mavjudligi va konsalьting xizmat ko‘rsatish tizimini rivojlanganligi (AQSh, Xitoy, Rossiya va Ukraina tajribalari). | • sohada konsalьting axborot-maslahat berish tizimini yanada rivojlantirish;<br>• mutaxassislar tayyorlash va malakasini oshirish uchun xorijiy universitetlarga o‘qishga yuborishni tashkil qilish lozim;<br>• ilmiy-tadqiqotlarni kuchaytirish va amaliy loyihalarni bajarish, xorijiy olimlar bilan birgalikda seminar-treninglar, “vorkshoplar” va ilmiy-amaliy konferensiyalar tashkil etish maqsadga muvofiqdir. |

sotish kooperativlarini tashkil etish (Fransiya, Italiya tajribalari);

• tashqi bozorda qo‘shilgan qiymatni oshirish, qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishda valyuta zaxiralarini yanada ko‘paytirish maqsadida yong‘oqchilik sohasini qo‘llab-quvvatlash va yong‘oq eksportini kuchaytirish (Eron tajribasi);

• qishloq xo‘jaligida tabiiy ustunlik muhim ahamiyatga ega. Yong‘oq kabi ekinlarni yetishtirish uchun qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga ishchilarni jalb qilish (Yevropa Ittifoqiga a’zo mamlakatlar tajribalari);

• hosildorligi yuqori bo‘lgan yong‘oq turlarini ko‘paytirish (“Chandler” turi) va ularni intensiv tarzda yetishtirish an’anaviy texnologiyaga qaraganda 80-100 barobargacha foyda keltiradi (AQSh, Xitoy va Eron tajribalari).

Umuman olganda, yong‘oq yetishtirish va sotishning iqtisodiy asoslarini takomillashtirish, yong‘oqning serhosil turlarini mamlakatimiz tabiiy-iqlim sharoitlarga mos holda tanlab olish va ko‘paytirish, yong‘oq va yong‘oq mahsulotlarini sotish tizimida zamonaviy marketing usullarini joriy etish va qayta ishlash tizimini rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishni ta’minlash, sohada innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot ishlarining samaradorligini oshirish, kadrlar ta’minoti va salohiyati masalalari bo‘yicha xorijiy tajribalar va ularning mamlakatimiz uchun muhim yo‘nalishlarini o‘rganish hamda tahlil qilish yong‘oqchilikni rivojiga katta ijobiy natija beradi.

## Birinchi bob bo‘yicha xulosalar

Tabiiy yong‘oqzorlarni saqlab qolish, yangi navlar hisobiga boyitish, bo‘sh yotgan adir va tog‘larda yong‘oqzorlar barpo qilish, hosildorligi yuqori, yangi navlar yaratish, eski yong‘oqzorlarni boyitish hisobiga xalqimizni yong‘oq mahsulotlariga bo‘lgan talablarini qondirish, barcha yong‘oqzorlardan ilmiy asoslangan rejalar asosida foydalanish maqsadga muvofiq.

Yong‘oqchilikda daromadning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish orqali ishlab chiqarish xarajatlari kamayishiga erishiladi.

Yong‘oqchilik sohasining samaradorlik ko‘rsatkichlarini makro, mezo va mikrodarajada tadqiq etish yong‘oqchilik sohasini atroflicha tahlil etishga xizmat qiladi. Sohadagi tarkibiy o‘zgarishlar tendensiyalari bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishda asos bo‘ladi.

1 kg yong‘oq mevasini intensiv tarzda yetishtirish uchun zarur bo‘lgan tomchilatib sug‘orish tizimi jihozlari qiymati, 100 $m^2$ maydonga to‘g‘ri keladigan o‘tkazilgan ko‘chatlar soni, 100 $m^2$ ekin maydonidan olingan yong‘oq miqdori, 1 kg yong‘oq yetishtirish uchun talab etiladigan suv hajmi, 100 $m^2$ maydonga to‘g‘ri keladigan elektr-energiya sarfi, 100 $m^2$ ekin maydonida yetishtirilgan yong‘oqning tovarlilik darajasi, 100 $m^2$ ekin maydonida yong‘oq yetishtirishning xarajatlar rentabelligi kabi samaradorlik ko‘rsatkichlari intensiv yong‘oqchilik xo‘jaliklarida

yong‘oq yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini hisoblash va tahlil qilish imkonini beradi.

Yong‘oqchilikni rivojlantirish bo‘yicha xorijiy tajribalarning quyidagi jihatlarini respublikada joriy etish maqsadga muvofiq. Jumladan,

yong‘oq yetishtirishda yong‘oq yetishtirish xarajatlarining bir qismini qoplash maqsadida subsidiyalarni joriy etish; ilmiy-tadqiqotlarni kuchaytirish va amaliy va innovatsion loyihalarni bajarish, xorijiy mutaxassislarni keng jalb etgan holda seminar-treninglar tashkil etish; malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash va tajribasini oshirish uchun xorijiy universitetlar va markazlarga stajirovkalarga yuborishni tashkil qilish;

sohada konsalьting xizmatini tashkil etish va onlayn platforma hamda mobil ilovani yaratish; hosildorligi yuqori yong‘oq turlarini ko‘paytirish (masalan: “Chandler” turi) va intensiv yong‘oqchilikni rivojlantirish. Ushbu tadbirlar ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilarga katta foyda keltiradi hamda mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun muhim strategik ahamiyat kasb etadi.

# II.BOB. OZIQ-OVQAT TARMOG‘IDA YoNG‘OQ YeTIShTIRIShNING HOZIRGI HOLATI

## 2.1. Yong‘oqchilik sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijalari

Mamlakatimizda nafaqat paxta, balki qishloq xo‘jaligining boshqa ekinlaridan ham sifatli hosil olish uchun qulayligini dehqonlarimiz o‘tgan yillar mobaynida butun dunyoga namoyish etib kelmoqda. O‘tgan davr ichida respublikamiz qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilib, bog‘dorchilik, sabzavotchilik, polizchilik va uzumchilikni hamda yong‘oqchilikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu yo‘nalishdagi qator tadbirlar hozirda ham izchil davom ettirilmoqda[40].

Bog‘dorchilikning hozirgi paytda eng asosiy sohalaridan biri hisoblangan yong‘oqchilik sohasida xorijiy mamlakatlarining ilg‘or tajribalari, zamonaviy intensiv va innovatsion texnologiyalarning amaliyotga joriy etilayotgani yong‘oq hosildorligining muntazam ravishda ortib borishida katta ahamiyat kasb etmoqda. Yana bir muhim tomoni shundan iboratki, intensiv texnologiyalar asosida yong‘oqzorlar tashkil etishga aholining oziq-ovqat ta’minotini yaxshilash uchun zamonaviy bog‘dorchilikning muhim strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tibor qaratilmoqda.

Oxirgi besh yil ichida fermer va dehqon xo‘jaliklari hamda yurtimiz aholisining intensiv bog‘dorchilik mahsulotlariga hamda intensiv daraxt ko‘chatlariga bo‘lgan talabi kundan-kunga ortib bormoqda. Shu boisdan, yarim pakana va pakana intensiv ko‘chatchilikni rivojlantirish, jumladan, tog‘ oldi mintaqasida yong‘oqzorlarni tashkil etishga katta e’tibor berilmoqda. Bugungi kunda dunyo bozorida xaridorgir hisoblangan yong‘oq, unabi, pista va boshqa mevalar ishlab chiqarishni ko‘paytirish bo‘yicha respublikamizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli tadbirlar natijasida sohada qator ijobiy ko‘rsatkichlarga erishilmoqda. Jumladan, yong‘oq va unabining xorijiy mamlakatlardan keltirilgan urug‘lari asosida ko‘chat yetkazib berish tizimi rivojlantirilmoqda.

---

[40] https://uza.uz/uz/posts/-osil-bayrami-oldidan-samar-and-bo-laridan-khorizh-bozoriga-05-12-2017.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 1 iyundagi “Yong‘oq ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasini tuzish va uning faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori[41] qishloq xo‘jaligida lalmi yerlardan samarali foydalanish, intensiv yong‘oq bog‘larini tashkil etish orqali ichki va tashqi bozorda yong‘oq yetishtirish hajmini ko‘paytirishga qaratilgan bo‘lib, muhim hujjat sifatida yong‘oqchilik sohasi rivojiga katta hissa qo‘shdi. Qarorga muvofiq “Yong‘oq ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasi” tashkil etilib, uning vazifalari aniq belgilab berildi.

Mamlakatimiz tog‘ oldi mintaqalari yong‘oq, bodom, pista kabi daraxt ko‘chatlarining o‘sishi va yuqori hosil berishi uchun qulay joylar hisoblanadi. Xususan, bugungi kunda Andijon, Jizzax, Namangan, Samarqand, Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo, Farg‘ona, Toshkent viloyatlarida grek yong‘og‘i daraxtlaridan yaxshi hosil olish mumkin[42].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni[43]ga muvofiq 2017 - 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga yuzasidan Davlat dasturida yong‘oq yetishtirish hajmlarini ko‘paytirish, dehqon xo‘jaliklarida yong‘oq ishlab chiqarishni rag‘batlantirish kabi muhim yo‘nalishlar belgilab berildi.

Hozirgi sharoitda respublikamizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, jumladan, meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish, ularni qayta ishlash va eksport qilishga yo‘naltirilgan loyihalarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, yurtboshimizning 2018 -yil 29 martdagi “O‘zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir

[41] Oʻзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 1 июндаги “Ёngʻoq ишлаб chиqарувchилар ва экспорт qилувchилар уюшмасини тузиш ва унинг фаолиятини ташкил этиш тоʻgʻрисида”ги Qарори. Халq соʻзи 2017 йил 17 январ. https://lex.uz/docs/3225162.

[42] Н.Астанаqулов, ва б. Ёngʻoqзорлар барпо этиш боʻйичa тавсиялар. https:// www.agro.uz /uz/ services/ recom-mendations/ 9029/.

[43] Оʻзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Оʻзбекистон Республикасини янада ривожлантириш боʻйичa Hаракатлар Стратегияси тоʻgʻрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони https://lex.uz/acts/3107036.

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni mazkur yo‘nalishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda[44].

Ma’lumki, mamlakatimizdagi mavjud tabiy-iqlim sharoitlari qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini, jumladan, meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish uchun qulay hisblanadi. Shu boisdan ham, meva-sabzavotchilik mahsulotlarini ko‘proq yetishtirish va tashqi bozorlarda sotish hisobiga mamlakat valyuta tushumining sezilarli qismi shakllanayotganligi ham sohani tubdan isloh qilish va jadal rivojlantirishning ustuvorligidan darak beradi.

Aytish joizki, oxirgi yillarda bir nechta me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Bularga misol qilib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 -yil 29 martdagi “O‘zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5388-sonli, 2019 yil 23 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-sonli Farmonlari hamda 2018 -yil 17 oktabrdagi “Meva-sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3978-sonli Qarorlarni keltirib o‘tish mumkin.

Shu nuqtai-nazardan hozirgi davrda meva-sabzavotchilik quyi tarmog‘ida, xususan, intensiv yong‘oq bog‘larini tashkil etish yo‘nalishida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar quyidagi iqtisodiy-ijtimoiy masalalarni hal qilish imkoniyatini yaratib bermoqda:

- iqtisodiy masalada meva-sabzavotchilik jami ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 32,2 foizini tashkil etgani holda qishloq hududlarida aholining asosiy daromad manbalaridan biri hisoblanadi. Sanoatning rivojlanishida ham bevosita ta’sir qiladi. Bundan tashqari, mazkur soha mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi eksportida muhim o‘rin egallamoqda;

- ijtimoiy masalada esa meva-sabzavotchilik quyi tarmog‘ini rivojlantirish samaradorligi, nafaqat aholining turmush darajasiga,

[44] https://xs.uz/uzkr/post/istiqbolli-lojihalar-aholi-bandligini-taminlash-va-yurt-farovonligiga-khizmat-qiladi.

balki ijtimoiy farovonligini ham oshirishga bevosita ta'sir koʻrsatib, qoʻshimcha ishchi oʻrinlarini yaratilishida muhim oʻrin tutadi.

Umuman olganda, mazkur amalga oshirilayotgan islohotlardan asosiy maqsad mamlakatda oziq-ovqat ta'minoti yaxshilanib, aholi turmush darajasining oshib borishini oʻzida aks ettiradi.

Shu bilan bir qatorda "... sohada ayniqsa, meva-sabzavotchilikni rivojlantirishda samarali bozor mexanizmlari tizimli yoʻlga qoʻyilmaganligi, ilmiy yondashuvning yetarli emasligi tarmoqning mavjud imkoniyatlaridan toʻliq foydalanilmasligiga olib kelmoqda. Hisob-kitoblarga koʻra, 1 gektar maydonda yetishtirilgan paxta xom ashyosiga nisbatan uzumdan 7 baravar, gilosdan 6 baravar, yongʻoqdan 5 baravar koʻp daromad olish imkoniyati mavjud"[45].

2017-2018 -yillarda mamlakatimiz hududlarida, jumladan Qashqadaryo viloyatida (1245 ta), Surxondaryo viloyatida (2000 ta), Navoiy viloyatida (260 ta), Jizzax viloyatida (1820 ta), Toshkent viloyatida (524 ta), Namangan viloyatida (712 ta), Andijon viloyatida (802 ta), Fargʻona viloyatida (230 ta) va Samarqand viloyatida (2815 ta) intensiv yongʻoq va bodom bogʻlari tashkil qilindi.

Davlatimiz rahbarining 2017 yil 1 iyundagi "Yongʻoq ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasini tuzish va uning faoliyatini tashkil etish toʻgʻrisida"gi qarori hamda joriy yil yanvarь oyidagi Qashqadaryoga tashrifi davomida bergan topshiriqlari asosida tumanda "Sag agro Yakkabogʻ" MChJ tomonidan 25 milliard soʻm mablagʻ evaziga 1 ming 140 gektar maydonda yongʻoqzor va bodomzorlar tashkil etilmoqda. Yongʻoqzor 4 yilda, bodomzor 3 yilda hosilga kiradi. Mazkur[46] bogʻ toʻliq barpo etilgach, yiliga 7 ming tonnaga yaqin mahsulot olinadi. 500 kishining bandligi ta'minlanadi. Yetishtirilgan mahsulotning 60 foizini eksportga chiqarish koʻzda[47] tutilmoqda[48].

---

[45] С.Хасанов Оʻзбекистонда мева-сабзавотликни ривожлантириш тенденциялари ва истиқболлари. // Ж.: Экономинеское обозрение, 2020. - №6 (246). - 56-61-бет.
[46] https: // staff.tiiame.uzlstorage / users /418/ presentations/ 4VgRLMUHsr6q4DAJI%20BvjhlELDvwsHnhWcA2CgSbc.%20pdf
[47] https: // staff.tiiame.uzlstorage / users /418/ presentations/ 4VgRLMUHsr6q4DAJI%20BvjhlELDvwsHnhWcA2CgSbc.%20pdf
[48] Пухта оʻйланган ташаббуслар ва истиқболли лойиҳалар халқимиз фаровонлигини юксалтиришга хизмат қилади. http://uzlidep.uz/positionparty/204.

Ma’lumki, yong‘oq mevali o‘simliklar orasida foydaliligi jihatidan alohida o‘rin tutadi. Farg‘ona vodiysida yong‘oq, bodom, pista eng ko‘p tarqalgan mevali o‘simliklardir. Ular mevali o‘simliklar orasida eng sevimlisi hisoblanib, har jihatdan yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi.

2019 yil yakunlariga ko‘ra, mamlakatimiz yong‘oq yetishtirishda 56116 tonna ko‘rsatkich bilan dunyoda 8-o‘ringa ko‘tarilganligi ishlab chiqarish hajmi ancha oshganligini bildirsada, ona diyorimizning tabiiy imkoniyatlaridan oqilona foydalana olmayotganimizni ko‘rsatadi. Hozir yurtimizda intensiv yong‘oqzorlar yaratishga keng sharoit yaratish, fermerlarga kerakli tavsiya va yo‘l-yo‘riqlar berish orqali sohani rivojlantirishga erishish hamda dunyo bozorlarida munosib o‘rin egallash sari dastlabki qadamlar qo‘yilmoqda.

Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan 2018 -yil 21 sentabrda imzolangan “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli[49] Farmonida iqtisodiyot tarmoqlariga, ijtimoiy va boshqa sohalarga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tezkor joriy etish O‘zbekiston Respublikasi jadal rivojlanishining muhim sharti hisoblanishi ko‘rsatib o‘tilgan[50].

Hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyot tendensiyasida iqtisodiy o‘sish-ning eng maqbul va samarali omillaridan biri sifatida innovatsion salohiyatni shakllantirish, rivojlantirish va uni rag‘batlantirish masalasiga e’tibor kuchaytirilmoqda. Albatta, zamonaviy taraqqiyot innovatsion faoliyatning natijasi sifatida olinadigan intellektual mahsulotsiz hech qanday mazmun va ma’noga ega bo‘lmaydi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoevning Oliy majlisga murojaatnomasida shunday deyilgan: “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!”[51].

---

49 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 21 сентябрдаги “2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш to‘g‘risida”ги ПФ-5544-сонли фармони. https://lex.uz/docs/3913188.

50 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 21 сентябрдаги “2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш to‘g‘risida”ги ПФ-5544-сонли фармони. https://lex.uz/docs/3913188.

51 Ўзбекистон президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий мажлисга мурожаатномаси. Т., 2020 й.

Yong‘oqchilikni rivojlantirish bevosita yong‘oq yetishtirish sohasida olib borilayotgan islohotlarning amaliyotga tatbiq etilishi bilan bog‘liqdir.

Prezident Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 1 iyundagi qarori bilan O‘zbekistonda yong‘oq ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasi[52] tashkil etildi. Qarorda yong‘oq yetishtirish hajmini oshirishga yordam beradigan intensiv metodlardan foydalanish jihatlari keltirilgan.

Sag agro va Sam antep gilam kompaniyalari, «Sag agro MTP», shuningdek, viloyatlaridagi hududiy «Yong‘oqagro» MChJlari uyushma muassislari hisoblanadi.

Respublikada yong‘oqchilik sohasida amalga oshirilgan islohotlar va qabul qilingan me’yoriy-huquqiy asoslarni o‘rganish jarayonida bizningcha, sohadagi me’yoriy – huquqiy asoslarning shakllanish bosqichlarini ajratib olishni lozim deb hisoblaymiz (2.1-rasm).Mustaqillikdan keyingi davrlarga nazar tashlasak, sohadagi iqtisodiy islohotlarning dastlabki davri bosqichi o‘z ichiga 1990-2002 yillarni o‘z ichiga oladi. Ikkinchi bosqich 2003-2016 yillarni o‘z ichiga olib, sohada islohotlarni chuqurlashtirish davri bosqichi, ya’ni bu davrda yong‘oq ishlab chiqarish asta-sekinlik bilan ortib, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol ko‘rsatkichi ham ortib borgan. 3-bosqich 2017 yildan keyingi yillarni o‘z ichiga olib, sohada izchil tarkibiy o‘zgarishlar boshlandi. Bu bosqichda sohada tezkor o‘zgarishlar va islohotlar amalga oshirilib, zamonaviy resurs tejamkor texnologiyalar va intensiv usullar yordamida yong‘oq ishlab chiqarish hajmi keskin ortdi. 2016-2020-yillar mobaynida dehqonchilikda va chorvachilikda, ovchilik sohalarda ta’minlandi. Jumladan, dehqonchilikda va chorvachilikda, ovchilik va xizmat ko‘rsatishda-6,6 foizga, o‘rmon xo‘jaligida -1,8 foizga o‘sishga erishildi. Shuningdek, respublikada jami barpo etilgan bog‘lar maydoni o‘zgarishini tahlil qiladigan bo‘lsak, 2020-yilda jami bog‘ maydoni 2016 yilga nisbatan 120,4 foizga yoki 57 ming ga ortganini ko‘rish mumkin. Shundan hosilga kirgan bog‘lar maydoni hajmi esa, 2016 yilga nisbatan 102,6 foizga yoki 6000 gektarga ortgan.

---

[52] O‘zbekistonda yong‘oq ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasi tuzish va uning faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida PQ-3025-son qarori. https://lex.uz/docs/3225162

**1 – bosqich:** Mustaqillik yillarida sohadagi iqtisodiy islohotlarning dastlabki davr bosqichi **(1990-2002 yillar)**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 1992 y.
2. "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 1992 y.
3. "Respublika meva-sabzavot xo'jaligi-da monopoliyadan chiqarish va ixtisoslashtirishni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 363-sonli qarori. 1997 y.
4. "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. 1998 y.
5. "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. 1998 y.
5. "Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'ini joriy etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti PF-2084-son Farmoni. 1998 y.

**2 – bosqich:** Sohada islohotlarni chuqurlashtirish davri bosqichi **(2003 – 2016 yillar)**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning "Meva-sabzavotchilik sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-3709-son Farmoni, 2006 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasini isloh qilish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-255-son Qarori. 2006 y.
3. "2011-2015 yilla davrida meva-sabzavot mahsulotlarini saqlashning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risi-da"gi Vazirlar Mahkamasining 105-son qarori. 2011 y.
4. "Yangi va qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" Vazirlar Mahkamasining 207-son qarori. 2016 y.

**3 – bosqich:** Sohada izchil tarkibiy islohotlar davri bosqichi **(2017 yildan keyingi)**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Qarori. 2017 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning "Yong'oq ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasini tuzish va uning faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3025-son qarori. 2017 y.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning "O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5388-son Farmoni. 2018 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning "Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo'jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4239-son Qarori. 2019 y.

**1-rasm. Mamlakatimiz yong'oqchilik sohasida me'yoriy - huquqiy asoslarning shakllanish bosqichlari[2].**

2 [illegible]

Tahlillar natijasi shuni ko‘rsatadiki, eng kam darajadagi hosildorlik va mahsulot narxini chakana baholardan 25-30 foiz kam baholarda hisoblangan holatda ham an’anaviy usulda mahsulot ishlab yetishtirishda har gektar yerdan olinadigan daromad 42059-51467 ming so‘mni, intensiv usulda esa 86838-103549 ming so‘mni tashkil etadi (2.1-jadval).

**2.1-jadval**

**Bir gektar yer maydonda o‘rtacha turli usulda yong‘oq yetishtirishning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili**

(2021 yil baholarida) [53]

| Ko‘rsatkichlar | | O‘lchov bir-ligi | An’anaviy usulda, navlar bo‘yicha | | Intensiv usulda, navlar bo‘yicha | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Ideal | Chandler | Ideal | Chandler |
| 1 gektar yer maydonda yong‘oqzor barpo etish xarajatlari | | ming so‘m | 13164 | 14926 | 133657 | 136755 |
| 1 gektar yong‘oqzorni yillik parvarishlash xarajatlari, *(to‘liq hosilga kirganda)* | Jami | ming so‘m | 14577 | 15491 | 19446 | 22263 |
| | Ish haqi | | 5559 | 5915 | 7414 | 7919 |
| | Moddiy va boshqalar | | 9018 | 9576 | 12032 | 14344 |
| Yong‘oqzorlarning asosiy hosilga kirish muddatlari | 5 yil | s/ga | 5,3 | 8,4 | 10,5 | 16,4 |
| | 7 yil | s/ga | 10,1 | 15,3 | 22,2 | 32,1 |
| | 10-15 yil | s/ga | 25 | 31,2 | 54,4 | 65,5 |
| O‘rtacha 1 gektar yong‘oqzordan *(to‘liq hosilga kirganda)* | Tushum | ming so‘m | 36500 | 45552 | 79424 | 95630 |
| | Daromad | ming so‘m | 42059 | 51467 | 86838 | 103549 |
| | Sof foyda | ming so‘m | 21923 | 30061 | 59978 | 73367 |
| Rentabellik darajasi | | % | 150,4 | 194,1 | 308,4 | 329,5 |

Mahsulot ishlab chiqarishning rentabellik darajalari mos ravishda 150,4 va 329,5 foizga teng bo‘ladi. Jadvalda keltirilgan ma’lumotlar o‘rtasidagi tendensiyalar asosan yong‘oq yetishtirish usullari, yong‘oq navlari, yer maydonlari relьfi, ekish sxemasi ya’ni har gektarga ko‘chat sarfi hisobiga yuzaga kelgan. Shuni alohida ta’kid-lash joizki, yong‘oqzolarni barpo etishda ushbu hisob-

53 "2016-2020 йиллар учун мо'лжалланган "Қишлоқ хо'жалиги экинларини парваришлаш ва маҳсулотларини етиштириш бо'йича намунавий технологик карталар" ва муаллифнинг илмий тадқиқотлари асосида ҳисоб китоб қилинган.

kitoblar mahsulot yetishtiruvchilar va investorlarning turli iqtisodiy va moliyaviy xatarlar-ni baholashida tegishli xulosalarni chiqarishda asos boʻlib xizmat qiladi.

Hisob-kitoblarga asoslanib, bir gektar yongʻoqzor barpo etish bilan bogʻ-liq xarajatlar oʻrtasidagi farqlar intensiv usulda 8-9 martaga yuqoriligi-ni koʻrish mumkin. Vaholanki, quyidagi jihatlar orqali intensiv usulda yonqogʻ yetishtirish samarali ekanligini ta'kidlash mumkin:

- intensiv usulda bir gektar yer maydoniga joylashtiriladigan koʻchatlar soni 3-4 marta koʻp boʻlishi;
- intensiv usulda tomchilatib sugʻorish orqali suvdan va mineral oʻgʻitlardan samarali foydalanish imkoniyatlarning yuqoriligi;
- mahsulot yetishtirishda mehnatni mexanizatsiyalashganlik darajasi-ning yuqoriligi;
- mahsulot sifatini nazorat qilish va boshqarishning qulayligi;
- kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash qulayligi hamda ta'sirchanligining yuqoriligi;
- intensiv usulda barpo etilgan bogʻlarni tez mevaga kirishi va tegishli agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish imkoniyatining yuqoriligi;
- mahsulotni yigʻishtirib olish va boshqa agrotexnik tadbirlarni amalga oshirishning qulayligi;
- intensiv usulda bogʻ barpo etish bilan bogʻliq xarajatlarning 8-9 mar-ta yuqori boʻlishiga qaramay, ushbu xarajatlar yuqori resurs tejamkor texno-logiyalarni joriy etish hisobiga bogʻ toʻliq xosilga kirgandan soʻng 3-4 yil muddatda toʻliq qoplanishi va boshqalar.

Shuningdek, yongʻoq yetishtirishda resurslar samaradorligi ilmiy asosda hisob-kitob qilindi. Unda 10 tonna yongʻoq mahsulotini yetishtirish uchun talab etiladigan yer maydoni, yongʻoq koʻchatlar soni talab etiladigan sugʻorish suvi, mehnat sarfi, bogʻ barpo etish xarajatlari, yillik parvarishlash xarajatlari mahsulot yetishtirishning turli usullarida taqqoslangan (2.2-jadval).

**2.2-jadval**

**Yong‘oq yetishtirish texnologiyalarida resurs samaradorligini baholash[54]**

| № | Ko‘rsatkichlar | O‘lchov birligi | 10 tonna yong‘oq hosil uchun | | Ana’anaviy usulga nisbatan, intensiv usulda, % |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | Mahalliy sharoitda | | |
| | | | An’anaviy usulda | Intensiv usulda | |
| 1. | Ekin maydoni | gektar | 1,7-2,4 | 1,14 | 67,1-47,5 |
| 2. | Ko‘chatlar soni | tup | 360-508 | 319 | 88,6-62,7 |
| 3. | Sug‘orish suvi | $m^3$ | 3600-6192 | 5341 | 148,4-86,3 |
| 4. | Mineral o‘g‘itlar (barchasi) | Kg | 283-447 | 316 | 111,7-70,7 |
| 5. | YoMM | litr | 374-528 | 328 | 87,7-62,1 |
| 6. | Mehnat sarfi | kishi/soat | 2150-3024 | 1539 | 71,6-50,9 |
| 7. | Bog‘ barpo etish xarajatlari | ming so‘m | 17280-24384 | 143550 | 8,3-5,9 marta |
| 8. | Yillik parvarishlash xarajatlari | ming so‘m | 21382-30187 | 17609 | 82,3-58,3 |

Izoh: 2021 yilda o‘rtacha bog‘lar to‘liq hosilga kirganda.

Ushbu joylashtirish jadvali taxminiy har bir hududda mikroiqlim, tuproq va gidrogeologik sharoitiga ko‘ra joylashtirishni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasining mavjud tabiiy resurslari qishloq xo‘jaligida ayniqsa foydalanishda bo‘lmagan yerlar zaxirasi ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirishning ichki imkoniyatlari yuqoriligini ko‘rsatadi.

Bu o‘z navbatida uzoq tarixiy tajribaga ega bo‘lgan yong‘oqchilik sohasinining o‘zida ham ulkon imkoniyatlarni taqdim etadi.

Respublikamizda alohida demografik ko‘rsatkichlari o‘ziga xos xos bo‘lgan Andijon viloyatida yong‘oqzor bog‘larini tashkil etishining ichki imkoniyatlari tahlil qilindi. Tuman shaharlar kesimida mavjud yong‘oqzor maydonlari jami viloyat bo‘yicha

54 “2016-2020 йиллар учун мо‘лжалланган Қишлоқ хо‘жалиги экинларини парваришлаш ва маҳсулотларини етиштириш бо‘йича намунавий технологик карталар” ва муаллифнинг илмий тадқиқотлари асосида ҳисоб китоб қилинган.

2020-yilda 1223 gektarni tashkil etgan. Ayrim tumanlarda mavjud yong'oqzor maydonlari ichki imkoniyatga nisbatan 10 barobardan 100 barobargacha kamligini ko'rish mumkin. Ya'ni ichki imkoniyatga nisbatan mavjud yong'oqzorlar egallab tugan yer maydoni salmog'i 7,1 foizni tashkil etadi (2.3-jadval).

Monografik tadqiqotlar Andijon viloyatining Andijon, Oltinko'l va Paxtaobod tumanlarida o'tkazildi. Har bir tumandan 10 tadan yong'oqchilik xo'jaliklari tanlab olinib, so'rovnomalar o'tkazildi.

**2.3-jadval**

**Andijon viloyatida yong'oqzorlarni kengaytirish va barpo etishning ichki imkoniyatlari,** (gektar hisobida)[55]

| T/r | Shahar va tumanlar | 2021 yilda mavjud yong'oqzorlar | Yong'og'zorlar tashkil etish mumkin bo'l-gan qishloq xo'ja-lik yerlari jami | Shu jumladan | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | O'rmon yer fondi | Zaxira yerlar |
| 1. | Andijon | 134 | 2366 | 2330 | 36 |
| 2. | Andijon sh. | 38 | 373 | 1 | 372 |
| 3. | Asaka | 43 | 984 | 760 | 224 |
| 4. | Baliqchi | 58 | 206 | 206 | |
| 5. | Buloqboshi | 15 | 2703 | 425 | 2278 |
| 6. | Bo'ston | 11 | 350 | 338 | 12 |
| 7. | Jalaquduq | 56 | 1080 | 325 | 755 |
| 8. | Izboskan | 57 | 214 | 214 | |
| 9. | Qo'rg'ontepa | 56 | 5327 | 5268 | 59 |
| 10. | Marxamat | 64 | 2413 | 915 | 1498 |
| 11. | Oltinko'l | 222 | 107 | 106 | 1 |
| 12. | Paxtaobod | 82 | 35 | 0 | 35 |
| 13. | Ulug'nor | 115 | 554 | 95 | 459 |
| 14. | Xonobod.sh | 9 | 50 | 44 | 6 |
| 15. | Xo'jaobod | 27 | 417 | | 417 |
| 16. | Shahrixon | 236 | 2039 | 2039 | |
| | **JAMI** | **1223** | **19218** | **13066** | **6152** |

So'rovnoma natijalariga ko'ra, yong'oqchilik bilan shug'ullanadigan xo'jaliklarning aksariyati, ya'ni 82 foizi dehqon xo'jaliklari, 18 foizi esa ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari ekanligi ma'lum bo'ldi.

[55] Андижон вилоят ер кадастр бошқармаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

Bundan tashqari Respublikada miqdoriy o'zgarishlar tendensiyasiga e'tibor beradigan bo'lsak, sohada mulkchilikning turli shakllari paydo bo'lgandan keyin bozor munosabatlari shakllanishi natijasida yong'oq va yong'oq mahsulotlariga talab ortganligi va ishlab chiqarish hajmi hamda aholining iste'mol ko'rsatkichlari ham yillar davomida oshib borganligiga guvoh bo'lamiz.Namlikni yaxshi ko'ruvchi grek yong'og'i, olma, nok, olxo'ri, olcha, tog'olcha lalmi yerlarda, shimoliy qiyaliklarida, qurg'oqchilikka chidamli bodom, pista, jilon jiyda, o'rik, do'lana va uzum turlari janubiy qiyaliklarda yaxshi o'sadi (2.4-jadval).

**2.4-jadval**

**Respublika tog' va tog'oldi hududlarida meva-uzum turlarini joylashtirilishi**[56]

| Meva turlari | Dengiz sathidan balandligi, m | Ekspozitsiya (qiyaliklar) |
|---|---|---|
| Olma | 1000-2000 | Shimoliy |
| Nok | 900-1700 | Shimoliy va sharqiy |
| O'rik, shaftoli | 800-1500 | Shimoliy, sharqiy va g'arbiy |
| Olxo'ri, tog'olcha | 1000-1700 | Shimoliy |
| Olcha | 1000-2000 | Shimoliy |
| Gilos | 800-1500 | Shimoliy, sharqiy va g'arbiy |
| Grek yong'og'i | 1000-1500 | Shimoliy |
| Bodom | 800-1400 | Shimoliy |
| Jilon jiyda | 700-1200 | Janubiy |
| Pista | 600-1200 | Hamma qiyaliklarda |
| Do'lana | 1000-1200 | Janubiy, sharqiy va g'arbiy |
| Uzum | 700-1400 | Janubiy, sharqiy va g'arbiy |

Ushbu o'zgarishlarga sabab asosan ko'payib borayotgan aholining yong'oq va yong'oq mahsulotlariga bo'lgan talabini

[56] M.M.Mirzaev, R.M.Abdullaev O'zbekistonning tog' va tog'oldi mintaqalarida bog'dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish. Tavsiyanoma. – T.: 2009. – 4-bet.

ortishi, ekologiyaning o'zgarishi, kaloriyali mahsulotlarga bo'lgan ehtiyoj va boshqa sabablar bo'lishi mumkin.

Shuningdek, respublika bo'yicha yong'oqning yalpi hosili, hosildorligi va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdor ko'rsatkichlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2021 yilda mamlakatimizda 79300 tonna yong'oq hosili yig'ishtirib olingan. Bu ko'rsatkich 2017 yilga nisbatan 119,2 foizga ortgan. Hosidorlik esa 2021 yilda 147,6 s/ga ni tashkil etib, 2017 yilga nisbatan 125,4 foizga o'sishga erishgan (2.5-jadval).

Bundan tashqari, Andijon viloyati va Respublikaning yong'oq yetishtirish bo'yicha ko'rsatkichlarini taqqoslaydigan bo'lsak, Andijon viloyatida 2021 yilda 7022 tonna yong'oq yetishtirilgan, bu esa respublika ko'rsatkichidan 12,1 barobar kam, lekin Andijon viloyatida bu ko'rsatkich 2017 yilga qaraganda 1,6 marotaba o'sishga erishilganligini ko'rishimiz mumkin. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yong'oq hajmiga kelsak, yildan-yilga bu bo'yicha ham o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda.

**2.5-jadval**

**Yong'oq yetishtirish bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar**[57]

| № | Ko'rsatkichlar | O'lchov birligi | 2017 yil | 2018 -yil | 2019 yil | 2020-yil | 2021 yil |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Respublika bo'yicha yong'oq yalpi hosili | tonna | 65463 | 59758 | 67733 | 79141 | 79300 |
| 2. | Respublika bo'yicha yong'oqning o'rtacha hosildorligi | s/ga | 117,7 | 122 | 120,3 | 123,2 | 147,6 |
| 3. | Andijon viloyati bo'yicha yong'oq yalpi hosili | tonna | 4397 | 4886 | 5933 | 6980 | 7022 |
| 4. | Andijon viloyati bo'yicha yong'oqning o'rtacha hosildorligi | s/ga | 64,4 | 53,2 | 54,6 | 57,1 | 57,4 |
| 5. | Aholi jon boshiga yillik o'rtacha yong'oq hajmi | kg | 3,1 | 3,5 | 3,8 | 4,4 | 4,5 |

[57] O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Tibbiyot me'yorlari bo'yicha aholi jon boshiga yillik o'rtacha yong'oq iste'moli 8 kg ni tashkil etsa, bizda 2021 yilda 4,5 yoki me'yorga nisbatan 2,1 barobar kam iste'mol qilinayotganligi kuzatilmoqda.

Umuman olganda, oxirgi yillarda yong'oqchilikka katta e'tibor berilib, tog' oldi mintaqalarida yong'oq ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, dehqon xo'jaliklarini lalmi yerlardan samarali foydalanishlariga imkoniyatlar yaratib berish, intensiv ko'chatchilikni rivojlantirishga e'tiborni qaratish, intensiv yong'oq bog'larini tashkil etish kabi islohotlarning keng ko'lamda amalga oshirilishi natijasida aholi daromadlarini oshirish imkoniyatlari yaratiladi.

## 2.2. Oziq-ovqat tarmog'ida yong'oq ishlab chiqarish samaradorligi

Ma'lumki, Markaziy Farg'ona yerlarining sho'rlanganlik darajasi yuqori, qolaversa, cho'l hududlarida suv yetarli emas. Shu bois, mazkur maydonlar intensiv yong'oqzorlar yaratish uchun qulay. Farg'ona vodiysi yerlarining dengiz sathidan 500-600 metr balandlikda joylashganligi, yong'oq daraxtining quyosh tig'idan kuymasligi, kasalliklarga chalinmasligini kafolatlovchi tabiiy sharoit hisoblanadi.

2017 yilda yong'oq uchun 500 gektar maydon ajratilgan bo'lib, bahorgi mavsuvda yong'oq ko'chatlari ekildi. 2018 -yilga yong'oq hamda bodom plantatsiyalarning umumiy maydoni 5000 gektardan ortiq maydonda tashkil qilindi. Jumladan, Andijon viloyatida 2018-2019 yillar davomida yangi yaratilgan yong'oq bog'lari maydoni deyarli 2400 gektarni tashkil etilib, undagi yong'oq ko'chatlari soni 572 ming tupdan ziyodni tashkil etadi. Buning natijasida 550 ta yangi ish o'rni yaratildi (2.6-jadval).

Yong'oq yetishtirishni ko'paytirish maqsadida, Andijon viloyatida fermer xo'jaliklari yong'oq ko'chatlarini yetishtirishmoqda. Bu yo'nalishda tayyorlangan loyiha bo'yicha 6 ga maydonda yong'oq ko'chatlari yetishtilirilib, 1000 ga dan ortiq maydonga ekish mo'ljallangan. 4 yildan so'ng 3 ming tonnadan ziyod sanoat

bilan **2.6-jadval**

**Andijon viloyatida 2018-2019 yillarda yong'oq plantatsiyalarini yaratish ko'rsatkichlari**[58]

| № | Loyixa maskani | Loyixa davri | maydoni ga | tupi (ming dona) | loyixa kiymati (mln.sum) | shundan | | loyixa qoplash muddati | olingan maxsulot miqdori (tonna) | Olingan daromad | Yaratilgan ishchi o'rni |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | o'z mablag'i xisobidan | bank krediti xisobidan | | | | |
| 1 | Andijon viloyatida grek yong'og'i plantatsiyalarini yaratish | 2018 -yil | 721 | 212 | 1272 | 597 | 675 | 5 yil | 6922 | 20766000 | 195 |
| | | 2019 yil | 850 | 200 | 1495 | 750 | 745 | 5 yil | 8160 | 24480000 | 215 |
| | Jami | 2018-2019 yillar | 1571 | 412 | 2767 | 1347 | 1420 | | 15082 | 45246000 | 410 |
| 2 | Andijon davlat o'rmon xo'jaligida yer maydonlariga grek yong'og'i plantatsiyalari yaratish | 2018 -yil | 170 | 22 | 425 | 425 | 0 | 5 yil | 550 | 1650000 | 10 |
| | | 2019 yil | 230 | 35,8 | 575 | 575 | 0 | 5 yil | 897 | 2691000 | 14 |
| | Jami | 2018-2019 yillar | 400 | 57,8 | 1000 | 1000 | 0 | | 1447 | 4341000 | 24 |
| 3 | Andijon viloyatida fermer xo'jaliklari tomonidan grek yong'og'i plantatsiyalarni barpo etish loyixasi | 2018 -yil | 191 | 45,8 | 765 | 337 | 428 | 5 yil | 1912 | 5736000 | 52 |
| | | 2019 yil | 235 | 56,4 | 890 | 410 | 480 | 5 yil | 2256 | 6768000 | 64 |
| | Jami | 2018-2019 yillar | 426 | 102,2 | 1655 | 747 | 908 | | 4168 | 12504000 | 116 |
| | Umumiy jami | 2018-2019 yillar | 2397 | 572 | 5422 | 3094 | 2328 | | 20697 | 62091000 | 550 |

[58] O'zbekiston Yong'oq ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Yalpi hosil esa 2017-2021 yillar oralig‘ida 113,6 foizga o‘sib, shu davrda 98,6 foizga kamaygan. Shuningdek, yong‘oq hosildorligi 2017 yilda 117,7 s/ga bo‘lgan bo‘lsa, 2021 yilga kelib bu ko‘rsatkich 29,9 sentnerga yoki 125,4 foizga ortganligini ko‘rish mumkin. 2020-yilga nisbatan o‘sish sur’ati esa 98,6 foizga kamaygan (2.7-jadval).

**2.7-jadval**

**O‘zbekiston Respublikasida yetishtirilgan yong‘oqning iqtisodiy ko‘rsatkichlari[58]**

| Ko‘rsatkichlar | 2017 yil | 2018 - yil | 2019 yil | 2020-yil | 2021 yil | 2021 yil 2017 yilga nisbatan % |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Maydoni, gektar | 7505 | 10958 | 16128 | 14144 | 8527 | 113,6 |
| Yalpi hosil, tonna | 65463 | 59758 | 67733 | 79141 | 79300 | 119,2 |
| O‘tgan yilga nisba-tan o‘sish sur’ati, % | x | 91,2 | 113,3 | 116,8 | 98,6 | - |
| Hosildorlik, s/ga | 117,7 | 122,0 | 120,3 | 123,2 | 147,6 | 125,4 |

2021 yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasida (2,4 marta), Andijon (2,1 marta), Buxoro (4,9 marta), Jizzax (1,94 marta), Navoiy (2,02 marta), Toshkent (1,9 marta) Namangan (1,8 marta), va Farg‘ona viloyatida (2,39marta) yong‘oq yetishtirish hajmi yuqori ulushga teng bo‘lgan. Shuningdek, Qashqadaryo (30,8 %), Samarqand (82,3%) va Surxondaryo (46,2%) viloyatlarida yong‘oq yetishtirish hajmi pasaygan. Bunga asosiy sabab tog‘ va tog‘oldi hududlarida yong‘oq o‘rmonlarini kesib yuborilayotganligi, turli kasalliklarning paydo bo‘lishi, iqlimga mos navlarning tanlanmasligi hamda mintaqalardagi suv tanqisligi jarayoni bo‘lgan (2.8-jadval).

[58] O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida hisoblangan.

**2.8-jadval**

**Respublikada yong‘oq yalpi hosili ko‘rsatkichlari**[59]

| Hududlar | 2017 y. | 2018 y. | 2019 y. | 2020y. | 2021y. | 2021 yilda 2017 yilga nisbatan % |
|---|---|---|---|---|---|---|
| O‘zbekiston Respublikasi | 65463 | 59758 | 67733 | 79141 | 79300 | 121,1 |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 10 | 13 | 16 | 13 | 24 | 240 |
| Andijon | 12164 | 21146 | 22185 | 28392 | 26232 | 215,7 |
| Buxoro | 454 | 1909 | 2483 | 2532 | 2221 | 489,2 |
| Jizzax | 4436 | 6861 | 7288 | 7319 | 8644 | 194,9 |
| Qashqadaryo | 3852 | 2306 | 1479 | 1853 | 1185 | 30,8 |
| Navoiy | 1265 | 2175 | 3358 | 2720 | 2560 | 202,4 |
| Namangan | 6311 | 4847 | 5133 | 6802 | 6836 | 108,3 |
| Samarqand | 18650 | 6903 | 11757 | 14270 | 15350 | 82,3 |
| Surxondaryo | 12537 | 6605 | 5289 | 5823 | 5797 | 46,2 |
| Sirdaryo | 1148 | 794 | 1226 | 800 | 899 | 78,3 |
| Toshkent | 3338 | 3910 | 5398 | 6077 | 6529 | 195,6 |
| Farg‘ona | 1260 | 2284 | 2121 | 2540 | 3023 | 239,9 |
| Xorazm | 38 | 5 | - | - | - | - |

Asosan yong‘oq ishlab chiqarish salmog‘i dehqon xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Ya’ni 2017 yilda 60217 tonna yong‘oq yetishtirilgan bo‘lsa, 2021 yilga kelib 74628 tonna yoki 124,0 foizga ko‘p yong‘oq yetishtirilgan. 2021 yilda yetishtirilgan jami yong‘oq hosilining 94,1 foizi dehqon xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keladi.

[59] O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida hisoblangan.

2021 yilda 2017 yilga nisbatan fermer xo‘jaliklarida yong‘oq yetishtirish 92,1 foizga kamaygan. Shuningdek, shu davrda qishloq xo‘jaligi korxonalarida ham yong‘oq yetishtirish hajmining pasayishi kuzatilgan (2.9-jadval).

**2.9-jadval.**

**Respublikada barcha toifadagi xo‘jaliklar kesimida yong‘oq yalpi hosili ko‘rsatkichlari[60]**

| Hududlar | 2017 yil | 2018 -yil | 2019 yil | 2020-yil | 2021 yil | 2021 yil 2017 yilga nisbatan % |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Barcha toifadagi xo‘jaliklar | 65463 | 59758 | 67733 | 79141 | 79300 | 121,1 |
| Shu jumladan: | | | | | | |
| Fermer xo‘jaliklari | 4968 | 3360 | 4754 | 3143 | 4576 | 92,1 |
| Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari | 60217 | 56231 | 62800 | 75684 | 74648 | 124,0 |
| Qishloq xo‘jaligi krxonalari (MChJ) | 278 | 167 | 179 | 314 | 76 | 27,3 |

2021 yilda Andijon viloyatida yong‘oq ekilgan maydon 179,1 foizga, yong‘oq yetishtirish hajmi 159,7 foizga va sohada band bo‘lganlarning o‘rtacha yillik soni esa 1,7 marotabaga ortganligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, o‘tgan yilga nisbatan yong‘oq yetishtirish hajmining o‘sish sur’ati 100,6 foizga o‘sish kuzatilgan (2.10-jadval).

[60] O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida hisoblangan.

**2.10-jadval**

**Andijonda yong‘oqchilik sohasining asosiy ko‘rsatkichlari**[61]

| № | Ko‘rsatkichlar | 2017 yil | 2018 -yil | 2019 yil | 2020-yil | 2021 yil | 2021 y.ni 2017 y.ga nis., % |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Yong‘oq ekilgan maydon | 683 | 918 | 1087 | 1223 | 1223 | 179,1 |
| 2 | Yong‘oq yetishtirish hajmi, t | 4397 | 4886 | 5933 | 6980 | 7022 | 159,7 |
| 3 | O‘tgan yilga nisbatan yong‘oq yetishtirish hajmining o‘sish sur’ati, foizda | 117,4 | 111,1 | 121,4 | 117,6 | 100,6 | 85,7 |
| 4 | Yong‘oqchilik xo‘jaliklarida band bo‘lganlarning o‘rtacha yillik soni, ming kishi | 1912 | 2572 | 3043 | 3424 | 3424 | 179,1 |

O‘zbekistonda yong‘oq, funduk, bodom, pista kabi talab yuqori bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish iste’molchilarning transport xarajatlarini tejash hisobiga yong‘oqni nisbatan past narxlarda sotib olish imkonini beradi. Umuman, mamlakatimizda yong‘oq yetishtirishni klaster usulida tashkil etish qayta ishlash sanoatini xom ashyoga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlaydi. Chunki tabiiy-iqlim sharoitlarining qulayligi katta ustunlik taqdim etadi. Jumladan Andijon viloyati sharoitlarida yong‘oq ko‘chatlari uchun havo haroratining qishda keskin pasayish holatlari bo‘lmaydi. Yong‘oq yetishtirish klasterlari istiqbolli bo‘lib, qandolat sohasi va boshqa iste’molchilar tomonidan barqaror yuqori talab kafolatlanadi.

Shu bois, yong‘oq yetishtirish klasterlarini respublikamizning boshqa hududlarida ham rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

---

[61] O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida hisoblangan.

Yong‘oq va bodom ishlab chiqarishga investitsiyalar yo‘naltirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bundan tashqari yong‘oqzorlarning deyarli 100 yildan ortiq uzoq muddatda hosil berish imkoniyati yong‘oqni qayta ishlash sanoatini rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Ammo bu sohaga yo‘naltirilgan investitsiyalar uzoq muddatlarda qoplanadi. Chunki yong‘oq ko‘chatlari faqat 4-5 yildan so‘ng hosilga kiradi.

Yong‘oq, bodom va pistaning serhosil zamonaviy plantatsiyalarini tashkil etish, intensiv metodlarni tatbiq qilish, yong‘oq, bodom va pista yetishtirishni keng targ‘ib qilish zarur.

O‘zbekistonning deyarli barcha viloyatlarida yong‘oq ko‘pincha suvli yerlarda o‘stiriladi. Ammo u yiliga yog‘ingarlik 600 mm dan kam bo‘lmagan, dengiz sathidan 1800 metrgacha bo‘lgan balandliklarda ham o‘sadi. Ayniqsa, Toshkent viloyatining Bo‘stonliq tumani yong‘oq yetishtirish uchun juda qulaydir. Bu yerda yong‘oq tabiiy holda va bog‘larda sug‘orilmasdan ham yaxshi o‘sib-rivojlanadi. Shuningdek, yong‘oq yetishtirish bo‘yicha Andijon viloyati ham peshqadamlik qilmoqda. Andijon viloyati bo‘yicha yong‘oq yetishtirish hajmi 2021 yilda 2017 yilga nisbatan 2725 tonna yoki 159,7 foizga oshganligini ko‘rishimiz mumkin (2.11-jadval).

Yong‘oq yorug‘sevar o‘simlik bo‘lib, yolg‘iz o‘zi yoki siyrak o‘sganda yaxshi rivojlanadi. Bir dona yong‘oq mevasi vazni naviga qarab 2,5-18 grammni, mag‘zining miqdori 25-70 foiz, yog‘ miqdori 54 foizdan 78 foizgachani tashkil qiladi.

Urug‘idan o‘sib chiqqani 8-12 yoshda, payvand qilinganlari 4-6 yoshida va ba’zi tezpishar (ideal) navlar 2-3 yoshida hosilga kiradi. 50 yoshida to‘la kuchga kirib 400-500 yilgacha hosil beradi. Qulay sharoitda bir tup yong‘oq 150 kg gacha va undan ham ko‘p hosil berishi mumkin.

**2.11-jadval**

**Andijon viloyati bo‘yicha yong‘oq yetishtirish hajmi** (tonna)[62]

| T/r | Tumanlar | 2017 yil | 2018 - yil | 2019 yil | 2020 -yil | 2021 yil | 2021 y. ni 2017 y. ga nisbati, % |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Andijon | 550 | 612 | 743 | 874 | 882 | 160,4 |
| 2. | Asaka | 212 | 236 | 286 | 337 | 339 | 159,9 |
| 3. | Baliqchi | 237 | 263 | 320 | 376 | 367 | 154,9 |
| 4. | Buloqboshi | 46 | 51 | 61 | 72 | 73 | 158,7 |
| 5. | Bo‘z | 49 | 54 | 66 | 77 | 78 | 159,2 |
| 6. | Jalaquduq | 214 | 237 | 288 | 339 | 341 | 159,3 |
| 7. | Izboskan | 226 | 251 | 305 | 359 | 331 | 146,5 |
| 8. | Ulug‘nor | 196 | 218 | 264 | 311 | 313 | 159,7 |
| 9. | Marxamat | 212 | 236 | 286 | 337 | 340 | 160,4 |
| 10. | Oltinko‘l | 1099 | 1221 | 1483 | 1744 | 1757 | 159,9 |
| 11. | Paxtaobod | 375 | 416 | 506 | 595 | 595 | 158,7 |
| 12. | Xo‘jaobod | 60 | 67 | 81 | 95 | 111 | 185,0 |
| 13. | Shahrixon | 504 | 559 | 679 | 799 | 789 | 156,5 |
| 14. | Qo‘rg‘ontepa | 168 | 186 | 226 | 266 | 308 | 183,3 |
| 15. | Andijon sh. | 198 | 220 | 267 | 314 | 314 | 158,6 |
| 16. | Xonobod sh. | 53 | 59 | 71 | 84 | 84 | 158,5 |
| | Jami | 4397 | 4886 | 5933 | 6980 | 7022 | 159,7 |

Yong‘oq ko‘chatlari kuzda va erta bahorda ekiladi. Ekiladigan maydoni 50-60 sm chuqurlikda plantaj so‘qa bilan haydalib, chizel qilinadi va tekislanadi. Keyin maydonda reja bo‘yicha ko‘chati ekiladi.

Ko‘chatlarini tog‘, tog‘oldi, lalmi yerlarda 10×8 va 10×10 metr sxemasida ekilish lozim. Ko‘chatlarni ekish uchun 60×60×60 santimetr hajmda chuqurlar kovlanadi. Agar mazkur talablar to‘g‘ri bajarilsa, yong‘oqning hosildorligi ham ortadi. Andijon viloyatida yong‘oq turlari bo‘yicha hosildorlik ko‘rsatkichlari tahliliga ko‘ra, baland bo‘ylik turi bo‘yicha hosildorlik 109,3 foizga o‘sgan, pakana turi bo‘yicha 2020-yilda 25,2 s/ga bo‘lsa, 2019 yilga nisbatan bu ko‘rsatkich qariyb 2,1 barobarga ortgan. Yarim pakana turi bo‘yicha 2018 -yilda 1,5 s/ga, 2019 yilda 11,1 s/ga o‘tgan yilga nisbatan 7,4

[62] O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida hisoblangan.

marta ortgan, shuningdek, 2020-yilda 22,3 s/ga bo‘lgan va bu esa 2018 -yilga qaraganda 14,9 marotaba ko‘p hosildorlikka erishilganidan dalolat beradi (2.12-jadval).

**2.12-jadval**

**Andijon viloyatida yong‘oq ko‘chati turlari bo‘yicha hosildorlik ko‘rsatkichlari**[63] (s/ga)

| T/r | Yong‘oq ko‘chati turlari | 2017 yil | 2018 -yil | 2019yil | 2020-yil | 2021 yil | 2021 y. ni 2018 y.ga nisbati, % |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Baland bo‘ylik | 64,4 | 65,8 | 67,2 | 69,1 | 69,3 | 105,0 |
| 2. | Pakana | | 2 | 12,2 | 25,2 | 25,2 | 12,6 marta |
| 3. | Yarim pakana | | 1,5 | 11,1 | 22,3 | 22,3 | 14,9 marta |
| 4. | O‘rtacha | 64,4 | 53,2 | 54,6 | 57,1 | 57,4 | 107,9 |

Barcha toifadagi xo‘jaliklar kesimida viloyatda yetishtirilgan yong‘oqning hosildorligi dehqon, fermer xo‘jaliklarida va MChJlarda ham o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan.

Xususan, 2021 yilda fermer xo‘jaliklarida hosildorlik 2016 yilga qaraganda keskin o‘sib, ya’ni 104,7 foizga ko‘p hosildorlik olingan. Shuningdek, dehqon xo‘jaliklarida ham 2016 yilga nisbatan 2021 yilda 126,1 foizga ko‘p hosildorlik ko‘rsatkichi qayd etilgan. Viloyat bo‘yicha o‘rtacha hosildorlik 114,4 foizga ortgan (2.13-jadval).

[63] O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida hisoblangan.

**2.13-jadval.**

**Viloyatda yetishtirilgan yong‘oq hosildorligi (barcha toifadagi xo‘jaliklar bo‘yicha)** *(s/ga)*[64]

| № | Xo‘jaliklar (tashkilotlar) | Yillar | | | | | 2021 y.ni 2017 y.ga nisbati, % |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | |
| 1. | Fermer xo‘jaliklari | 98,3 | 79,5 | 157,3 | 540 | 102,9 | 104,7 |
| 2. | Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari | 216,1 | 266.0 | 258,8 | 340 | 272,6 | 126,1 |
| 3. | Boshqa xo‘jaliklar | 8 | 3,4 | 3,9 | 6 | 2,4 | 30,0 |
| | Viloyat bo‘yicha o‘rtacha | 202,1 | 253,3 | 239,5 | 297,4 | 231,3 | 114,4 |

Umuman, ko‘chatini kuzda ekish yaxshi natija beradi. Yong‘oq sug‘orilmaydigan tuproqqa yaxshi nam to‘plash va mashinalardan foydalanish imkonini beradigan terrasalarga yoki suv to‘planib qolmaydigan, hajmi 1×1,5 metrdan kam bo‘lmagan maydonlarga o‘tqaziladi. Ildizi nozik bo‘ladi.

Hatto bir yoshligida ham joydan-joyga ko‘chirib o‘tkazilganda, zaiflashib o‘sadi. Nihol ko‘chatzordan olinib, quyosh yaxshi tushib turadigan ochiq joyga o‘tkazilsa, tanasining pastki qismini oftob urishi mumkin. Shuning uchun lalmi yerlarga ko‘chat o‘tqazib o‘tirmay, bir yo‘la yong‘oqning urug‘idan yetishtirish mumkin. O‘z joyida o‘stirilgan o‘simlik chuqur ildiz otib, qurg‘oqchilikka chidamli bo‘ladi.

Sug‘oriladigan yerlardagi yong‘oq daraxtlarini parvarish qilish, asosan, sug‘orishdan iboratdir. O‘sish davrida yong‘oq kamida 6-7 marta sug‘oriladi. Har bir sug‘orishdan so‘ng tuproq yumshatiladi hamda begona o‘tlardan tozalanadi.

Hosilli yong‘oqzorlarga yiliga sof holda 90-120 kilogramm azot, 60-90 kilogramm fosfor o‘g‘itlari solinadi yoki 3 yilda bir marta 30-40 tonna hisobida go‘ng solinadi. Fosforli o‘g‘itlar hamda

[64] O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida hisoblangan.

go‘ng kuzda, azotli o‘g‘itlar erta bahorda solinadi. Tog‘li-lalmi yerlarda ko‘chatlarni parvarishlashda ularni o‘g‘itlashni o‘z vaqtida amalga oshirishga e’tibor berish zarur. Ekilgan ko‘chatlarni yaxshi tutishi va o‘sishini ta’minlash maqsadida, birinchi yili har bir ko‘chatning atrofiga 4-6 kilogramm organik o‘g‘it va 60-80 gramm ammofos solish yaxshi natija beradi.

O‘sish darajasi sust yosh bog‘larga hosilga to‘liq kirguncha 1 $m^2$ ga 6-8 grammdan sof azot, 3-4 grammdan sof fosfor va 2-3 grammdan kaliy hamda 4-5 kilogrammdan organik o‘g‘it solish tavsiya qilinadi. Organik va mineral o‘g‘itlar birgalikda solinsa, o‘g‘it miqdori 1,5-2 barobar kamaytiriladi.

Mazkur agrotexnik tadbirlarning vaqtida va sifatli bajarilishi yong‘oq mevali daraxtlardan mo‘l hosil olinishini, pirovardida el dasturxoni ana shunday mahsulotlar bilan to‘kin bo‘lishini ta’minlaydi.

Yong‘oq bozori O‘zbekiston uchun nisbatan yangi bozor bo‘lib, hozirda u endi shakllanish bosqichida. Ushbu bozorning ahamiyati har yili quyidagi sabablarga ko‘ra ortib bormoqda. Birinchidan, bu qandolat, non mahsulotlari uchun resurs bazasi. Ushbu sohadagi korxonalar uchun yong‘oqni xom ashyo ko‘rinishida emas, xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlangan (qovurilgan, maydalangan va boshqa) shaklda yong‘oqni sotib olish ancha arzon. Ikkinchidan, bu chakana savdo tizimida qadoqlangan yong‘oqlarni sotishdir. Muallif tomonidan olib borilgan marketing tadqiqotlari aholining yong‘oqqa bo‘lgan talabi tez o‘sib borayotganligini ko‘rsatdi. Uchinchidan, bu qovurilgan va maydalangan yong‘oqlarning eksporti muhim ahamiyatga ega.

Har qanday rivojlanayotgan bozor singari, yong‘oq bozori oqilona va ishonchli tartibga solish usullariga muhtoj. Bizning fikrimizcha, yong‘oq bozori quyidagicha ko‘rib chiqilishi kerak:

- ishlab chiqarish omillari bo‘lgan tovarlarni almashish va taqsimlash bilan bog‘liq bozor;
- to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlab chiqarish va iste’mol qilish jarayoniga xizmat qiluvchi infratuzilma bozorlari (xizmatlar, ma’lumotlar) tizimi;

- iqtisodiyotning birlamchi, ikkilamchi va uchinchi tarmoqlari o‘rtasida aylanuv-chi turli xil iste’mol va sanoat maqsadlariga mo‘ljallangan tovarlar bozorlarining o‘zaro bog‘liq tizimi;

- mavsumiy bozorlar tizimi;

- chakana va ulgurji bozorlarning tovarlarga bo‘lgan talab va taklif shakllari, usullari va shakllari bilan farq qiluvchi ko‘p bosqichli tizimi;

- mintaqaviy viloyat (tuman) bozorlar tizimi.

Yuqorida aytilganlarning barchasi, avvalambor, ularning mahsulotlari va xizmatlariga yuqori talablar, shuningdek, ichki va tashqi bozorlarda ma’lum afzalliklarga ega bo‘lish sharti bilan tanlangan bozorlar foydasiga iqtisodiy o‘sishni va tarkibiy o‘zgarishlarni rag‘batlantiruvchi tarmoq siyosatini talab qiladi. Ammo iqtisodiyotni bozor islohotlari davridagi tarmoq siyosatiga binoan, ma’lum bozor talablariga javob bermaydigan va "ortiqcha" bo‘lib qoladigan ishlab chiqarish turlarini to‘xtatish, ularni investitsiyalash, qisqartirish muammolari mavjud.

Andijon viloyatida 1 ga yer maydonida o‘rmonzor hosil qilish uchun 56574,5 ming so‘m xarajat qilinadi. Yoqilg‘i-moylash materiallariga 2937 ming so‘m, o‘g‘it xarajatlariga 7119 ming so‘m, texnika xarajatlariga 1050 ming so‘m xarajat qilingan. 1 ga maydonga 3966 dona ko‘chat ketadi. Jami ko‘chat uchun 45296 ming so‘mlik xarajat qilingan (2.14-jadval).

**2.14-jadval.**

**Andijon viloyatida 2021 yilda bir gektar maydonda o‘rmonzor barpo qilish ko‘rsatkichlari[65]**

| | Xarajat turlari | Ekish sxemasi | Ko‘chat sarfi, bir gektarga (dona) | Bir dona ko‘chat narxi, so‘m | Jami ko‘chat narxi, ming sum | Texnika xarajati ming sumda | Sarflanadigan xarajat: 1 gektarga YoMM | | Sarflanadigan xarajat: 1 gektarga ugit | | Boshka xarajatlar, ming so‘m | Jami 1 ga sarf xarajatlar, ming, so‘m |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | mikdor kg | ming so‘m | mikdor kg | ming so‘m | | |
| 1 | Grek yongogi | 10x10 | 100 | 12000 | 1200,0 | 210,0 | 89,0 | 587,4 | 300,0 | 1423,7 | 34,6 | 3455,7 |
| 2 | Xandon Pista (1 ga uchun 2kg urug‘ ketadi) | 7x7 | 2 | 100000 | 200,0 | 210,0 | 89,0 | 587,4 | 300,0 | 1423,7 | 34,6 | 2455,7 |
| 3 | Bodom | 8x6 | 208 | 12000 | 2496,0 | 210,0 | 89,0 | 587,4 | 300,0 | 1423,7 | 34,6 | 4751,7 |
| 4 | Terak plantatsiya | 4x1 | 2500 | 5000 | 12500,0 | 210,0 | 89,0 | 587,4 | 300,0 | 1423,7 | 34,6 | 14755,7 |
| 5 | Pavlovniya plantatsiya | 3x3 | 1156 | 25000 | 28900,0 | 210,0 | 89,0 | 587,4 | 300,0 | 1423,7 | 34,6 | 31155,7 |

[65] Viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasi ma’lumotlari.

Tadqiqotlarda jarayonida bugungi kunda yong‘oqchilik sohasida yong‘oq yetishtirish bilan bog‘liq qator muammolarni aniqlash, ularni o‘rganish, tahlil qilish asosida bartaraf etish yo‘llari bo‘yicha takliflar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.Shu bois, yong‘oq yetishtirishdagi mavjud muammolarni aniqlash bo‘yicha so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, yong‘oq yetishtirishda kasallik va hashoratlarga qarshi tizimini yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi, qayta ishlash, sotish va saqlash tizimining yaxshi rivojlanmaganligi, soha sifatli ko‘chat bilan ta’minlanmaganligi kabi kamchiliklarni ta’kidlashgan. So‘rovnoma asosida mazkur muammolarni bartaraf etish bo‘yicha respondentlarning fikr va takliflaridan kelib chiqqan holda takliflar ishlab chiqilgan (2.2-rasm). Andijon viloyatida amalga oshirilgan tadqiqotlarga muvofiq, respondentlarning mos nisbatda 40 foizi kasallik va hashoratlarga qarshi kurash tizimini yo‘lga qo‘yilmaganligi, 28 foizi qayta ishlash, sotish va saqlash tizimida, 35 foizi serhosil navlarni yetishtirish va ko‘chatchilik tizimini rivojlantirish, 42 foizi mineral o‘g‘it yetkazib berish talabga javob bermasligi, 37 foizi texnik xizmat ko‘rsatish muammosining mavjudligi, 25 foizi sohada malakali mutaxassislarning yetishmasligi va 27 foizi tomonidan bugungi kunda yong‘oqchilikda agroxizmatlarni amalga oshirish uchun konsalьting markazlarining yetishmasligi kabi asosiy muammolar va kamchiliklar aniqlandi.




2.2-rasm. Yong‘oqchilik sohasidagi asosiy muammolar tizimi[65]
**(jami respondentlarga nisbatan foizda)**

[65] Muallifning ilmiy-tadqiqotlari asosida tuzilgan.

Shu bilan birga, respondentlarning 37 foizi texnik xizmat ko‘rsatish muammosining mavjudligi, 25 foizi sohada malakali mutaxassislarning yetishmasligi, 27 foizi agroxizmatlarni amalga oshirish uchun konsalьting markazlarining yetishmasligini ta’kidlab o‘tishgan.

## 2.3-§. Yong‘oq va yong‘oq mahsulotlarini sotish hamda qayta ishlashning hozirgi holati

Ma’lumki, bozorlarda yong‘oq narxining shakllanishiga bir qancha omillar bevosita ta’sir qiladi. Birinchidan, ishlab chiqarish xarajatlari hamda mavjud bozor sig‘imi, ya’ni ishlab chiqaruvchilar tomonidan taklifning ko‘payishi yoki bozor bahosiga tez ta’sir qiluvchi omildir.

Ikkinchidan, xaridorlar didi, ya’ni xarid vaqtida iste’molchi bir xil turdagi mahsulotlar ichidan boshqalaridan afzal bo‘lgan mahsulotni sotib olishni istaydi. Buning natijasida muayyan bozordagi shu mahsulotning iste’mol bahosi shakllanadi va talabning asosida o‘zgaradi. Shu sababli, yong‘oqning yangi navlarining yaratilishi va ulardan olinadigan sifatli, ekologik toza mahsulotlar ham, o‘z navbatida, ular narxining shakllanishi va jozibadorligining oshishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Uchinchidan, iste’molchilar daromadi, shuningdek, ular o‘z daromadining qancha qismini oziq-ovqat tovarlariga, xususan, yong‘oq mahsulotlarini xarid qilishga sarflashi ham bozor baholariga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

To‘rtinchidan, kuchli raqobat sharoitida mahsulot xarid qiluvchi ko‘proq uning tashqi ko‘rinishi, mag‘zining rangi va saqlanish texnologiyasiga katta e’tibor qaratishi ham narx shakllanishiga ta’sir qiladi. Umuman olganda, ushbu qayd etilgan va boshqa omillarning barchasi bevosita marketing tizimi doirasida vujudga keladigan munosabatlarda o‘z aksini topadi.

Biroq ta’kidlash lozimki, yong‘oq mahsulotlarini sotib olish uchun iste’molchilar taklif etadigan narxlar negizida tovarlarni

saqlash, tashish va sotish bilan bog'liq bo'lgan sarflar ham yotadi. Shu bois, faqatgina ishlab chiqarish xarajatlariga e'tibor qaratish bilan yong'oqqa bozor bahosi shakllanishi bo'yicha xulosa chiqarish maqsadga muvofiq emas. Zotan, erkin bozor baholari talab va taklifning o'zaro muvozanati natijasida shakllanadi, biroq hech bir ishlab chiqaruvchi zarariga, ya'ni ishlab chiqarish xarajatlari to'liq qoplanmaydigan baholarda sotmaydi. Aksariyat ishlab chiqaruvchilar o'z mahsulotlarini yong'oq pishib yetilgan vaqtda ulgurji narxlarda sotishni afzal ko'radi. Vaholanki, yong'oq narxlarining mavsumiy o'zgarishidan ishlab chiqaruvchilar manfaatdorligi yuqori darajada emas. Natijada iste'molchi to'lagan narxlarning o'rtacha 50-60 foizigina ishlab chiqaruvchilarga, qolgan qismi esa vositachilar ixtiyorida qoladi.

Mazkur holatlar odatda yong'oq plantatsiyalari, intensiv asosda yong'oq yetishtiruvchi xo'jaliklar uchun amal qiladi. Shu bilan birgalikda, dehqon xo'jaliklarida yong'oq yetishtirishda xarajatlar umuman mavjud emasdek taassurot uyg'otadi. Ya'ni 15-20 yil oldin ekilgan yong'oq yoki yavvoyi holda o'suvchi yong'oq mevasini yig'ib olish orqali bozorga taklif etiladi. Bunday sharoitda esa, bazor bahosini talab va taklif belgilashi, xarajatlar hamda foyda kabi elementlarning e'tiborga olinmasligi tabiiy holat sanaladi.

Ammo, nazariy jihatdan yong'oq daraxtining egallagan yer maydoni hamda shu yerdan olinishi mumkin bo'lgan mahsulotning bozor bahosidagi qiymati xarajat, yoki yo'qotilgan mablag' sifatida qaralashi mumkin. Shu bilan birgalikda, mevani yig'ib olish xarajatlari, saqlash va sotish xarajatlari ham e'tiborga olinishi lozim.

Amaliyotda dehqon xo'jaliklarining son jihatdan ko'pligi va umumiy ishlab chiqarish hajmida ularning ulushi nisbatan yuqoriligi sababli ular-da yetishtiriladigan mahsulotlarning katta qismi vositachilar orqali iste'-molchilarga yetkazilib beriladi. Iste'molchilar va dehqon xo'jaliklarini o'zaro bog'lab turuvchi vositachilarning shakllanishiga ko'proq quyidagi omil-lar ta'sir qiladi:

- erkin bozor uchun mahsulot ishlab chiqarishda dehqon xo'jaliklarida real vaqt rejimida talab va taklif, baho kabi axborotlarning mavjud emasligi;

- kichik hajmdagi (o‘rtacha 100-200 kg) mahsulotlarni chakana bozorlarda sotish xarajatlarining yuqoriligi;

- yuridik maqomga ega bo‘lmagan dehqon xo‘jaliklarining bank kredit-laridan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi sababli ular dastlabki sarmoyani vositachilardan olishni afzal ko‘rishlari;

- kichik hajmli mahsulotni shartnoma orqali sotishga nisbatan naqd pulga sotish dehqon xo‘jaliklari uchun manfaatli hisoblanganligi;

- yetishtirilgan mahsulotlarni yig‘ishtirib olish ko‘p vaqt va mehnat talab qilishi ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri iste’molchilarga yetkazib berish imkonini cheklaydi.

Aslida, bozordagi barcha ishtirokchi sub’ektlar o‘rtasida mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, ularning geografiyasi, shuningdek, sotish kanallari va ularning sig‘imi to‘g‘risida mahsulotlar harakati va axborot oqimini muvofiqlashtiruvchi yaxlit tizim yaratish maqsadga muvofiq. Monografik kuzatuv natijalariga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorlarida “vositachilar” soni va faoliyatining tez rivojlanishi aksariyat hollarda aynan ishlab chiqaruvchilarda iste’molchilar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa va axborotlarning yo‘qligi ham sabab bo‘lmoqda.

Binobarin, ishlab chiqaruvchilarni bozorlardagi talab va taklif muvozanati, narxlar darajasi, vositachilar soni, kimligi, to‘lov qobiliyati, faoliyat ko‘rsatish davri va samaradorligi kabi omillarga bog‘liq axborotlar bilan ta’minlash tizimini yaratish muhim ahamiyatga ega. Hozirgi mavjud tizim ishlab chiqaruvchilardan ko‘ra ko‘proq vositachilar manfaatlari uchun xizmat qilayotganini e’tirof etish joizdir. Masalan, ulgurji vositachilar bozorlarga mahsulotlar turini o‘zlari uchun maqbul narx va muddatda iste’mol kanallariga chiqarishadi. Afsuski, bu jarayonda olingan marjinal foydada ishlab chiqaruvchining ulushi hisobga olinmaydi. Chunki, ular o‘zining mahsuloti qaysi bozorda va qanday narxlarda sotilganligini aniq bilmaydi.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi, yangi boshqaruv va ishlab chiqarish tizimlarining joriy etilishi hamda sohaga oid ilm va fanning innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda

takomillashib borishi natijasida ichki va tashqi bozorda yong'oq yetishtirish va uni samarali sotish tizimini tashkil etishni takomillashtirish dolzarb vazifalardan biriga aylanib bormoqda.

Ushbu masalaning nazariy asoslari va sabab-oqibat munosabatlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, so'nggi yillarda bir qator islohotlar natijasida ichki va tashqi bozorda samarali sotish tizimini tashkil etishning ob'ektiv zaruriyati ortib bormoqda (2.3-rasm).




**2.3-rasm. Yong'oqni ichki va tashqi bozorda samarali sotish tizimini tashkil etishning ob'ektiv zaruriyatini keltirib chiqaruvchi holatlar[66]**

[66] Muallifning ilmiy-tadqiqotlari asosida tuzilgan.

Jumladan:

-iqlim o‘zgarishlari ta’sirida mavsumiy omillarning bozorlarga ta’-sirini o‘rganish zaruratining ortishi. Ma’lumki, global iqlim o‘zgarishi ta’siri bog‘dorchilik, xususan, yong‘oq yetishtirishga salbiy ta’siri yuqori bo‘lib, u yong‘oqning gullash va changlanish mavsumida yog‘ingarchilikning uzoq yillik o‘rtacha ko‘rsatkichidan ortishi, shu bilan birgalikda bahor mavsumida anomal sovuq haroratlarining kuzatilishi sohaga alohida yondashuvlarni talab etmoqda;

- yong‘oq yetishtirishda dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining ulushi yuqo-riligi, ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi kichikligi va o‘zaro muvofiqlashmaganligi bois, sohada talab va taklifni bashorat qilish amaliyoti mavjud emasligi natijasida bozorlarda keskin tebranishlarning kuzatilishi;

-baho shakllanishida sotish kanallarining ta’siri yuqoriligi bois, dehqon va iste’molchining bevosita aloqasidagi uzulishlar mavjudligi. Ya’ni, dehqon xo‘jaliklari odatda ishlab chiqarish hajmi kichikligi bois, vositachi xaridorlarga ulgurji baholarda sotishni ma’qul ko‘radilar. Bu esa yakuniy is’temolchilar bilan o‘zaro aloqalarning uzulishiga olib keladi va zamonaviy bozor metodlariga moslashishiga sabliy ta’sir ko‘rsatadi;

-qayta ishlovchilar va dehqonlar bilan buyurtma asosida ishlash tizi-mining samarasiz faoliyat yuritishi. Mamlakatimizda qandolatchilik, tib-biyot kabi sohalarning barqaror rivojlanib borayotganligi, yong‘oq va uning mag‘iziga bo‘lgan talabni shakllantirmoqda. Ammo, dehqon xo‘jaliklarining xo‘jalik yuritish shakli, ishlab chiqarish hajmi hamda tarqoq joylashuvi qayta ishlovchi sanoat korxonalari bilan shartnoma, buyurtma asosida ishlashida qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi;

-eksportga berilayotgan imkoniyatlar ta’sirida tashqi bozorlar talab va takliflariga moslashish va raqobatbardoshlik masalalari zamonaviy yong‘oqchilik sohasida ishlab chiqarish faoliyatini yangilab borishni taqozo etadi;

-mamlakatimizning JSTga a’zo bo‘lish natijasida agrar bozorda kuchli raqobatning yuzaga kelish ehtimoli mavjudligi, sohani rivojlantirishda zamonaviy marketing tadqiqotlarini yuritilishi;

- yangi savdo kanallari, raqamli platformalar, mobil shahobchalarning rivojlanib borayotganligi innovatsion ishlanmalar rivojlanishi fonida tashqi bozorda zamonaviy tadqiqotlar olib borish zaruriyatga aylanib borishi va h.k.

Ammo, yong'oqni ichki va tashqi bozorda samarali sotish tizimini tashkil etishga bir qator omillar ta'sir ko'rsatib, ularning holati yong'oq bozorining rivojlanishida namoyon bo'ladi. Jumladan, yong'oq ishlab chiqaruvchilar soni, ishlab chiqarish hajmi, ularning hududiy joylashuvi, xo'jalik yuritish shakli yong'oq bozoriga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar sanaladi (2.4-rasm).




**2.4-rasm. Yong'oqni ichki va tashqi bozorda samarali sotish tizimini tashkil etishga ta'sir etuvchi omillar**[67]

Shuningdek, iqtisodiy nuqtai-nazaridan aholi daromadi, yong'oq bahosining tebranishi, talab va taklifning o'zgarishi, bozor

[67] Муаллифнинг илмий-тадқиқотлари асосида тузилган.

konъyukturasi ham soha rivojlanishida salmoqli ta'sir doirasiga ega omillar hisoblanadi.

Undan tashqari, mahalliy yong'oq navi, yangi navlarning kirib kelishi va targ'iboti, ilmiy sohaning rivojlanishi hamda eksport va import qonunchiligi, imtiyozlar tizimi, tashqi bozorlardagi talablar va standartlar ham yong'oqni ichki hamda tashqi bozorda samarali sotish tizimini tashkil etishga ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, yong'oq va yong'oq mahsulotlarining ichki va tashqi bozorda samarali sotish tizimini tashkil etishning ilmiy asoslari globallashuv sharoitida tez o'zgarib bormoqda hamda unga moslashish bozor segmentidagi barcha ishtirokchilarni ilmiy asoslangan holda ishlab chiqarishni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Ammo, mahsulot yetishtiruvchilar faoliyatlarini va ularga oid ma'lumotlarni muvofiqlashtirish, amalga oshirilayotgan tadbirlar natijadorligini ta'minlashda ishtirok etuvchi sub'ektlarning yagona, tizimlashganligi raqamli iqtisodiyot rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda dolzarb sanalib, bunda davlat va nodavlat boshqaruv tuzilmalari, ijro organlari faoliyatini tizimlashtirish muhim sanaladi.

Mamlakatimizda yong'oqni ichki va tashqi bozorda samarali sotish tizimini tashkil etuvchi tuzilmalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ular davlat boshqaruv organlarida Qishloq xo'jaligi vazirligi, Eksportni qo'llab-quvvatlash agentligi, shuningdek, nodavlat-notijorat institutlar, xususan, Yong'oq yetishtiruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasi, meva-sabzavotchilik birlashmalari, hududda faoliyat yuritayotgan agrofirmalar tashkiliy hamda iqtisodiy tomondan ko'maklashadi (2.5-rasm).

Shuningdek, so'nggi yillarda o'zini-o'zi boshqarish organlari, jumladan, mahallalarga alohida e'tibor qaratilayotgan bo'lib, mahallalardagi tadbirkorlik sub'ektlariga iqtisodiy jihatdan ko'maklashish maqsadida joriy etilgan hokim yordamchilari hamda yoshlarni ko'llab-quvvatlash maqsadida yoshlar yetakchilari ham hududdagi yong'oq yetishtiruvchi xo'jaliklar tomonidan yetishtirilgan mahsulotni ichki va tashqi bozorda samarali sotish tizimini tashkil etishlari mumkin.

Yong‘oq yetishtirish hamda uni sotish faoliyati samaradorligini oshirish bilan bog‘liq marketing tadqiqotlarida faqatgina ishlab chiqarish hajmiga emas, balki yetishtirish hamda sotish jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga ham e’tibor qaratishni talab qiladi.




**2.5-rasm. Yong‘oqni ichki va tashqi bozorda samarali sotish tizimini tashkil etuvchi tuzilmalar[68]**

Bozor munosabatlari sharoitida aholi turmush farovonligini oshirish, iste’mol talabidan kelib chiqqan holda tovar va xizmatlar ishlab chiqarish, xususan, yong‘oq ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilarning moddiy manfaatlarini yagona maqsad va yaxlit bir tizim doirasida uyg‘unlashtirish hamda rivojlantirish strategik ahamiyat kasb etuvchi ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Shu nuqtai-nazardan ham aholini sifatli, organik yong‘oq va yong‘oq mahsulotlari va ularni qayta ishlash asosida olinadigan tayyor iste’mol tovarlari bilan yil davomida ta’minlash, shuningdek, mahsulot turiga mos bozor segmentlarini aniqlash va ular salohiyatlaridan to‘liq foydalanish o‘z navbatida, marketing

[68] Muallifning ilmiy-tadqiqotlari asosida tuzilgan.

tadqiqotlarining istiqbolli yo‘nalishlarini tanlash va ularni bajarish jarayonida olingan muhim natijalarni amaliyotga intensiv joriy etishni taqozo etadi.

Yong‘oq yetishtirish va uni sotish tizimini barqaror rivojlantirishning ob’ektiv zaruriyati marketing xizmatlari ko‘rsatuvchi sub’ektlar faoliyatini tashkil etish, boshqarish va rag‘batlantirishni taqozo etadi.

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, mamlakatimizda yong‘oq yetishtiruvchilar-da marketing muammolari yechimlari yuzasidan tahliliy-tadqiqot ishlari olib boruvchi maxsus ixtisoslashgan muassasalar mavjud emas. Amaliyotda xo‘jaliklar o‘zlari marketingning eng sodda usullaridan foydalanib bozorlarda o‘z faoliyatlarini tashkil etish yo‘llarini tahlil etadi va xulosalarni shakllantiradi. Davlat idoralari funksiyalarida ham marketing tadqiqotlari olib borish vazifasi nazarda tutilgan bo‘lsada, ammo amaliyotda ular bu masalaga yetarlicha e’tibor qaratishmaydi.

Shu bois, istiqbolda yong‘oqni ichki va tashqi bozorda samarali sotish tizimini (zamonaviy marketing usullarini) tashkil etish orqali aholi daromadini oshirishdagi agrar siyosat quyidagi asosiy yo‘nalishlardagi tadbirlarni qamrab olishi maqsadga muvofiq, jumladan:

– yong‘oq yetishtirish va uni qayta ishlash hamda sotish sohalariga investitsiyalar jalb qilinishini rag‘batlantirish, mos ravishda tarmoqqa xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish va bunda zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy qilish;

– yong‘oq yetishtirish, sotish sohalariga moddiy-texnik resurslar bilan ta’minlash, zamonaviy texnika va texnologiyalar importini rag‘batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish;

– yong‘oq yetishtirishda agrar fani yutuqlari hamda ilg‘or agrotexnologiyalarni joriy etish tadbirlari bilan birga, tarmoqqa turli marketing xizmatlarini ko‘rsatish sohasini rivojlantirishni qamrab oluvchi kompleks dasturlarni amalga oshirish;

– marketing xizmatlari ko‘rsatuvchi sub’ektlarni tashkil etishda hududiy ixtisoslashuvni hisobga olish zarur;

– hosildorligi yuqori yangi yong‘oq navlariga ega bo‘lish, yetishtirilgan yong‘oqlarni sotish borasidagi axborot ta’minoti imkoniyatlarini hisobga olish;

– marketing xizmatlari ko‘rsatuvchilar iqtisodiy barqarorligini ta’minlash, samarali rag‘batlantirish dastaklarini joriy qilishda hududlarda yong‘oq plantatsiyalarining tarqoqligi va geografik jihatdan bozorlarga, xizmat ko‘rsatish markazlariga nisbatan turli masofalarda joylashganligini hisobga olish;

– marketing xizmatlari bozorida sog‘lom iqtisodiy raqobatni rivojlantirishda tarmoq ixtisoslashuvi va hududda yetishtirilayotgan yong‘oq hajmi hamda xo‘jalik yuritish shakllari o‘zgarishlarni hisobga olib, xizmatlar assortimentini kengaytirishda ilmiy hajmdor murakkab ishlanmalar hamda texnologiyalarga asoslanadigan maxsus xizmatlarni rivojlantirish;

– yong‘oq mahsulotlarini ishlab chiqarish zichligi kam hududlarda mahsulot sotuvchi sub’ektlar faoliyatidagi muammolar, ishlab chiqaruvchiga ham, xizmat ko‘rsatuvchiga ham moliyaviy xavf-xatarlar vujudga keltirishini infratuzilma sub’ektlarini rivojlantirishda hisobga olish;

– yong‘oq yetishtirishda marketing xizmatlari ko‘rsatuvchi sub’ektlarni tashkil etishda ishlab chiqaruvchilarning erkin iqtisodiy faoliyati uchun yaratilgan sharoitlar va boshqaruv idoralarining xo‘jaliklar faoliyatiga ma’muriy aralashuvi qanday darajada ekanligini e’tiborga olish;

– yong‘oqchilik sohasi rivojlangan davlatlarning ilmiy markazlari bilan hamkorlikda xizmatlar ko‘rsatish sohalarini rivojlantirishda autsorsing tizimidan samarali foydalanish orqali xizmatlar sifatini oshirish;

– yong‘oqni dastlabki qayta ishlash, savdo shaxobchalariga yetkazish uchun transport vositalari, uskunalar bilan ta’minlashda lizing xizmatlari ko‘lamini kengaytirish yoki ushbu xizmatlarni ko‘rsatuvchi sub’ektlar tizimini rivojlantirish;

– respublika hududlari doirasidagi bozorlar sig‘imi (yil davomida va mavsumlar bo‘yicha) hisob-kitoblari asosida yong‘oq yetishtirish hajmlarini rejalashtirish (mahsulot ishlab chiqaruvchilar uchun hududiy kvotalar tizimini joriy qilish);

– yirik ulgurji va chakana dehqon bozorlari hududlarida yong'oqni mo'tadil saqlash imkoniyatini beruvchi zamonaviy texnik uskunalar va texno-logiyalar bilan jihozlangan energiya tejamkor quvvatlarini barpo qilish va b;

Umuman olganda, yong'oq yetishtirish va sotish borasida zamonaviy marketing tamoyillari va usullariga bog'liq bilimlarni tarqatish, ishlab chiqaruvchi sub'ektlarga erkin bozor sharoitida samarali faoliyat yuritishlari uchun uslubiy-amaliy yordam berish, ilm-fan natijalarini joriy qilish yo'llarini asoslab berish istiqbolda ushbu muhim sohaning ishlab chiqarish va eksport salohiyatidan samarali foydalanishga yordam beradi. Tadqiqotlar davomida Andijon viloyatida yetishtirilgan yong'oqlarni sotish kanallari tahlil etildi. Unga ko'ra, 2016 yilda jami yetishtirilgan yong'oqning 33,4 foizi dehqon bozorlarida sotilgan bo'lsa, 15,5 foizi supermarketlar yoki do'konlarda, 21,7 foizi tashkil etilgan turli yarmarkalarda, 12,8 foizi ko'chma savdo do'konlarida va 16,6 foizi xo'jalik dalasida sotilgan (2.15-jadval).

**2.15-jadval.**

**Andijon viloyatida yetishtirilgan yong'oqning sotish kanallari tahlili, %[69]**

| Sotish kanallari | Yillar | | | | | 2021 y.ni 2017 y.ga nisbati, % |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | |
| Dehqon bozorlarida | 33,2 | 33,4 | 31,9 | 35,7 | 34 | 102,4 |
| Supermarketlar yoki do'konlar | 15 | 15,5 | 16,8 | 15,2 | 15,5 | 103,3 |
| Yarmarkalarda | 22 | 21,7 | 20,4 | 23,5 | 22,3 | 101,4 |
| Ko'chma savdo do'konlarida | 15,2 | 12,8 | 12,1 | 10,5 | 13,2 | 86,8 |
| Xo'jalik dalasida | 14,6 | 16,6 | 18,8 | 15,1 | 15 | 102,7 |

Andijon viloyati tumanlaridagi shirinliklar sexiga 1 kg grek yong'og'i 27 ming so'mdan taklif etilmoqda. Bu mahsulotning baho

[69] Viloyat qishloq xo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

shakllanish zanjiriga ahamiyat qaratadigan bo‘lsak, dehqon xo‘jaliklaridan 19 ming so‘mdan yong‘oq xarid qilinib, sexlar o‘zining 8 ming so‘mlik qo‘shimcha qiymatini qo‘shgan holda, 1 kg 27 ming so‘mdan sotishmoqda. Bunda xo‘jalik kichik hajmli va doimiy xaridorga ega bo‘lsa, sexlarga grek yong‘og‘ini iste'molchilar xohish va istaklari doirasida taklif etish orqali daromadga ega bo‘lmoqda (2.6-rasm).

Ikkinchi yo‘nalishda esa, tadqiqot o‘tkazilgan hududlardagi bozorlarda yong‘oq narxi shakllanishida asosan ishlab chiqaruvchilar hamda xaridorlar o‘rtasidagi “norasmiy vositachi”larning mavjudligi, yong‘oq narxini o‘rta hisobda har bir bosqichda 25-30 foizgacha qimmatlashib borishiga zamin yaratmoqda.

Tadqiqotlarga asoslangan holda ta’kidlash lozimki, bugungi kunda dehqon xo‘jaliklarida yetishtirilgan yong‘oq iste’molchi dasturxoniga borib yetgunga qadar 3-4 bosqichda qo‘ldan-qo‘lga o‘tib, yetib bormoqda. Dehqon xo‘jaliklaridan 25000 so‘mlik ulgurji baholarda xarid qilingan yong‘oq dehqon bozorlaridagi chakana tadbirkorlarga (savdogarlarga) yetkazib berilmoqda. Ularning 8000 so‘mlik qo‘shilgan qiymati natijasida bozor bahosi sifatida 33000 so‘mlik baho shakllanmoqda.




**2.6-rasm. Andijon viloyatining tumanlarida yong'oqni istemolchilarga yetkazib berishda bahoning shakllanishi[70]**

Bugungi kunda yong'oq va yong'oq mahsulotlarini sotish bilan birga qayta ishlash ham muhim jarayon hisoblanadi. Andijon viloyati tumanlari kesimida 2021 yilda yong'oq qayta ishlash hajmi 838 tonnani tashkil etib, bu 2020-yilga nisbatan 117,7 %, 2017 yilga qaraganda esa 186,2 foizga oshgan (2.16-jadval).

70 Monografik tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

**2.16-jadval.**

**Andijon viloyati bo‘yicha yong‘oqni qayta ishlash hajmi,** tonna[71]

| № | Tumanlar | 2017 yil | 2018 -yil | 2019 yil | 2020 yil | 2021 yil | 2021 yilni 2017 yilga nisbati, % |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Andijon | 53 | 66 | 73 | 89 | 105 | 197,2 |
| 2 | Asaka | 20 | 25 | 28 | 34 | 40 | 204,1 |
| 3 | Baliqchi | 25 | 28 | 32 | 38 | 45 | 179,2 |
| 4 | Buloqboshi | 5 | 5 | 6 | 7 | 9 | 188,3 |
| 5 | Bo‘z | 5 | 6 | 6 | 8 | 9 | 193,1 |
| 6 | Jalaquduq | 23 | 26 | 28 | 35 | 41 | 176,7 |
| 7 | Izbosgan | 24 | 27 | 30 | 37 | 43 | 178,6 |
| 8 | Ulug‘nor | 22 | 24 | 26 | 32 | 37 | 168,1 |
| 9 | Marhamat | 23 | 25 | 28 | 34 | 40 | 176,3 |
| 10 | Oltinko‘l | 108 | 132 | 147 | 178 | 209 | 193,6 |
| 11 | Paxtaobod | 40 | 45 | 50 | 61 | 71 | 177,1 |
| 12 | Xo‘jaobod | 8 | 7 | 8 | 10 | 11 | 146,2 |
| 13 | Shaxrixon | 54 | 60 | 67 | 82 | 96 | 178,0 |
| 14 | Qo‘rg‘ontepa | 16 | 20 | 22 | 27 | 32 | 204,8 |
| 15 | Andijon sh. | 20 | 24 | 26 | 32 | 38 | 192,5 |
| 16 | Xonobod sh. | 4 | 6 | 7 | 9 | 10 | 227,3 |
|  | **Jami** | **450** | **528** | **586** | **712** | **838** | **186,2** |

Viloyatda yong‘oqni qayta ishlash xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak, fermer xo‘jaliklarida qayta ishlash hajmi 199,8 % yoki 2 barobarga ortgan. Dehqon xo‘jaliklarida esa mazkur ko‘rsatkich qariyb 1,7 marotabaga o‘sishga erishgan. Ko‘rinib turibdiki, viloyatda yong‘oqni qayta ishlash tizimi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan (2.17-jadval).

71 O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida hisoblangan.

**2.17-jadval**

**Viloyatda yong'oqni qayta ishlash hajmi,** tonna[72]

| № | Xo'jaliklar (tashkilotlar) | 2017 yil | 2018 -yil | 2019 yil | 2020-yil | 2021 yil | 2021 yilni 2017 yilga nisbati, % |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Fermer xo'jaliklari | 264 | 317 | 358 | 441 | 528 | 199,8 |
| 2 | Dehqon xo'jaliklari | 185 | 211 | 229 | 271 | 310 | 167,1 |
| **Viloyat bo'yicha jami** | | **449** | **528** | **587** | **712** | **838** | **186,3** |

Yong'oq yetishtirish va sotish jarayonlarini tahlil qilganda, birinchi navbatda mahsulotning bozordagi bahosi o'zgarishini kuzatish maqsadga muvofiq. 1 kg yong'oqning bozordagi bahosi yilma-yil o'zgarib, tebranib turganligini kuzatamiz.

2016-2017 yillarda narx ko'tarilgan, 2018 va 2020-yilda ozgina tushib keyin 2021 yilda pandemiyaning hisobiga sezilarli oshgan. 2016 yilga nisbatan 2021 yilda yong'oqning bahosi 158,4 foizga yoki 1,6 marotaba ko'tarilgan (2.18-jadval).

**2.18-jadval**

**Yong'oq yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi, so'm**[73]

| Ko'rsatkichlar | Yillar | | | | | | 2021 y. 2016 y., % |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | |
| 1 kg yong'oqning dehqon bozorlaridagi o'rtacha narxi | 12354 | 16813 | 15666 | 18978 | 17263 | 19569 | 158,4 |

72 O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

73 O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

Umuman olganda, yong‘oq va yong‘oq mahsulotlarini sotish tizimida zamonaviy marketing usullarini qo‘llash, mahsulotni qayta ishlash, iste’molchiga sifatli hamda organik mahsulotni yetkazib berish bugungi barqaror rivojlanishning asosiy sharti hisoblanadi.

## IKKINChI BOB BO‘YIChA XULOSALAR

Mustaqillikdan keyingi iqtisodiy islohotlarning soha rivojiga oid dastlabki davri 1990-2002 yillarni, ikkinchi bosqich 2003-2016 yillarni, 3-bosqich sifatida 2017 yildan keyingi yillarni o‘z ichiga qamrab oladi. Mazkur oxirgi uchinchi davr bosqichida sohada tezkor o‘zgarishlar va islohotlar amalga oshirilib, zamonaviy resurs tejamkor texnologiyalar va intensiv usullar yordamida yong‘oq ishlab chiqarish hajmi ortib bormoqda.

2021 yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasida (2,4 marta), Andijon (2,1 marta), Buxoro (4,9 marta), Jizzax (1,94 marta), Navoiy (2,02 marta), Toshkent (1,9 marta) Namangan (1,8 marta), va Farg‘ona viloyatida (2,39marta) yong‘oq yetishtirish hajmi yuqori ulushga teng bo‘lgan. Shuningdek, Qashqadaryo (30,8 %), Samarqand (82,3%) va Surxondaryo (46,2%) viloyatlarida yong‘oq yetishtirish hajmi pasaygan.

Barcha toifadagi xo‘jaliklar kesimida tahliliga nazar solsak, asosan yong‘oq ishlab chiqarish salmog‘i dehqon xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda, ya’ni 2017 yilda 60217 tonna yetishtirilgan bo‘lsa, 2021 yilga kelib 74648 tonna yoki 124,0 foizga ko‘p yetishtirilganini ko‘rish mumkin. 2021 yilda yetishtirilgan jami yong‘oq hosilining 94,1 foizi dehqon xo‘jaliklari hissa-siga to‘g‘ri keladi. 2021 yilda 2017 yilga nisbatan fermer xo‘jaliklarida yong‘oq yetishtirish 92,1 foizga kamaygan.

O‘zbekistonda yong‘oq, funduk, bodom, pista kabi talab yuqori bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish natijasida iste’molchi-larning bir qismi transport xarajatlarini tejash hisobiga yong‘oqni nisba-tan past narxlarda sotib olishmoqda. Umuman olganda, mamlakatimizda yong‘oq yetishtirishni klaster usulida tashkil etish qayta ishlash sanoatini xom ashyoga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlash imkoniyatini kengaytiradi.

Tadqiqot o‘tkazilgan hududlardagi bozorlarda yong‘oq narxi shakllani-shida asosan ishlab chiqaruvchilar hamda xaridorlar o‘rtasidagi “norasmiy vositachi”larning mavjudligi yong‘oq narxini o‘rta hisobda har bir bosqichda 25-30 foizgacha qimmatlashib borishiga zamin yaratmoqda.

Yong‘oq va yong‘oq mahsulotlarini vending tizimi asosida sotishni tashkil etish; yong‘oq va yong‘oq mahsulotlarini chakana savdo shaxobchalariga bevosita yetkazib berish; yong‘oq va yong‘oq mahsulotlari “ko‘chma savdosi”ni tashkil etish; yong‘oq va yong‘oq mahsulotlari sotuvini “ishlab chiqaruvchilar- sotuvchilar-iste’molchilar” kooperativlarini tashkil etish asosida sotishni tashkil etish; logistik markazlar xizmatidan foydalangan holda sotishni tashkil etish; qishloq xo‘jaligi mahsulotlari portalini tashkil etish va boshqalar.

Andijon viloyati tumanlarida o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqot hamda monografik kuzatuvlarga ko‘ra, xo‘jaliklarda huquqiy bilimga ega bo‘lishlari uchun maxsus o‘quv kurslarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

# III-BOB. YONG‘OQ YETISHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

## 3.1. Yong‘oq yetishtirish va qayta ishlash sohasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari

Yong‘oq qimmatli oziq-ovqat mahsuloti bo‘lib, yetishtirish texnologiya-siga rioya qilinganda iste’molning ekologik xavfsizligi ta’minlanadi, iste’molchilar uchun jozibadorligi oshadi.

Yong‘oq yetishtirishi va sotish hamda qayta ishlash sohalarida investitsion faoliyatni rivojlantirish uchun quyidagi xususiyatlarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, yirik ishlab chiqarish zaxiralarini yaratish zarur, chunki zaxirani to‘ldirish ularni qayta ishlash muddatlariga mos kelmaydi. Bu O‘zbekistonda yong‘ok yetishtirishning mavsumiy xarakteri yoki xom ashyo importining davriyligiga bog‘liq.

Shu bois, yong‘oq yetishtirish, sotish hamda qayta ishlash sohalarida investitsion strategiyani ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Bu esa, savdo aloqalarining rivojlanishi milliy tovarlar, jumladan yong‘oq eksportini kengaytiradi. Mahsulot ishlab chiqarish va uni qadoqlashda jahon standartlarigi rioya qilish tashqi bozordagi talabning oshishiga raqobatdardoshligiga yo‘l ochib beradi (3.1-rasm).

Yong‘oqning eng yirik iste’molchisi qandolat sanoati hisoblanadi. Hozirda ko‘plab qandolat sanoati korxonalari 70-75% gacha (sotib olish xarajatlariga nisbatan) import xom ashyo ishlatadi. Ular tarkibiga kakao-boblar, yong‘oqlar, qadoqlash materiallari kiradi. O‘zbekistonda yong‘oq yetishtirish hamda uni qayta ishlash hajmi oshganda qandolat sanoatiga barqaror kooperatsiya aloqalari orqali ta’minot imkoniyatlari kengayadi.

Yong‘oq ishlab chiqarishda raqobatbardoshlikni oshirishning sharti import xom ashyo qiymatini hisobga olib mahsulotga narx belgilash hisoblanadi.




**3.1-rasm. Yong'oq yetishtirish va uni qayta ishlash sohasida investitsion faoliyatni rivojlantirish yo'nalishlar**

Shuning uchun, investitsion strategiyani amalga oshirishda moddiy va moliyaviy oqimlarni konsentratsiyalash butun texnologik zanjir bo'ylab hamkorlar bilan mustahkam aloqalarni ta'minlashni talab qiladi.

Yong'oq ishlab chiqarish va qayta ishlashda integratsiyalashgan tuzilmalar sxemasi taklif etiladi (3.2-rasm). Bu tuzilmaning asosiy bo'g'ini qayta ishlovchi bo'lib, u mazkur tuzilma barcha ishtirokchilarining ushbu yo'nalishdagi faoliyatlarini belgilaydi.

Integratsiyalashgan tuzilmaga moliyaviy jihatdan barqaror bo'lgan tashkilotlar boshqa ishtirokchilarga zarar keltirmagan holda kirishi mumkin. Amalda bunday tashkilotlar ayniqsa qishloq xo'jaligida kamligi sababli, turli shakllarda oldindan sanatsiya qilish

zarur, jumladan kelajakda olinadigan hosil uchun kredit berish, ijara munosabatlarini rasmiylashtirish, yong'oq yetishtirish, yig'ish va boshqalar uchun shartnoma tuzish.




**3.2.-rasm. Klaster tizimiga asoslangan yong'oq yetishtirish va uni qayta ishlashning integratsiyalashgan tuzilma prinsipal sxemasi[74]**

Yong'oq yetishtirish hajmini oshirish va yetkazib berish geografiyasini kengaytirish integratsiyalashgan tuzilmaga mustaqil birlik – tashishni tashkil etuvchi kompaniyaning qo'shilishiga turtki bo'lishi mumkin. Bu esa, tavakkalchilikni pasaytirishga imkon beradi. Chunki har bir sub'ekt buyurtmalar portfeliga asosan asosiy faoliyat turini bajaradi.

Shu bilan bir vaqtda tuzilmani tashkil etuvchi korxona har bir hamkorning moliyaviy holatini hisobga olishi zarur. Bu moliyaviy va moddiy oqimlar o'rtasidagi optimal nisbatni topish maqsadida ichki

[74] Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.

hisob kitoblarni amalga oshirish, tovar kreditlarining shakli va masshtablarini baholash uchun zarur.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirishning imtiyozli soliq rejimi joriy qilinishi mumkin boʻlgan xoʻjalik tarmoqlari kompleksi tarkibiga sanoat, transport, qishloq xoʻjaligi, savdo va boshqalar kiradi.

Yongʻoq yetishtirish va uni qayta ishlash yuzasidan integratsiyalashgan sxemasini yaratishda investitsion strategiyani amalga oshirishning imtiyozlaridan foydalanish imkoniyatlari saqlanib qoladi. Yongʻoq kompleksida investitsiya siyosatining asosiy yoʻnalishlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Importning oʻrnini bosish maqsadida Oʻzbekistonning yongʻoqchilik milliy mahsulotida yongʻoqni sanoatda qayta ishlashning xom ashyo bazasini kengaytirish. Natijada quvvatlar toʻla ishga tushadi, ishlab chiqarish rentabelligi va kapitaldan foydalanish samaradorligi sezilarli oshadi.

2. Milliy xom ashyo asosida yongʻoq ishlab chiqarish va sanoatda qayta ishlashni oʻzlashtirish.

3. Qandolat tarmogʻi uchun yangi mahsulot boʻlgan tozalangan kashtanni qayta ishlash va kashtan uni hamda parhez oziq-ovqatlar ishlab chiqarishni oʻzlashtirish. Bu yoʻnalishda hatto MDHda raqobat mavjud emas.

Bugun xoʻjaliklarda yetishtirilayotgan yongʻoqlarni oʻz vaqtida yigʻishtirib olib, yongʻoqni sifatli saqlash va uni qayta ishlash borasida innovatsion texnologiyalarni qoʻllash orqali daromadni oshirish dolzarb masaladir.

Mahsulotning dizayni tashqi bozorga chiqariladigan mahsulot nomi, shakli va rangini tanlashdan iboratdir. Sotuvga chiqarilayotgan mahsulot ichki yoki tashqi bozorga chiqarilishidan kelib chiqib, oʻz xususiyatlariga ega boʻladi. Masalan eksportga chiqariladigan mahsulot dizayni koʻp jihatdan mamlakat aholisining madaniy va diniy xususiyatlaridan kelib chikib belgilanadi. Dizayn boʻyicha qaror qabul qilishda mamlakat aholisining urf-odatlari, tili-dini va boshqa xususiyatlariga e’tibor qaratilishi lozim.

Sotuvga chiqarilayotgan yangi uzilgan yoki qayta ishlangan yongʻoq mahsulotlari albatta sifatli va qulay idishlarga qadoqlangan

bo'lishi talab etiladi. O'z navbatida qadoqlangan mahsulotning saqlanishi va tashilishi uchun qulaylik yaratuvchi o'rov materiallarini tayyorlash va ishlab chiqarish yoki xarid qilinishi rejalashtiriladi.

Yong'oq daraxti ko'chatlarini o'tqazish uchun chet ellik mutaxassislar bilan birgalikda ayrim viloyatlarda uchastkalarni ajratish rejalashtirilgan.

Oxirgi yillarda yong'oq yalpi hosili sezilarli o'sib bormoqda. Bunda uning sun'iy ishlab chiqarilishi yoki narxlarning tushishi kabi omillar halaqit bermaydi. Jahon bo'ylab yong'oq mevalarini o'z ichiga oluvchi sog'lom va foydali ovqatlanishga e'tibor qiluvchi odamlar ulushi ortib borayotgani sababli bu mahsulotga talab oshmoqda.

Yong'oq bozori tahlili natijalariga ko'ra, oxirgi o'n yillikda tozalanmagan yong'oq narxining o'rtacha yillik o'sishi 8%, tozalangani esa 10% ni qayd etgan. Hatto ekzotik mahsulotlar ham narxning bunday barqaror o'smagan. Bundan milliy ishlab chiqaruvchilar afsuski yetarlicha manfaat olmayaptilar.

O'zbekistondan bu mahsulotni import qiluvchi dunyoning ko'p davlatlarining o'zida ham salmoqli hajmlarda yong'oq yetishtiriladi. Ammo bizdan farqli ravishda asosan ichki bozorda realizatsiya qilinadi. Puldor va sog'ligi haqida yetarlicha qayg'uradigan xalqlar unchalik sifatli bo'lmasada, juda arzon o'zbek yong'og'ini ishtiyoq bilan sotib oladilar.

Respublikamiz hududlarida qayta ishlash quvvatlaridan samarali foydalanish mahsulot sifati va raqobatbardoshligi, eksportga yo'naltirish hisobiga mamlakatga valyuta tushumini oshiradi, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholi daromadlarini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda yong'oqchilikni rivojlantirishda yana bir keng tarqalgan yo'nalishlardan biri klaster tizimi hisoblanib, sohada innovatsion rivojlanishni ta'minlash va ishlab chiqariladigan tovarlar hamda ko'rsatil-gan xizmatlarning raqobatbardoshligini ta'minlashda klasterlarning o'rni juda muhim sanaladi (3.3-rasm).




**3.3-rasm. Yong‘oqchilik klasterlarining maqsad va vazifalari tasnifi**[75]

Bevosita yong‘oq klasterlari yong‘oq yetishtirish hajmini oshirishda va uni ichki hamda tashqi bozorda samarali sotish tizimini yo‘lga qo‘yishda muhim hisoblanadi.

Sanoatlashgan yirik yong‘oq bog‘lari klaster usulida tashkil etilishi mumkin. Bunday yondashuvga misol sifatida tadbirkorlar qishloq xo‘jaligi tadbirkorligi uchun 2 gektar yer olgan holda,

[75] Muallifning ilmiy-tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

yong'oq ekish va undan foydalanish bo'yicha harakatlarini kooperatsiyada birlashtirish tajribasi mavjud. Kooperatsiya mayda ishlab chiqaruvchilarga mahsulotning qiymatini oshirishga xizmat qiluvchi yirik partiyalarini shakllantirish imkonini beradi, hamda ular o'zi yetishtirgan mahulotning barcha savdo-iqtisodiy jarayonlarida qatnashadi. Shu tariqa yashirin bozor faoliyatini qisqartirib budjetga tushumlar ham oshib boradi.

Vaziyatni yaxshi tomonga sezilarli o'zgartirishi mumkin bo'lgan sanoatlashgan yirik yong'oq bog'larini barcha mintaqalarda tashkil etib, unga fermer xo'jaliklari, agrofirmalar, mayda mulkdorlar kooperativlarga uyushgan holda tashkil etish maqsadga muvofiq. Ushbu kooperativlar faoliyati yong'oqchilikdagi vaziyatni tubdan yaxshilash imkonini yaratadi.

Tayyorlash va eksportning shaffof tizimida yangi tashkil etiladigan tayyorlov punktlari katta ahamiyatga ega bo'ladi. Ular xizmat ko'rsatuvchi kooperativ shaklida faoliyat ko'rsatib mahsulotning ulgurji partiyalarini shakllantirish, uni ichki bozorda realizatsiya qilish yoki eksportga jo'natish imkoniga ega bo'ladi. Bu esa qishloqlarda yangi ish o'rinlarini yaratib aholi turmush farovonligini oshirishga yordam beradi.

Klasterlarning barcha korxonalariga innovatsiyalarni tez tarqatish imkoni innovatsion salohiyatni rivojlantirishda ahamiyatlidir. Klasterlar taraqqiyot modeli hududlar raqobatbardoshlik indeksini ko'tarishga imkon beradi. Natijada sohaga investitsiyalarni jalb qilish imkoniyati oshadi.

Mamlakatimizda yong'oqchilik sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hamda sohani kelajakda rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash maqsadida SWOT tahlili o'tkazildi (3.4-rasm).

Rasmdan ko'rinib turibdiki, bugungi kunda sohani rivojlantirish dasturlari, yo'l xaritalari va chora-tadbirlar ishlab chiqishdan oldin bevosita tarmoqdagi mavjud muammolar-tahdidlar, imkoniyatlar, to'plangan mavjud tajribalar va zaif jihatlarga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

**KUChLI TOMONLAR:**
- sohaning uzoq yillik tajribaga egaligi;
- soha rivoji uchun tabiiy sharoitlarning mavjudligi;
- tarmoqning xususiylashtirilganligi;
- sanoat va ilm-fan o‘rtasida yaxshi aloqa mavjudligi;
- rivojlangan ishlab chiqarish bazasi (transport magistrallari, yong‘oqni qayta ishlash bo‘yicha yangi uskunalar);
- mehnat resurslari bilan ta’minlanganligi.

**ZAIF TOMONLAR:**
- xizmat ko‘rsatishning saviyasi pastligi;
- xususiy investitsiyalarning yetishmasligi;
- marketing strategiyasini yetishmasligi;
- ilmiy ishlarga moliyalashtirish cheklanganligi;
- yuqori serhosil navlarni yetishmasligi;
- resurstejamkor texnikalarni joriy etish darajasi pastligi;
- statistik materiallar to‘plash va ular bilan ishlash tizimining pastligi;
- sug‘urta tizimi yo‘lga qo‘yilmaganлиги.

*SWOT*

**IMKONIYaTLAR:**
- samarali intensiv texnologiyalarni qo‘llash imkoniyati;
- banklarning sohaga kredit ajratishga qiziqishi;
- klaster tizimining yo‘lga qo‘yilishi;
- logistika va infratuzilmani yaxshi-lash imkoniyati mavjudligi;
- ishlab chiqarishda raqobatni oshishi;
- xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik, integratsiya;
- bandlikni oshirish va aholi turmush tarzining yaxshilanishi.

**TAHDIDLAR:**
- yong‘oq va yong‘oq mahsulotlarini sotish tizimidagi muammolar;
- xorijiy tajribalar borasida bilimlarning yetishmasligi;
- mahsulotni saqlash tizimidagi muammolar;
- tabiat injiqliklari (sovuq urish, sel, do‘l va. h.k);
- kasallik va xasharotga qarshi tizimning yo‘lga qo‘yilmaganligi;
- dehqon va fermerlarning yetarli bilim va malakaga ega emasliklari;
- malaka oshirish kurslarining yetarli emasligi (seminar-treninglar).

**3.4-rasm. Yong‘oqchilik sohasi istiqbolli rivojlanishining SWOT tahlili[76]**

Yong‘oqchilik xo‘jaliklarida moddiy va mehnat resurslari sarfi me’yorlari to‘g‘risida ko‘nikma (xatto ba’zi xo‘jaliklarda ma’lumot) mavjud emasligi, unga amal qilmagan holda yillar davomida to‘plangan tajribalarga tayanib, faoliyat olib borilmoqda.

Yong‘oqchilik sohasi istiqbolli rivojlanishining SWOT tahlilidan kelib chiqib, sohani yanada rivojlantirish talab etiladi:

---
[76] Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.

- respublikada grek yong‘og‘i yetishtirish va uning samaradorligini oshirishda intensiv texnologiyalardan foydalanishni kuchaytirish;

- sifatli ko‘chat yetishtirish tizimini yo‘lga qo‘yish va laboratoriya sharoitida serhosil navlarni ishlab chiqishni yanada rivojlantirish;

- hududlar iqlimiga mos yong‘oq turlarini yetishtirishni yo‘lga qo‘yish hamda malakali kadrlar bilan ta’minlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish;

- yong‘oq yetishtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirishda intensiv va raqamli texnologiyalarni joriy etish;

- yong‘oq yetishtirish va sotish hamda saqlash tizimidagi muammolarni bosqichma-bosqich bartaraf etish orqali mahsulotni yakuniy iste’molchilarga sifatli tarzda yetkazib berilishini ta’minlash va boshqalar.

Umuman olganda, grek yong‘og‘ining asosiy qismi dehqon xo‘jaliklarida yetishtiriladi. Ammo so‘nggi vaqtlarda ular katta maydonni egallagani uchun kesib tashlanayapti. Shuning uchun taqchillik kuzatilayapti. Shu nuqtai-nazardan avvalombor, intensiv ko‘chatlarni rivojlantirish va yetkazib berish kerak. Shuning uchun asosiy vazifalar sifatida avvalo nav, ko‘chatchilik, sotish tizimini rivojlantirish orqali aholi daromadini oshirish mumkin.

Yong‘oq bozorining muvaffaqiyatli rivojlanishining muhim sharti soliqlarni optimallash imkoniyatidir. Iste’mol bozoridagi vaziyatni barqarorlashtirish hamda aholiga sotilayotgan tovarlarga narxlarni pasaytirish maqsadida qo‘shilgan qiymat solig‘ining 10% li imtiyozli soliq stavkasi qo‘llanayotgan tovarlar ro‘yxati aniqlandi. Bu guruhga yog‘ olinuvchi urug‘lilar va ulardan olinadigan mahsulotlar kiritildi.

Shu bilan bir vaqtda, yong‘oqni qishloq xo‘jaligida yetishtirish va keyin uni qayta ishlash qo‘shilgan qiymat solig‘ining 18% li stavkasiga to‘g‘ri keladi, bu esa yong‘oq va undan olinadigan mahsulotlarining narxi oshishiga olib keladi. Yong‘oq yetishtirish va sotish hamda qayta ishlashning raqobatbardoshligini oshirish uchun narxni pasaytirish omillaridan biri sifatida soliq to‘lovlarini pasaytirishning qonuniy usullaridan maksimal foydalanish kerak.

Ya'ni, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilish, yong'oqni qishloq xo'jaligida yetishtirish va sanoatda uni qayta ishlash uchun maxsus soliq rejimini qo'llash zarur (3.5-rasm).




**3.5-rasm. Yong'oq yetishtirish va uni qayta ishlashni rivojlantirishnnig tashkiliy-iqtisodiy asoslari**[77]

Yuqori qo'shilgan qiymat zanjirlarini yaratish imkoniyatlari ko'p bo'lgan yong'oq ishlab chiqarish va qayta ishlashni rivojlantirishning quyidagi tashkiliy-iqtisodiy asoslarini taklif etamiz:

Yong'oqni qayta ishlash bo'yicha oziq-ovqat sanoati uchun milliy mashinasozlikning moddiy bazasini rivojlantirish natijasida ishlab chiqarishni yong'oqni saralash, po'stlog'idan ajratish, quritish, maydalash kabi jarayonlar uchun zamonaviy qurilmalar va texnologiyalar bilan ta'minlash imkoni oshadi.

Yong'oqni qayta ishlash jarayonlarida milliy yuqori texnologik uskunalarni qo'llayotgan korxonalarni davlat tomonilan qo'llab quvvatlash natijasida resurs tejamkor va xom ashyoni kopleks qayta ishlovchi progressiv texnologiyalarni joriy etib boriladi.

Yong'oq mahsulotlarini xom ashyosi ko'rinishida chuqur qayta ishlash va yuqori sifatli mahulot ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash orqali yong'oqlar qo'llanishini qandolat, farmasevtika,

[77] Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.

parfyumeriya, mebelsozlik, kabi aralash tarmoqlarda kengaytirib, olinadigan daromad oshib boradi.

O'zbekistondagi turli mintaqalarning tabiiy-iqlim sharoitlariga va ixtisoslashuviga mos holda ishlab chiqarishi joylashtirishni davlat tomonilan qo'llab-quvvatlash tizimlarini joriy qilish orqali yong'oq ishlab chiqarishning xom ashyo bazasini rivojlantirish va uni qayta ishlash bo'yicha ishlab chiqarish quvvatlarini to'liq foydalanishga sharoit yaratiladi.

Mintaqada investitsion faoliyatni muvofiqlashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga e'tiborni oshirish orqali yong'oq ishlab chiqarish samaradorligini va mintaqa budjetini oshirishga erishiladi.

Ishlab chiqarish va xom ashyo bazasi ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda vertikal integratsiya va kooperatsiyani rivojlantirish natijasida yong'oq yetishtirish jarayonida hosildorlikni va uni o'stirishdan manfaatdorlikni oshirishga erishiladi.

Yong'oq yetishtirish va uni qayta ishlash oziq-ovqat sanoatida muhim ahamiyatga ega. YaIM da oziq-ovqat sanoatining ulushi 38-42% ni tashkil etayotganligi esa shakllangan tovar ixtisoslashuvini ko'rsatadi. Bu holat bir qator raqobat ustunliklari, ya'ni ishlab chiqarilayotgan mahsulotning import analoglari bilan muvaffaqiyatli raqobatlashuvchi nisbatan yuqori sifatligi bilan tushuntiriladi..

Yuqoridagilarning barchasi yong'oq ishlab chiqaruvchi va qayta ishlovchi korxonalarga ham taalluqlidir. Ularning strategik vazifasi ishlab chiqarish quvvatlaridan to'la foydalanish va o'z xomashyo bazasini shaklantirish uchun mintaqaviy afzalliklardan maksimal foydalanish hisoblanadi.

## 3.2. Qishloq xo‘jaligida yong‘oq yetishtirish va ko‘chatchilik tizimini rivojlantirishni rag‘batlantirish yo‘nalishlari

Mamlakatda iqtisodiy samaradorlikni to‘g‘ri baholash, samaradorlikni oshirishda barcha imkoniyatlar, ya’ni ichki va tashqi omillardan ilmiy asoslangan holda foydalanishga bog‘liqdir. Chunki, mamlakatizdagi qulay tabiiy-iqlim sharoitlari qishloq xo‘jaligida resurs tejamkor sohalarni rivojlanishiga har tamonlama mos keladi. Ilmiy tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, hozirgi suv resurslari taqchilligi sharoitida oborotga kiritilayotgan qishloq xo‘jalik yerlaridan samarali foydalanishda qurg‘oqchilikka chidamli, tabiiy yog‘ingarchilik hisobiga yoki intensiv sug‘orish tizimida kam xarajatli varinatlarni qo‘llash mumkin bo‘lgan yong‘oqzorlarni barpo etishda xarajat va daromadlarning shakllanishi hamda yuqori investitsiya samaradorligiga erishish imkoniyati asoslab berildi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishda talab etiladigan mehnat va moddiy resurslar sarfining ilmiy asoslangan me’yorlar hamda olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib turli usullarda bir gektar maydonda yong‘oqzorlar tashkil etish, parvarishlash xarajat va daromadlari, shuningdek samaradorlik ko‘rsatkichlari qiyosiy tahlil qilindi.

Hisob-kitoblarga asoslanib, bir gektar yong‘oqzor barpo etish bilan bog‘liq xarajatlar o‘rtasidagi farqlar intensiv usulda 8-9 martaga yuqoriligini ko‘rish mumkin. Vaholanki, quyidagi jihatlar orqali intensiv usulda yonqog‘ yetishtirish samarali ekanligini ta’kidlash mumkin:

- intensiv usulda bir gektar yer maydoniga joylashtiriladigan ko‘chatlar soni 3-4 marta ko‘p bo‘lishi;
- intensiv usulda tomchilatib sug‘orish orqali suvdan va mineral o‘g‘itlardan samarali foydalanish imkoniyatlarning yuqoriligi;
- mahsulot yetishtirishda mehnatni mexanizatsiyalashganlik darajasining yuqoriligi;
- mahsulot sifatini nazorat qilish va boshqarishning qulayligi;
- kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash qulayligi hamda ta’sirchanligining yuqoriligi;

- intensiv usulda barpo etilgan bog‘larni tez mevaga kirishi va tegishli agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish imkoniyatining yuqoriligi;

- mahsulotni yig‘ishtirib olish va boshqa agrotexnik tadbirlarni amalga oshirishning qulayligi;

- intensiv usulda bog‘ barpo etish bilan bog‘liq xarajatlarning 8-9 marta yuqori bo‘lishiga qaramay, ushbu xarajatlar yuqori resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish hisobiga bog‘ to‘liq xosilga kirgandan so‘ng 3-4 yil muddatda to‘liq qoplanishi va boshqalar.

Xulosalar shuni ko‘rsatadiki, intensiv usulda yong‘oq yetishtirish an’anaviy usulga nisbatan resurs tejamkor hisoblanib, bir birlik mahsulot ishlab chiqarishda talab etiladigan yer resurlarining hajmi 67,1-47,5 foizni tashkil etgan. Bu o‘z navbatida boshqa turdagi resurslar sarfining ortib ketishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Ilmiy asoslangan natijalar asosidagi xulosalarni berishda, an’anaviy usulda yong‘oq yetishtirishda resurs samaradorligini baholash minimum va maksimum chegaralarda hisob-kitob qilindi.

Chunki, dehqon xo‘jaliklarining tomorqa yerlarida yong‘oq mahsulotini yetishtirishda yuqorida ta’kidlangan xarajatlar hajm, ko‘chat soni va boshqa shunga o‘xshash omillarga bog‘liq holda deyarli amalga oshirilmaydi va hisob- kitob qilinmaydi. Biroq, an’anaviy usulda katta hajmdagi yer maydonlarida yong‘oq yetishtirish resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini chegaralaydi.

Eski va samarasiz bog‘-uzumzorlarni buzish, yangi intensiv bog‘ va uzumzorlar hamda issiqxonalar tashkil etishni belgilash; bog‘, uzumzorlar va issiqxonalarni plantatsiya shaklida (20 gektardan kam bo‘lmagan) barpo etishni belgilash; bog‘, uzumzorlar va issiqxonalar tashkil etish, agrotexnik tadbirlarini o‘tkazish va mahsulotlari yetishtirish bo‘yicha monitoring yuritish; bog‘dorchilik va uzumchilik klasterlarini tanlash va belgilash zarurdir.

Bugungi kunda asosiy mahsulot ishlab chiqaruvchilarning mulkchilik nuqtai nazaridan kelib chiqib, buxgalteriya va statistik hisob yuritishi, xo‘jalik jarayonlarini dastlabki va yig‘ma hujjatlarda to‘liq rasmiylashtirilmayotgani yong‘oq yetishtirishda xarajat va daromadlarning baholashda aniq xulosalar olish imkoniyatini

chegaralamoqda. Natijada sohada boshqaruv qarorlari taxminiy ma’lumotlar asosida qabul qilinishiga to‘g‘ri kelmoqda.

Strategik rejalarni to‘g‘ri  aniq belgilash birinchi navbatda, sohani tashkil etishda ilmiy asoslangan holda kompleks va tizimli yondashuvni taqozo etadi. Bunda har bir tarkibiy qisim bo‘g‘inlarda muammolarni bartaraf etishga qaratilgan vazifalar va chora-tadbirlar belgilab olinishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini 2022-2026 yillarda rivojlantirish dasturida belgilab olingan asosiy vazifalardan kelib chiqib, maqsadli rivojlantirish indikatorlarining asosiy salmog‘i foydalanishga kiritiladigan yerlar hamda suv tejamkor texnologiyalari joriy etiladigan ekin maydonlarining hajmini ortib borishiga tegishlidir. Bundan tashqari aniq sohalarni rivojlantirish bo‘yicha dasturda belgilab olingan vazifalar samarali ijrosini ta’minlashda, ayniqsa intensiv bog‘larni tashkil etish, ilmiy ish natijalarini  quyidagi jihatlaridan foydalanish mumkinligini tavsiya etamiz:

- an’anaviy usulda yong‘oq yetishtirishning iqtisodiy samaradorligiga resurs tejamkorlik nuqtai nazaridan baho berilganligi. Bugungi kunda an’anaviy usulda yong‘oq yetishtirishda erishilayotgan iqtisodiy samaradorlikning minimum va maksimum chegaralari belgilab berildi. Shunga asosan eski, yaroqsiz va iqtisodiy jihatdan samarasiz bog‘larni aniqlash mezonlari sifatida foydalanish mumkin;
- an’anaviy va intensiv usulda yong‘oq yetishtirishining iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari o‘zaro qiyosiy tahlil etilib, resurs tejamkorligi va xarajatlarni qoplanishi va boshqa o‘zaro ustunlik tomonlariga baho berilganligi;
- O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini 2022-2026 yillarda rivojlantirish dasturida belgilab berilgan intensiv bog‘ va tokzorlarni “Tayyor holda topshirishi” mexanizmi asosida tashkil etish va aholiga bo‘lib to‘lash sharti bilan sotish vazifalarni amalga oshirishda, loyihani amalga oshirish guruhlari faoliyatini tashkil etishda ya’ni texnik iqtisodiy asosnomalarni tayyorlashda qo‘llash mumkin bo‘ladi.

Bunda eng asosiy muammo sifatida suv resurslari ta'minoti barcha imkoniyatlarni cheklab qo'yishi mumkin. Lekin bugungi kunda soha olimlari tomonidan sug'orishning yangi innovatsion texnologiyalari yaratilayotganligi va amaliyotga tadbiq qilinishi natijasida suv resurslari ta'mninoti hamda ulardan samarali foydalanish imkoniyatini yaratib berilmoqda. Demak, olib borilgan ilmiy izlanishlar Andijon viloyatida yong'oqzor tashkil etishda kiritilgan investitsiyalar hisobidan 3-5 yilda har bir gektar yer maydonida 42059-103549 so'mgacha daromad olish mumkin. Agarda mavjud  yong'oqzorlarni 40-45 foizga, ya'ni 500 gektarga oshirish hisobiga qo'shimcha yiliga o'rta hisobda 51,7 mlrd.so'm daromad olinadi hamda 500 ta qo'shimcha yangi ishchi o'rinlari yaratiladi.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini 2022-2026 yillarda rivojlantirish dasturida belgilangan strategik reajasida jami 150 ming gektar intensiv bog'lar barpo etish, shundan 105 ming gektari samarasiz eski bog'larni qayta tashkil etish hisobiga, 45 ming gektar lalmi va o'zlashtiriladigan yer maydonlari hisobidan tashkil etilishi belgilab qo'yilgan. Shundan fermer va qishloq xo'jalik korxonalarida yong'oq yetishtiriladigan maydonlar 2022 yilda 13,0 ming gektarni tashkil etgan bo'lsa, 2026 yilga kelib, 17,1 gektarga yetkazilishi rejalashtirilgan. Bundan tashqari, yong'oqchilik sohasida qo'shimcha 4,1 ming gektar ekin maydonida intesiv bog'larni barpo etish asosida Qishloq xo'jaligi vazirligi tizimida Agentlik hamda Yong'oq yetishtiruvchilar va eksportchilar uyushmasi bilan davlat-xususiy sherikchilik loyihalari asosida ko'chatlarni yetishtirish va sotishni sertifikatlash tizimi joriy etilishi belgilab qo'yilgan.

Istiqbolda yong'oqchilik sohasini intensiv texnologiyalar asosida rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari hamda uni takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Unda e'tibor berilishi lozim bo'lgan jihatlar shundaki, qo'llab-quvvatlash dastaklari tekislikdagi, tog' va tog'oldi hududlaridagi yong'oqchilik xo'jaliklari o'rtasida amalga oshirilishi yaxshi natija beradi. Ushbu yo'nalishlar quyidagilardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiqdir (3.6-rasm):




**3.6-rasm. Yong‘oqchilik sohasini intensiv va resurstejamkor texnologiyalar asosida rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlari[78]**

1. Yong‘oq yetishtirish sohasiga raqamli iqtisodiyot tizimi va IT texnologiyalarni joriy etish. Sohani raqamli iqtisodiyot tizimi va IT texnologiyalar asosida qayta tashkil etish “Yong‘oq yetishtiruvchilar va eksport qiluvchilar” uyushmasining yaqin kelajakdagi strategik vazifalardan bo‘lishi va bu chora-tadbirlar

[78] Muallifning ilmiy-tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

soha ishlab chiqarish hamda xo'jalik yuritish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, davlatning maqsadli dasturi asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Bunday yondashuv, birinchidan, yong'oqchilikda ma'lumotlar bazasini shakllantirishga zamin yaratsa, ikkinchi tomondan, sohada yagona va zamon talablariga javob beradigan davlat texnologik siyosatini yuritishga imkon beradi. Uchinchidan, sohadagi yong'oqchilik xo'jaliklari faoliyati monitoringini yuritishga, xo'jaliklar faoliyati iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan bog'liq tezkor qaror va xulosalarni amaliyotga joriy etishga imkon beradi.

To'rtinchidan, yong'oqchilik xo'jaliklari reytingini aniqlash asosida ularni davlat tomonidan iqtisodiy qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarida shaffoflikni ta'minlaydi.

Demak, yong'oqchilik sohasiga raqamli iqtisodiyot tizimi va IT texno-logiyalarini joriy etishni davlatning maqsadli dasturlari asosida bosqichma-bosqich tashkil etilishi tarmoqni intensiv va resurstejamkor texnologiyalar asosida rivojlantirishni ta'minlaydi.

2. Intensiv yong'oqchilik uchun mahalliy payvandtaglarni yetishtirib berishni rag'batlantirish. Bugungi kunda "in vitro" usulida ko'chatchilikni rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Chanler kabi samarali yong'oq turi ko'chatlarini ekish va parvarishlash yuqori samara berishi mumkinligi monografik kuzatishlarimiz natijasida aniqlandi.

3. Yong'oqchilik tabiat injiqlari va ob-havo noqulayliklari hamda iqlimning keskin o'zgarishiga o'ta sezgir sohalardan hisoblanadi. Bu holat, yong'oqchilik xo'jaliklarini ob-havoning keskin o'zgarishi (haroratning ko'tarilishi, sovuq tushishi, yog'ingarchilik miqdorining kamayishi hisobiga suv ta'minotining yomonlashuvi) yong'oqning kasallanishi kabi nohush hollardan sug'urtalashning maxsus shakl va tizimlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

4. Yong'oqchilik sohasida amaliy tajribalar shakllanayogan bo'lsada, uning mamlakatimiz hududlari kesimida alohida xususiyatlari, suv manbalariga qo'yiladigan talablar va ularning holatlaridan kelib chiqqan holda, yong'oqzorlarda sifatli intensiv ko'chat yetkazib berish tizimini tashkil etish.

5. Yong'oqchilik rivojlangan hududlarda yong'oq plantatsiyalarini barpo etishda konsalting markazlarini tashkil etish va ularning rolini kuchaytirish. Bunda davlat va xususiy sherikchiligi tamoyillari asosida tadbirkorlik sub'ektlarini keng jalb etishga alohida e'tibor qaratish lozim. Xususiy tadbirkorlarning konsalting markazlarini tashkil etishda soliq va bojxona imtiyozlarni joriy etish maqsadga muvofiq.

Yong'oqchilikda serhosil yong'oq navlari va intensiv ko'chatchilik tizimini rivojlantirish masalasi bugungi kunda yong'oq yetishtiruvchilar oldidagi asosiy muammolardan biri sanaladi.

Tashkiliy tomondan buni hal etishning ilmiy amaliy yechimi bu yong'oqchilik ilmiy-tadqiqot markazlari, qishloq xo'jaligida ilm-fan va amaliyot integratsiyasini ta'minlovchi Agromaslaxat markazlari bilan o'zaro muvofiqlashtirish, hududlarda ularning konsalting maslahat markazlarini tashkil etishga e'tibor qaratish lozim.

6. Yong'oqchilik sohasini resurslar bilan ta'minlash tizimini yo'lga qo'yish. Mevali bog'larda resurstejamkor texnologiyalardan foydalangan holda moddiy va mehnat resurslari sarfini kamayishiga erishish muhim hisoblanib, YoMMni tejaydigan, daraxtlarga ishlov berishda mehnat sarfini kamayishiga olib keladigan, yerga ishlov beradigan, kasallik va hasharotlarga qarshi qo'llaniladigan ko'p funksiyali resurstejamkor texnika vositalarining ishlab chiqarishda keng joriy etilishi birinchidan, mahsulot sifatini oshiradi, ikkinchidan, bozorgir mahsulotlar hajmini ortishiga olib keladi va pirovardida, yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta'minlanishiga sabab bo'ladi.

7. Sohani rivojlantirish uchun zamonaviy bilimlar bilan qurollangan malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash, malakalarini oshirish va nufuzli xorijiy universitetlar va ilmiy markazlarda stajirovkalarini tashkil etish. Bu borada aniq va muayyan chora-tadbirlar asosida kadrlarni tayyorlash hamda ularning bilimlarini oshirib borish maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiy rag‘batlantirish orqali yong‘oq yetishtirishda intensiv ko‘chat bilan ta’minlash tizimini qo‘llab-quvvatlash yuzasidan bir qator yondashuvlar zarur (3.3-jadval).

**3.3-jadval.**

**Intensiv yong‘oq yetishtirish tizimini rivojlantirishni davlat tomonidan rag‘batlantirish yo‘nalishlari[79]**

| Rag‘bat-lantirish yo‘llari | Tadbirlarning nomlanishi | Moliyaviy manbasi | Kutiladigan natija |
|---|---|---|---|
| **Sifatli ko‘chatlar yetkazib beruvchilarni rag‘batlantirish** | - eksportbop yong‘oq ko‘chatlari yetishtirish va ko‘chatlarni sertifikatlash tizimini yaratish;<br>- navdor yong‘oq ko‘chatlari ekish asosida plantatsiyalar yaratuvchi tadbirkorllarni subsidiyalash amaliyotni joriy qilish. Bunda har bir navdor ko‘chatga ekilishining ikkinchi yilidan boshlab ko‘chatni xarib qilish xarajatlarining **15 foizini** qoplash mexanizmini joriy qilish tavsiya etiladi. | Tijorat banklari mablag‘lari, Xususiy investorlar mablag‘lari, Turli jamg‘armalar mablag‘lari | Yong‘oq yetishtirishda moddiy va mehnat resurslari sarfi kamayadi, intensiv ko‘chatchilik tizimi rivojlanadi |
| **Yong‘oq zorlar tashkil qiluvchi tadbirkorlarga xizmatlar ko‘rsatish va axborot ta’minoti tizmini yaratish** | - yong‘oq va yong‘oq mahsulotlari yetishtiruvchilar va eks-port qiluvchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks etuvchi ma’lumotlar bazasi, platfor-mani yaratish va to‘liq ishlashini ta’minlash;<br>- tashqi bozorlarni o‘rganish bo‘yicha marketing tadqiqotlarini olib boruvchi konsalting xizmatlari tashkil etish va ularning materiallarini maxsus internet-saytlarida, forumlarda e’lon qilish. | Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Xorijiy moliyaviy institutlar kreditlari va grantlari | Yong‘oq yetishtiruvchilar va eksport qiluvchilarga tegishli iqisodiy ko‘rsatkichlar asosida onlayn platforma yaratiladi. |

[79] Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Yong'oqchilik sohasi uchun kadrlar tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlash** | - Yong'oq yetishtirish va ekspor-tida ilg'or davlatlardan agronom olimlar, marketologlar, fermerlarni yurtimizga tashrifini ta'minlash va o'quv mashg'ulotlari, treninglar tashkil qilish;<br>- yong'oqchilik bilan shug'ullanuvchi, sohaning ilm-fani bilan band bo'lgan kadrlarni yong'oq yetishtirish sohalari rivojlangan xorijiy mamlakatlarda stajirovkalarini amalga oshirish. | Xalqaro grantlar, Tadbirkorlik sub'ektlari mablag'lari, Davlat jamg'armalari mablag'lari | Zamonaviy texnologiyalar va bilimlar bilan qurollangan malakali mutaxassis-kadrlar shakllanadi. |
| **Yong'oqchilik sohalarida kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish** | - yong'oq yetishtirish bilan shug'ullanuvchi fermer, dehqon va tomorqa xo'jaliklari ishtirokidagi mahsulot yetishtiruvchi va qayta ishlovchi kooperativlarini rivojlantirish;<br>- yong'oq eksport qiluvchilar uchun faoliyatining dastlabki **2 yilida** eksport subsidiyalarini joriy qilish asosida eksportni rag'batlantirish. Bunda subsidiya oluvchilar eksport tushumlarining **5 foizini** eksport logistikasini rivojlantirishga yo'naltirilishi lozimligini begilab qo'yish. | Davlat budjeti mablag'lari, Tadbirkorlar o'z mablag'lari hisobidan | Mahsulot yetishtirish xajmi, sifati oshadi, eksport salohiyati ortadi. |

Yong'oqchilik sohasini rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlarini tahlil qilib aytish mumkinki, tashkiliy jihatlar va ularni amalga oshirilishida erishiladigan natijalarni quyidagi yo'nalishlarda ko'rish mumkin. Bizningcha, tashkiliy mexanizmlar va ularni amalga oshirish pirovardida quyidagi natijalarga erishish mumkin deb hisoblaymiz:

- biolaboratoriyalar usulida serhosil navlarni ishlab chiqish;
- yong'oqchilik ITM bilan hamkorlikda konsalьting xizmatlarini tashkil etish;
- mutaxassis kadrlarni malakasini muntazam oshirib borish;
- kasallik va hasharotlarga qarshi kurashish uchun biologik usullardan foydalanish;
- yong'oqchilik xo'jaliklari uchun ilmiy-uslubiy ishlanmalar, tavsiyalar ishlab chiqish.

Yuqorida keltirilgan tashkiliy mexanizmlarni amalga natijasida quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- yakuniy iste'molchiga xavfsiz va sifatli mahsulot yetkazib beriladi;

- amaldagi mavjud muammolar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi va bu borada takliflar ishlab chiqiladi;

- resurstejamkor texnologiyalar asosida moddiy va mehnat resurslari sarfi kamayadi;

- yong'oq yetishtirish iqtisodiy samaradorligi ortadi.

Shu nuqtai-nazardan bizningcha, yong'oqchilik sohasini iqtisodiy qo'llab–quvvatlash mexanizmi quyidagilarni o'z ichiga olishi zarur:

– intensiv texnologiyalarni joriy qilish yo'nalishidagi yong'oqchilik fermer xo'jaliklarini ikki yilga soliqlardan ozod qilish bilan birga, ularga uch yil muddatga imtiyozli kreditlar ajratish mexanizmini ishlab chiqish;

– yong'oqni qaytash ishlash korxonalarini tashkil qilishda ikki yil muddatga foizsiz kreditlar berish tizimini yaratish;

– sohada kichik sex, qayta ishlash korxonalarini rag'batlantirish yuzasidan investitsiyalarni jalb qilishda fermer va dehqon xo'jaliklarini iqtisodiy hamda huquqiy bilimlarini oshirishga mo'ljallangan o'quv seminarlar, ko'rgazmalarni tashkil qilish va muntazam o'tkazib borish;

– respublikamiz hududlarida yong'oq mahsulotlari ulgurji bozorini shakllantirish va umuman yong'oq sotish tizimini takomillashtirish;

– mamlakatimizda yetishtirilayotgan yong'oq turlari serhosil navlarini ishlab chiqish, iqlim sharoitimizga mos yong'oq turlarini ko'paytirish bo'yicha tadqiqot ishlarini kuchaytirish;

– intensiv ko'chatchilik tizimini rivojlantirish.

Yong'oq eksport qiluvchi tadbirkorlik sub'ektlari uchun faoliyatining dastlabki 2 yilida eksport subsidiyalarini joriy qilish asosida eksportni rag'batlantirish maqsadga muvofiq. Subsidiya oluvchi eksporterlar eksport tushumlarining 5 foizini eksport logistikasini rivojlantirishga yo'naltirilishi lozimligini begilab qo'yilishi sohasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda yong‘oqchilikni rivojlantirish va samaradorligini oshirishda davlatning qo‘llab-quvvatlovchi siyosati muhim o‘rin egallaydi. Bugungi kunda yong‘oq yetishtirish hajmini oshirish, yong‘oqni saqlash va qayta ishlash, intensiv va resurstejamkor raqamli texnologiyalarni joriy qilish borasida davlat tomonidan rag‘batlantirish dastaklarini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

## 3.3. Ko‘p omilli ekonometrik va trend modellari yordamida yong‘oq yalpi hosilining prognoz qiymatlarini aniqlash

Mamlakatmizda hozirgi paytda qator imkoniyatlarga ega bo‘lgan tadbirkorlar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish yo‘nalishida o‘z biznesini yo‘lga qo‘yish g‘oyasi bilan yurishsada, agrobiznesning qisqa yo‘nalishdagi ixtisoslashgan sohalari bilan shug‘ullanishga ko‘p ham e’tibor qaratishmaydi.

Respublikamiz hududlarida, ayniqsa, tog‘ oldi mintaqalarida grek yong‘og‘ini yetishtirish va yong‘oq biznesini yo‘lga qo‘yish tadbirkorga iqtisodiy jihatdan katta foyda keltirishi mumkin. Lekin, mazkur sohaning tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantiruvchi va chegaralovchi bir nechta jihatlari ham borki, ularni yong‘oq yetishtirishni boshlashdan avvalroq bilish, bu borada marketing tadqiqotlari olib borish, yong‘oq ishlab chiqarishga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish va ularning ta’sir darajalarini tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Hududlarda yong‘oq yetishtirishga ta’sir etuvchi omillarni anglab olish va ularning ta’sir darajalarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi[80].

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligining quyi tarmoqlarida, xususan yong‘oqchilikda grek yong‘og‘i yetishtirishga bevosita ta’sir qiluvchi omillarning o‘zaro ta’sir darajalarini tahlil qilish va bu asosida hududlarda yong‘oq yetishtirish hajmiga omillarning ta’sirini baholash orqali yong‘oqchilikni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va prognoz parametrlari bo‘yicha xulosa berish mumkin.

[80] N.Xushmatov, T.Fayzullaeva Grek yong‘og‘i yetishtirishda baho shakllanishi va bozorning o‘zaruvchanlik xususiyatlari. //Agro ilm – O’zbekiston qishloq va suv xo’jaligi. 2019. - №5. – B.105-107.

Andijon viloyati tog‘ oldi mintaqalarida yong‘oq yetishtirishga ta’sir etuvchi omillar sifatida quyidagi omillarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

– yong‘oq ekilgan maydon;
– yong‘oqni qayta ishlash hajmi;
– jami sarflangan mineral o‘g‘it hajmi;
– yillik o‘rtacha haroratning o‘zgarishi;
– yillik o‘rtacha yog‘ingarchilik miqdorining o‘zgarishi.

Bir qancha omillar orasidan yong‘oq ekilgan maydon, yong‘oqni qayta ishlash hajmi, jami sarflangan mineral o‘g‘it hajmi, yillik o‘rtacha haroratning o‘zgarishi, yillik o‘rtacha yog‘ingarchilik miqdori kabi omillarni ko‘p omilli modelga tanlab oldik.

Tanlab olingan omillarning o‘zaro zich, o‘rtacha, kuchsiz (zaif) aloqasi, o‘zaro ta’sirlari qator xorijiy manbalarda atroflicha yoritib berilgan bo‘lib, ushbu manbalardan viloyatda yong‘oq yalpi hosilini prognoz qiymatlarini asoslab berishda foydalanish mumkin bo‘ladi.

Qishloq xo‘jaligida yong‘oq yetishtirish hajmini istiqboldagi prognoz ko‘rsatkichlarini asoslash yo‘nalishida va yuqorida keltirilgan omillarning o‘zaro ta’sirlarini aniqlash va ilmiy xulosalar hamda takliflar keltirish nazarimizda, maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Andijon viloyatida yong‘oq yalpi hosili hajmi va uning prognoz qiymatlarini aniqlash maqsadida ko‘p omilli regressiya modelida qatnashadigan omillar – natijaviy bog‘liq o‘zgaruvchi yong‘oq yalpi hosili hajmi, tonnada (Y) va o‘zaro ta’sir ko‘rsatadigan omillar – yong‘oq ekilgan maydon, ga ($\beta_1$); yong‘oqni qayta ishlash hajmi, tonna ($\beta_2$); jami sarflangan mineral o‘g‘it hajmi, tonna ($\beta_3$); yillik o‘rtacha harorat, S° ($\beta_4$); yillik o‘rtacha yog‘ingarchilik miqdori, mm ($\beta_5$). Modelda ko‘rsatilgan omillar bo‘yicha Andijon viloyati qishloq xo‘jaligi hamda statistika boshqarmalaridan 2011-2022 yillar bo‘yicha 12 yillik tegishli statistik ma’lumotlar yig‘ildi. Ajratib olingan omillarning yong‘oq yalpi hosiliga ta’sir darajalarini o‘rganishdan oldin Andijon viloyatida 2011-2022 yillarda yalpi mahsulot hajmini o‘zgarish dinamikasini ko‘rib o‘tish joiz (3.7-rasm, 3.7-jadval).

2011 yilda viloyat bo'yicha 789 tonna grek yong'og'i yetishtirilgan bo'lsa, 2013 yilda mazkur ko'rsatkich 2011 yilga nisbatan 1,86 barobar, 2016 yilda 4,75 marta va 2022 yilda esa 9,56 marotabaga ortganini ko'rish mumkin. Bunga sabab, albatta, bugungi kunda intensiv tarzda barpo etilgan yong'oqzorlar, yong'oq plantatsiyalarini misol qilish mumkin.




**3.7-rasm. Andijon viloyatida yong'oq yalpi hosili hajmini o'zgarishi dinamikasi**[81]

Shuningdek, bugungi kunda xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, grek yong'og'ini yetishtirish hajmi 2022 yilda dehqon xo'jaliklari hissasiga 4500 tonna (59,7%), fermer xo'jaliklari hissasiga 2845 tonna (37,7%) va qishloq xo'jaligi korxonalari hissasiga esa 197 tonna (2,6%) to'g'ri kelganini ko'rish mumkin (3.8-rasm).

Andijon viloyatida yong'oq yalpi hosilini prognoz qilishda chiziqli, darajali va logarifmik ko'rinishdagi funksiyalardan foydalanamiz. Mazkur funksiyalar quyidagicha aks ettiriladi.

Yong'oq yalpi hosilining prognozlashtirish uchun chiziqli funksiya:

$$y = 680{,}97x - 249{,}53 \qquad (1)$$

$R^2 = 0{,}9856$ (determinatsiya koeffitsienti) (3.10-rasm).

[81] Andijon viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan hisoblandi.




**3.8-rasm. Andijon viloyatida xo‘jalik toifalari bo‘yicha grek yong‘og‘ining yalpi hosili hajmini o‘zgarishi dinamikasi[82]**

Yong‘oq yalpi hosili hajmini prognoz qilishning darajali funksiyasi:

$y = 647,75x^{0,9804}$ (2)

$R^2 = 0,9846$.

[82] Andijon viloyati qishloq xo‘jaligi boshqarmasi ma’lumotlariga asosida muallif tomonidan hisoblandi.




**3.9-rasm. Andijon viloyatida yong'oq yalpi hosilini trend modellari yordamida prognozlashtirish funksiyalari**[83]

Yong'oq yalpi hosili hajmini prognoz qilishning logarifmik ko'rinishdagi funksiyasi:

$y = 2601\ln(x) - 432,86$ (3)

$R^2 = 0,8429$

Bu yerda, u – natijaviy omil, bog'liq o'zgaruvchi; x – omil, mustaqil o'zgaruvchi; $R^2$ - determinatsiya koeffitsienti.

Yong'oq yetishtirish hajmi o'zgarishini prognoz qilish dehqon xo'jaliklari, barcha toifa ishlab chiqaruvchi guruhlari kesimida trend liniyasi orqali chiziqli funksiyadan foydalangan holda bajarildi (3.10-rasm).

[83] Andijon viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlariga asosida muallif tomonidan hisoblandi.




**3.10-rasm. Andijon viloyatida yong'oq yetishtirishning xo'jalik toifalari kesimida prognozlashtirish funksiyalari**[84]

Andijon viloyatida yong'oq yalpi hosili yetishtirish hajmining 2023-2030 yillar uchun mo'ljallangan prognoz qiymatlari 2011-2022 yillarda qayd etilgan statistik ma'lumotlar yordamida yuqorida keltirilgan funksiyalar asosida aniqlandi. Aholining soni tobora ortib borayotganligi tufayli meva mahsulotlariga, xususan yong'oq va yong'oq mahsulotlariga bo'lgan talabning ortib borishi, yong'oq ekilgan maydonlarning kengayishiga, yong'oq hosildorligining ko'payishiga, yong'oq qayta ishlash hajmi o'sishga erishgan. Shuningdek, serhosil navlarni paydo bo'lishi, ko'chatchilikni rivojlanishi va intensiv texnologiyalarni kengroq tatbiq etilishi kabi

[84] Andijon viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlariga asosida muallif tomonidan hisoblandi.

omillar ta'sirida 2030 yilda yong'oq yalpi hosili hajmi 2022 yildagi 7542 tonnadan 2030 yilga borib 18651,5 tonnaga borishi yoki 2022 yilga nisbatan 2,47 marotaba ortishi ko'zda tutilmoqda. Shuningdek, 2030 yilga borib 2022 yilga nisbatan fermer xo'jaliklarida 2182,8 tonna, dehqon xo'jaliklarida 8676,1 tonna va qishloq xo'jaligi korxonalarida esa 250,6 tonna yong'oq yalpi hosili olishga erishilishi kutiladi (3.4-jadval).

**3.4-jadval**

**Andijon viloyatida va xo'jalik toifalari bo'yicha yong'oq yalpi hosili yetishtirish hajmining 2023-2030 yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari (tonnada)**[85]

| № | Viloyat va xo'jalik toifalari nomlanishi | Prognoz qilingan yillar* | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 2023 | 2024 | 2025 | 2026 | 2027 | 2028 | 2029 | 2030 |
| I | **Andijon viloyati bo'yicha jami** | 15125,2 | 15629 | 16132,7 | 16636,4 | 17140,2 | 17643,9 | 18147,8 | 18651,5 |
| | *Shundan:* | | | | | | | | |
| I.1. | Fermer xo'jaliklarida | 4 515,4 | 4588,6 | 4661,8 | 4735,0 | 4808,2 | 4881,4 | 4954,6 | 5027,8 |
| I.2. | Dehqon xo'jaliklarida | 10309,3 | 10718,9 | 11128,4 | 11537,9 | 11947,5 | 12357,0 | 12766,6 | 13176,1 |
| I.3. | Qishloq xo'ja-ligi korxona-larida | 300,5 | 321,5 | 342,5 | 363,5 | 384,5 | 405,5 | 426,6 | 447,6 |

* Prognoz qilingan yillar.

Birinchi navbatda, omillar o'rtasida o'zaro bog'liqlik munosabatlarini o'rganish maqsadida regression va korrelyatsion tahlillarni amalga oshiramiz. Ko'p omilli regression modelni tuzishdan maqsad shuki, bunda modelga kiritilgan omillarning o'zaro bir-biriga bog'liqligi darajalari va ta'sirlarini aniqlash, omillar ichida bir-biriga bevosita bog'langanligi darajasini

[85] Andijon viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlariga asoslangan holda Excel dasturi orqali trend chiziqli funksiyalar yordamida muallif tomonidan hisoblandi.

mulьtikollinearligini aniqlashdan iborat. Shu bois, birinchi navbatda, modelga kiritilgan omillar orasida korrelyatsiya bog‘lanish tahlilini amalga oshirishga to‘g‘ri keladi.

Andijon viloyatida yong‘oqchilikda yong‘oq yetishtirish hajmi va unga ta’sir ko‘rsatadigan omillar ichida quyidagicha korrelyatsiya bog‘liqligi tahlilini keltiramiz (3.5-jadval).

**3.5-jadval.**

**Yong‘oq yalpi hosili yetishtirish hajmiga ta’sir qiluvchi omillarning korrelyatsiyasi tahlili (Andijon viloyati misolida)[86]**

| O‘zgaruvchi | U- yong‘oq yalpi hosili hajmi, tonna | $X_1$ – yong‘oq ekilgan maydon, ga | $X_2$ – yong‘oq qayta ishlash hajmi, tonna | $X_3$ – jami sarflan-gan mineral o‘g‘it hajmi, tonna | $X_4$ – yillik o‘rtacha harorat, S° | $X_5$ – yillik o‘rtacha yog‘ingar-chilik miqdori, mm |
|---|---|---|---|---|---|---|
| U- yong‘oq yalpi hosili hajmi, tonna | 1 | | | | | |
| $X_1$ – yong‘oq ekilgan maydon, ga | 0,96969 | 1 | | | | |
| $X_2$ – yong‘oq qayta ishlash hajmi, tonna | 0,957111 | 0,929697 | 1 | | | |
| $X_3$ – jami sarflangan mineral o‘g‘it hajmi, tonna | 0,170644 | 0,040833 | 0,161775 | 1 | | |
| $X_4$ – yillik o‘rtacha harorat, S° | 0,716904 | 0,739578 | 0,60628 | 0,138431 | 1 | |
| $X_5$ – yillik o‘rtacha yog‘ingarchilik miqdori, mm | -0,46914 | -0,577 | -0,5618 | -0,12471 | -0,33423 | 1 |

Korrelyatsion tahlilga ko‘ra, yong‘oq yalpi hosili hajmining o‘zgarishi (Y) va bu bog‘liq o‘zgaruvchiga ta’sir qiluvchi yong‘oq ekilgan maydon ($x_1$) va yong‘oq qayta ishlash hajmi ($x_2$) omillari o‘rtasida kuchli zich bog‘lanish mos ravishda 0,96969 va 0,957111 mavjudligini kuzatish mumkin.

Keyingi muhim omillardan, ya’ni jami sarflangan mineral o‘g‘it hajmi ($x_3$) bilan natijaviy bog‘liq o‘zgaruvchi orasida kuchsiz

[86] Microsoft Excel dasturida “Analiz dannыx” paketidan foydalangan holda muallif tomonidan tuzilgan.

to'g'ri aloqadorlik borligini kuzatamiz (0,170644). Shuningdek, yillik o'rtacha haroratning o'zgarishi bilan natijaviy omil o'rtasida o'rtacha kuchli aloqa mavjud bo'lib, bu degani o'ta issiq harorat ham yong'oq uchun unchalik ijobiy holat emasligidan dalolat beradi (0,716904). Shu bilan birga, yillik o'rtacha yog'ingarchilik miqdorining o'zgarishi bilan natijaviy omil o'rtasida kuchsiz teskari bog'liqlik (-0,46914) borligini aniqladik. Buni albatta, yog'ingarchilikning me'yoridan ortib ketishi ham yong'oq daraxtlari bargiga, qolaversa, mevasi kasallanishiga sabab bo'lishi mumkinligi bilan izohlasa bo'ladi.

Yong'oqchilik sohasida yong'oq yetishtirish hajmiga ta'sir ko'rsatadigan omillar yuzasidan ko'p omilli regressiya tenglamasini tuzish uchun yuqorida berilgan asosiy omillarning regression modelda qanday o'zgarib borishi kuzatiladi. Umuman olganda, mazkur regressiya modeli quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$u = a_0 + a_1 * \beta_1 + a_2 * \beta_2 + a_3 * \beta_3 + a_4 * \beta_4 + \ldots + a_n * \beta_n, \qquad (4)$$

bu yerda, u – natijaviy bog'liq o'zgaruvchi; $\beta_1$, $\beta_2$, $\beta_3$, $\beta_4$ ..... $\beta_n$ - o'zaro ta'sir qiladigan omillar hisoblanadi.

Microsoft Excel dasturida "Analiz dannых" paketidan foydalanib, eng kichik kvadratlar metodini tatbiq etgan holda quyidagi regressiya tahlili bo'yicha natijalarni olamiz (3.6-jadval).

Ko'p omilli regression tahlildan ko'rinib turibdiki, grek yong'og'i ekilgan maydon ($x_1$) o'rtacha 1 ga oshirilganda, grek yong'og'i yalpi hosili hajmi o'zgarishi o'rtacha 3,52 tonnaga ortadi, bunda hududda barpo etilgan intensiv yong'oqzorlarning hosilga kirishi natijasi bilan ifodalasa bo'ladi. Shu bilan birga, yong'oq qayta ishlash hajmi ($x_2$) 1 tonnaga ko'tarilishi natijasida yong'oq yalpi hosili yetishtirish hajmi 2,496 tonnaga ortishi nazarda tutiladi modelda. Bunga asosiy sabab sifatida, istiqbolda yong'oqchilik klasterlarining rivojlanishi, yong'oq va yong'oq mahsulotlarini qayta ishlash sanoati, konditerlik yo'nalishining yanada taraqqiy etishi, serhosil navlarni yaratilishi va intensiv ko'chat bilan ta'minlash tizimiga mahalliy sharoitda katta ahamiyat berilishi, tobora ko'payib borayotgan aholining yong'oq mahsulotlariga bo'lgan talabi ortib borishi, raqamli texnologiyalarni sohaga kirib

kelishi, shu bilan birga, davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida investitsion loyihalarni tatbiq etilishi orqali qo'shimcha ish o'rinlarini shakllanishi kabi yo'nalishlarni keltirib o'tsa bo'ladi.

**3.6-jadval.**

**Microsoft Excel dasturi orqali "Анализ данных" paketi yordamida yong'oq yalpi hosili hajmi va tanlangan omillar o'rtasidagi munosabat modeli (Andijon viloyati misolida)[87]**

| **Bog'liq natijaviy o'zgaruvchi va bog'liq bo'lmagan (mustaqil) o'zgaruvchilar (omillar)** | **Koeffitsient** | **t-Statistika** | **Ehtimolligi** |
|---|---|---|---|
| $\beta_1$ – yong'oq ekilgan maydon, ga | 3,520 | 4,252 | 0,0053 |
| $\beta_2$ – yong'oq qayta ishlash hajmi, tonna | 2,496 | 2,463 | 0,0489 |
| $\beta_3$ – jami sarflangan mineral o'g'it, tonna | 1,262 | 2,078 | 0,0829 |
| $\beta_4$ – yillik o'rtacha harorat, S° | 13,081 | 0,043 | 0,9668 |
| $\beta_5$ – yillik o'rtacha yog'ingarchilik miqdori, mm | 8,6307 | 2,929 | 0,0263 |
| *_cons* | -3297,8 | -0,823 | 0,442 |
| *$R^2$ - determinatsiya koeffitsienti* | 0,9881 | | |
| *Tekislangan R – kvadrat* | 0,9782 | | |
| *Regressiyaning standart xatoligi* | 352,86 | | |
| *Ehtimollik (F - statistika)* | 0,0000108 | | |

$$Y = -3297{,}8 + 3{,}52*\beta_1 + 2{,}496*\beta_2 + 1{,}262*\beta_3 + 13{,}081*\beta_4 + 8{,}631*\beta_5 \quad (5)$$

[87] Microsoft Excel dasturiy ta'minoti orqali «Анализ данных» paketi yordamida muallif tomonidan tahlil qilingan.

Yana qo‘shimcha qilib aytish joizki, bizningcha, ishlab chiqarish infratuzilmalari, sohada axborot va maslahat (konsalьting) xizmat ko‘rsatish tizimini tashkil etish hamda rivojlantirish, shuningdek, yong‘oq va yong‘oq mahsulotlarini qayta ishlash tizimini rivojlanishi, tog‘ va tog‘oldi hududlarida lalmikor yerlardan oqilona foydalanish, yong‘oq klasterlarini ko‘paytirish sohada tarkibiy-miqdoriy o‘zgarishlar va innovatsion loyihalarni tatbiq etish bilan bevosita bog‘liq jarayonlar hisoblanadi.

Bundan tashqari, jami sarflangan mineral o‘g‘it miqdori 1 tonnaga oshirilishi ($x_3$), sohada yong‘oq yetishtirish hajmini qariyb 1,3 tonnaga ortishi mumkinligini ko‘zda tutadi.

Ko‘p omilli regressiya modeliga ko‘ra, $R^2$ determinatsiya koeffitsienti 0,9881 ga teng. Bu esa bog‘liq bo‘lgan natijaviy omilning modelga kiritilgan omillar bilan kuchli zich aloqadorlikda ekanligini ifodalaydi, qishloq xo‘jaligida yong‘oq yalpi hosili hajmining o‘zgarishi (Y) 98,81 foizga ko‘p omilli regression model uchun ajratib kiritilgan omillarga bog‘liqligi kelib chiqadi. Qolgan 1,19 foizi esa, boshqa ko‘zda tutilmagan omillarning o‘zaro ta’sir darajalariga bog‘langanligi bilan izohlanadi.

2013-2022 yillarda Andijon viloyati bo‘yicha yong‘oq yetishtirish hajmini o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillarning nazariy qator hadlarini hisoblash usuli orqali chiziqli trend modellarini aniqlaymiz (3.7-jadval).

**3.7-jadval.**

**2013-2022 yillar mobaynida Andijon viloyati bo'yicha yong'oq yetishtirish hajmini o'zgarishi dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillar**[88]

| Yillar | Yong'oq yetishtirish hajmi, tonna | Yong'oq ekilgan maydon, ga | Yong'oq qayta ishlash hajmi, tonna | Jami sarflangan mineral o'g'it, tonna | Yillik o'rtacha harorat, S° | Yillik o'rtacha yog'ingarchilik miqdori, mm |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | $U$ | $X_1$ | $X_2$ | $X_3$ | $X_4$ | $X_5$ |
| 2011 | 789 | 66 | 165 | 373 | 13,9 | 345,9 |
| 2012 | 1178 | 83 | 235 | 870 | 13 | 278,8 |
| 2013 | 1466 | 106 | 297 | 775 | 13,8 | 325,9 |
| 2014 | 2549 | 147 | 324 | 820 | 14,2 | 354 |
| 2015 | 3034 | 211 | 380 | 646 | 13,1 | 389,8 |
| 2016 | 3746 | 324 | 450 | 1200 | 14,4 | 335,6 |
| 2017 | 4397 | 683 | 528 | 663 | 14,1 | 340,1 |
| 2018 | 4886 | 918 | 586 | 847 | 14,6 | 301 |
| 2019 | 5933 | 1087 | 712 | 572 | 14,7 | 267 |
| 2020 | 6980 | 1223 | 838 | 775 | 14,9 | 317,7 |
| 2021 | 7022 | 1223 | 1113,3 | 806 | 14,4 | 216,9 |
| 2022 | 7542 | 1225 | 1173,4 | 825 | 14,4 | 310 |

[88] Andijon viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

**Nazariy qator hadlarini hisoblash**[89]

| t | $t^2$ | $X_1$ | $X_1 \cdot t$ |
|---|---|---|---|
| -6 | 36 | 66 | -396 |
| -5 | 25 | 83 | -415 |
| -4 | 16 | 106 | -424 |
| -3 | 9 | 147 | -441 |
| -2 | 4 | 211 | -422 |
| -1 | 1 | 324 | -324 |
| 1 | 1 | 683 | 683 |
| 2 | 4 | 918 | 1836 |
| 3 | 9 | 1087 | 3261 |
| 4 | 16 | 1223 | 4892 |
| 5 | 25 | 1223 | 6115 |
| 6 | 36 | 1225 | 7350 |
| **$\sum t = 0$** | **182** | **7296** | **21715** |

**1)** $X_1 = a_0 + a_1 * t$; $a_0 = \sum X_1 / n = 7296/12 =$ **608;**
$a_1 = \sum X_1 * t / \sum t^2 = 21715/182 =$ **119,3.**

Demak, yong‘oq ekilgan maydon o‘zgarishi bo‘yicha trend modeli:

$$X_1 = 608 + 119{,}3 \cdot t \qquad (6)$$

**Nazariy qator hadlarini hisoblash**[90]

| t | $t^2$ | $X_2$ | $X_2 \cdot t$ |
|---|---|---|---|
| -6 | 36 | 165 | -990 |
| -5 | 25 | 235 | -1175 |
| -4 | 16 | 297 | -1188 |
| -3 | 9 | 324 | -972 |
| -2 | 4 | 380 | -760 |
| -1 | 1 | 450 | -450 |
| 1 | 1 | 528 | 528 |
| 2 | 4 | 586 | 1172 |

[89] Nazariy qator hadlarini hisoblash metodi asosida omillarning trend modellari tuzilgan.
[90] Nazariy qator hadlarini hisoblash metodi asosida omillarning trend modellari tuzilgan.

| | | | |
|---|---|---|---|
| 3 | 9 | 712 | 2136 |
| 4 | 16 | 838 | 3352 |
| 5 | 25 | 1113,3 | 5566,5 |
| 6 | 36 | 1173,4 | 7040,4 |
| **∑t = 0** | **182** | **6801,7** | **14259,9** |

**2)** $X_2 = a_0+a_2*t$; $a_0 = \sum X_2/n$ **=** 6801,7/12 = **566,8;**
$a_2 = \sum X_2*t / \sum t^2$ = 14259,9/182 =**78,35.**

Yong'oq qayta ishlash hajmi o'zgarishi bo'yicha trend modeli:

$$\mathbf{X_2 = 566{,}8 + 78{,}35 \cdot t} \quad \mathbf{(7)}$$

**Nazariy qator hadlarini hisoblash**[91]

| **t** | **$t^2$** | **$X_3$** | **$X_3 \cdot t$** |
|---|---|---|---|
| -6 | 36 | 373 | -2238 |
| -5 | 25 | 870 | -4350 |
| -4 | 16 | 775 | -3100 |
| -3 | 9 | 820 | -2460 |
| -2 | 4 | 646 | -1292 |
| -1 | 1 | 1200 | -1200 |
| 1 | 1 | 663 | 663 |
| 2 | 4 | 847 | 1694 |
| 3 | 9 | 572 | 1716 |
| 4 | 16 | 775 | 3100 |
| 5 | 25 | 806 | 4030 |
| 6 | 36 | 825 | 4950 |
| **∑t = 0** | **182** | **9172** | **1513** |

**3)** $X_3 = a_0+a_3*t$; $a_0 = \sum X_3/n$ **=** 9172/12 = **764,3;**
$a_3 = \sum X_3*t/\sum t^2$ = 1513/182 = **8,3.**

Jami sarflangan mineral o'g'it hajmi o'zgarishi omili bo'yicha trend modeli:

[91] Nazariy qator hadlarini hisoblash asosida trend modellar ishlab chiqilgan.

$$\mathbf{X_3 = 764{,}3 + 8{,}3 \cdot t \quad (8)}$$

**Nazariy qator hadlarini hisoblash**[92]

| t | $t^2$ | $X_4$ | $X_4 \cdot t$ |
|---|---|---|---|
| -6 | 36 | 13,9 | -83,4 |
| -5 | 25 | 13 | -65 |
| -4 | 16 | 13,8 | -55,2 |
| -3 | 9 | 14,2 | -42,6 |
| -2 | 4 | 13,1 | -26,2 |
| -1 | 1 | 14,4 | -14,4 |
| 1 | 1 | 14,1 | 14,1 |
| 2 | 4 | 14,6 | 29,2 |
| 3 | 9 | 14,7 | 44,1 |
| 4 | 16 | 14,9 | 59,6 |
| 5 | 25 | 14,4 | 72 |
| 6 | 36 | 14,4 | 86,4 |
| **∑t = 0** | **182** | **169,5** | **18,6** |

**4)** $X_4 = a_0 + a_4 * t$; $a_0 = \sum X_4/n$ **=** $169{,}5/12 =$ **14,1;**
$a_4 = \sum X_4 * t / \sum t^2 = 18{,}6/182 =$ **0,1.**

Yillik o‘rtacha harorat o‘zgarishi omili bo‘yicha trend modeli:

$$\mathbf{X_4 = 14{,}1 + 0{,}1 \cdot t \quad (9)}$$

**Nazariy qator hadlarini hisoblash**[93]

| t | $t^2$ | $X_5$ | $X_5 \cdot t$ |
|---|---|---|---|
| -6 | 36 | 345,9 | -2075,4 |
| -5 | 25 | 278,8 | -1394 |
| -4 | 16 | 325,9 | -1303,6 |
| -3 | 9 | 354 | -1062 |
| -2 | 4 | 389,8 | -779,6 |
| -1 | 1 | 335,6 | -335,6 |

[92] Nazariy qator hadlarini hisoblash asosida trend modellar ishlab chiqilgan.
[93] Nazariy qator hadlarini hisoblash asosida trend modellar ishlab chiqilgan.

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1 | 1 | 340,1 | 340,1 |
| 2 | 4 | 301 | 602 |
| 3 | 9 | 267 | 801 |
| 4 | 16 | 317,7 | 1270,8 |
| 5 | 25 | 216,9 | 1084,5 |
| 6 | 36 | 310 | 1860 |
| **∑t = 0** | **182** | **3782,7** | **-991,8** |

**5)** $X_5 = a_0+a_5*t$; $a_0 = \sum X_5/n$ **=** 3782,7/12 = **315,2;**
$a_5 = \sum X_5*t / \sum t^2$ = -991,8/182 = -5**,45.**

Yillik o‘rtacha yog‘ingarchilik miqdori o‘zgarishi omili bo‘yicha trend modeli:

$$\mathbf{X_5 = 315{,}2 - 5{,}45\cdot t \quad (10)}$$

Endi trend modellari orqali har bir omil bo‘yicha prognoz qiymatlarini aniqlaymiz. Bunga ko‘ra, grek yong‘og‘i ekilgan maydon 2022 yilga nisbatan 2030 yilda 2,44 marotabaga ortishi ko‘zlanmoqda. Bunga asosiy sabab sifatida ko‘plab mahalliy va intensiv yong‘oqzorlarning barpo etilishi bilan izohlash mumkin bo‘ladi (3.8-jadval).

Shuningdek, grek yong‘og‘ini qayta ishlash hajmining o‘zagirishi prognoz qiymatini tahlil qiladigan bo‘lsak, 2022 yilda 1173,4 tonnani tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2030 yilga borib 2133,8 tonnani tashkil qilishi yoki 2022 yilga nisbatan 1,82 barobarga ortishi mumkinligi ko‘zda tutiladi. Bunga asosiy sabab qilib, yong‘oqchilikda qayta ishlashni rivojlanishi bevosita sanoatning boshqa sohalarini (konditerlik, kosmetika, va h.k.) ham rivojlanishiga olib kelishi bilan izohlash mumkin.

**3.8-jadval.**

**Andijon viloyatida 2023 – 2030 yillarga mo'ljallangan har bir omil va yong'oq yalpi hosili hajmi bo'yicha prognoz qiymatlar**[94]

| Yillar | Y | $X_1$ | $X_2$ | $X_3$ | $X_4$ | $X_5$ |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 2023* | 15125,2 | 2158,9 | 1585,4 | 872,2 | 15,4 | 244,4 |
| 2024* | 15629,0 | 2278,2 | 1663,7 | 880,5 | 15,5 | 238,9 |
| 2025* | 16132,7 | 2397,5 | 1742,1 | 888,8 | 15,6 | 233,5 |
| 2026* | 16636,4 | 2516,8 | 1820,4 | 897,1 | 15,7 | 228,0 |
| 2027* | 17140,2 | 2636,1 | 1898,8 | 905,4 | 15,8 | 222,6 |
| 2028* | 17643,9 | 2755,4 | 1977,1 | 913,7 | 15,9 | 217,1 |
| 2029* | 18147,8 | 2874,7 | 2055,5 | 922,0 | 16,0 | 211,7 |
| 2030* | 18651,5 | 2994,0 | 2133,8 | 930,3 | 16,1 | 206,2 |

*berilgan yillar bo'yicha prognoz qiymatlari.

Bilamizki, har qanday qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirishda mineral o'g'itlardan foydalaniladi. Yong'oq yetishtirishda ham jami sarflanadigan mineral o'g'itlar miqdorining prognoz ko'rsatkichlariga ko'ra, 2030 yilga borib 2022 yilga nisbatan Andijon viloyatida grek yong'og'ini yetishtirish uchun 105,3 tonnaga yoki 112,7 foizga ko'p mineral o'g'itlar ishlatilishi mumkinligi kutilmoqda. Bunga sabab qilib, intensiv yong'oq ekilgan maydonlarning hajmini ortishi bilan izohlash mumkin bo'ladi.

Shuningdek, intensiv yong'oqchilikni rivojlantirish sharoitida bevosita iqlim o'zgarishi bilan bog'liq omillarning ta'sirini ham o'rganish maqsadga muvofiq. Shu boisdan, yillik o'rtacha harorat va yillik o'rtacha yog'ingarchilik miqdorining prognoz parametrlariga ko'ra, 2030 yilga borib 2022 yilga nisbatan yillik o'rtacha haroratning 11,8 foizga ortishi, aksincha, yillik o'rtacha yog'ingarchilik miqdori esa 33,5 foizga kamayishi mumkinligi kutilmoqda. Bunga asosiy sabab bugungi kunda dunyo miqyosida global iqlim o'zgarishlari, yozning o'ta quruq va juda issiq, qishning esa juda sovuq holatda bo'lishi bilan izohlash mumkin. Shu boisdan ham, hozirda intensiv yong'oqchilik xo'jaliklarida tomchilatib

94 Trend modellari asosida har bir omil bo'yicha muallif tomonidan prognoz qiymatlari hisoblangan.

sug‘orish usulidan keng foydalanilib, bu intensiv texnologiya sifatida o‘z o‘rnida, suv resurslarini tejashga, shuningdek, yog‘ingarchilik miqdori kamayib borish tendensiyasi va haroratning ko‘tarilib borishi sharoitlarida yong‘oqning tomiriga yetkazilgan suvning ortiqcha bug‘lanib ketishini oldini olishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda Andijon viloyatida yong‘oq yetishtirish hajmi ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak, 2022 yilda dehqon xo‘jaliklari hissasiga 4500 tonna (59,7%), fermer xo‘jaliklari hissasiga 2845 tonna (37,7%) va qishloq xo‘jaligi korxonalari hissasiga esa 197 tonna (2,6%) to‘g‘ri kelganini ko‘rish mumkin (3.11, 3.12-rasmlar).




**3.11-rasm. Andijon viloyatida yong‘oq yetishtirishning ishlab chiqaruvchilar guruhlari kesimida 2030 yilgacha bo‘lgan prognozi.**

Yong‘oq yalpi hosili yetishtirish hajmi o‘zgarishining prognozi barcha ishlab chiqaruvchilar guruhlari kesimida to‘g‘ri chiziqli funksiya yordamida hisoblandi.




**3.12-rasm. Andijon viloyatida yong‘oq yetishtirish hajmini 2030 yilgacha bo‘lgan prognozi.**

Bunga ko‘ra, 2030 yilga borib viloyatda 18651,5 tonna grek yong‘og‘i yetishtirishi, shu jumladan, dehqon xo‘jaliklarida 13176,1 tonna (70,7%), fermer xo‘jaliklaridan 5027,8 (26,9%) va qishloq xo‘jaligi korxonalari 447,6 tonnaga (2,4%) yetishi ko‘zda tutilmoqda.

Umuman olganda, yong‘oqchilik sohasida grek yong‘og‘ini yetishtirish hajmiga ta’sir ko‘rsatadigan asosiy omillarning ta’sir darajalarini va o‘zgarish tendensiyalarini ko‘p omilli regression, vaqt bo‘yicha chiziqli trend modellar yordamida baholash, xulosalar ishlab chiqish, prognoz ko‘rsatkichlarini asoslagan holda takliflar tayyorlash ijobiy natija berishi mumkin.

Xulosa qilganda, hududlarning tuproq-iqlim shart-sharoitlari, yillik o‘rtacha yog‘ingarchilik miqdori, yillik o‘rtacha harorat, yong‘oqning serhosil navini tanlash, yong‘oq ekilgan maydon, jami sarflangan mineral o‘g‘it miqdori, yong‘oqni qayta ishlash hajmini o‘zgarib borishi kabi bir necha omillarning ta’sirlari va bevosita aloqadorlik munosabatlarini inobatga olgan holda yong‘oqchilikni tashkil etish istiqbolda mahsulot yetishtirish hajmini oshirish imkoniyatini yaratadi.

## UCHINCHI BOB BO'YICHA QISQACHA XULOSALAR

1. Yong'oq yetishtirish va uni qayta ishlashning integratsiyalashgan sxemasini yaratishda investitsion strategiyani amalga oshirishning imtiyozlaridan foydalanish imkoniyatlari saqlanib qoladi. Yong'oq kompleksida investitsiya siyosatining asosiy yo'nalishlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

-Importning o'rnini bosish maqsadida O'zbekistonning yong'oqchilik milliy mahsulotida yong'oqni sanoatda qayta ishlashning xom ashyo bazasini kengaytirish. Natijada quvvatlar to'la ishga tushadi, ishlab chiqarish rentabelligi va kapitaldan foydalanish samaradorligi sezilarli oshadi.

- Milliy xom ashyo asosida yong'oq ishlab chiqarish va sanoatda qayta ishlashni o'zlashtirish.

- Qandolat tarmog'i uchun yangi mahsulot bo'lgan tozalangan kashtanni qayta ishlash va kashtan uni hamda parhez oziq-ovqatlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish. Bu yo'nalishda hatto MDHda raqobat mavjud emas.

2. Yong'oqchilik sohasini rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlari-ni tahlil qilib aytish mumkinki, tashkiliy jihatlar va ularni amalga oshirilishida erishiladigan natijalarni quyidagi yo'nalishlarda ko'rish mumkin. Bizningcha, tashkiliy mexanizmlar va ularni amalga oshirish pirovardida quyidagi natijalarga erishish mumkin deb hisoblaymiz:

- biolaboratoriyalar usulida serhosil navlarni ishlab chiqish;
- yong'oqchilik ITM bilan hamkorlikda konsalting xizmatlarini tashkil etish;
- mutaxassis kadrlarni malakasini muntazam oshirib borish;
- kasallik va hasharotlarga qarshi kurashish uchun biologik usullardan foydalanish;
- yong'oqchilik xo'jaliklari uchun ilmiy-uslubiy ishlanmalar, tavsiyalar ishlab chiqish.

Yuqorida keltirilgan tashkiliy mexanizmlarni amalga natijasida quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- yakuniy iste'molchiga xavfsiz va sifatli mahsulot yetkazib beriladi;

- amaldagi mavjud muammolar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi va takliflar ishlab chiqiladi;

- resurstejamkor texnologiyalar asosida moddiy va mehnat resurslari sarfi kamayadi;

- yong'oq yetishtirish iqtisodiy samaradorligi ortadi.

3. Shu nuqtai-nazardan bizningcha, yong'oqchilik sohasini qo'llab–quvvatlash mexanizmi quyidagilarni o'z ichiga olishi zarur:

– intensiv texnologiyalarni joriy qilish yo'nalishidagi yong'oqchilik fermer xo'jaliklarini ikki yilga soliqlardan ozod qilish bilan birga, ularga uch yil muddatga imtiyozli kreditlar ajratish mexanizmini ishlab chiqish;

– yong'oqni qaytash ishlash korxonalarini tashkil qilishda ikki yil muddatga foizsiz kreditlar berish tizimini yaratish;

– sohada kichik sex, qayta ishlash korxonalarini rag'batlantirish yuzasidan investitsiyalarni jalb qilishda fermer va dehqon xo'jaliklarini iqtisodiy hamda huquqiy bilimlarini oshirishga mo'ljallangan o'quv seminarlar, ko'rgazmalarni tashkil qilish va muntazam o'tkazib borish;

– respublikamiz hududlarida yong'oq mahsulotlari ulgurji bozorini shakllantirish va umuman yong'oq sotish tizimini takomillashtirish;

– mamlakatimizda yetishtirilayotgan yong'oq turlari serhosil navlarini ishlab chiqish, iqlim sharoitimizga mos yong'oq turlarini ko'paytirish bo'yicha tadqiqot ishlarini kuchaytirish;

– intensiv ko'chatchilik tizimini rivojlantirish.

4. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, eksportbop ko'chat navlari yetkazib beruvchilarni rag'batlantirish, axborot ta'minotini yaratish, kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish va o'qitish hamda kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish orqali yong'oq yetishtirishda intensiv ko'chat bilan ta'minlash tizimini rag'batlantirish maqsadga muvofiq.

5. Umuman olganda hududlarning tuproq-iqlim shart-sharoitlari, yong'oqning serhosil navini tanlash, organik va mineral o'g'it miqdori, yong'oq hosildorligi o'zgarishi hamda yong'oq va yong'oq mahsulotlarini qayta ishlash hajmini o'zgarib borishi, yong'oqning bozor narxini o'zgarib turishi kabi omillarning

ta’sirlari va bevosita aloqadorlik munosatlarini inobatga olgan holda yong‘oqchilikni tashkil etish istiqbolda mahsulot yetishtirish hajmini oshirish imkoniyatini yaratadi. Xususan, ushbu holatda Andijon viloyatida 2030 yilga borib, grek yong‘og‘i yetishtirilishi hajmi 18651,5 tonnani tashkil etadi.

Umuman olganda yong‘oqchilikni rivojlantirish va samaradorligini oshirishda davlatning qo‘llab-quvvatlovchi siyosati muhim o‘rin egallaydi. Bugungi kunda yong‘oq yetishtirish hajmini oshirish, yong‘oqni saqlash va qayta ishlash, intensiv va resurstejamkor raqamli texnologiyalarni joriy qilish borasida davlat tomonidan rag‘batlantirish dastaklarini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

# XULOSALAR

“Yong‘oq yetishtirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillash-tirish” mavzusidagi falsafa doktori dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Yong‘oqchilik tarmog‘i o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularni inobatga olmasdan turib sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash va tahlil qilish imkoniyati mavjud emas. Shu sababli, dissertatsiyada yong‘oqchilik sohasining o‘ziga xos xususiyatlari tizimlashtirilgani holda tarmoq samaradorligini baholash bo‘yicha uslubiy yondashuv takomillash-tirilgan.

2. Yong‘oqchilikni rivojlantirish bo‘yicha xorijiy davlatlarning ahamiyatga molik jihatlarini respublikamizda joriy etish bo‘yicha amaliy ahamiyatga molik takliflar ishlab chiqilgan.

Mamlakatimizda mustaqillik yillaridan buyon yong‘oqchilik tarmog‘ini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijalarini uch bosqichga, ya’ni birinchi bosqich 1990-2002 yillarni o‘z ichiga olgani holda islohotlarning dastlabki davr bosqichi, ikkinchi bosqich 2003-2016 yillar – islohotlarni chuqurlashtirish davri bosqichi hamda 2017 yildan hozirga qadar izchil tarkibiy islohotlar davri bosqichiga bo‘lib tadqiq etilgan va shu bosqichlarga mos tarmoq rivojlanishidagi asosiy tendensiyalar aniqlangan. Natijada respublika bo‘yicha jami bog‘ maydoni 2020-yilda 2016 yilga nisbatan 120,4 foizga yoki 57 ming ga, shundan hosilga kirgan bog‘lar maydoni hajmi esa, 2016 yilga nisbatan 102,6 foizga yoki 6000 gektarga ortgan.

3. Tahlillar ko‘rsatishicha, eng kam minimum darajadagi hosildorlik va mahsulot narxini chakana baholardan 25-30 foiz kam baholarda hisoblangan holatda ham mahsulot ishlab chiqarishdan an’anaviy usulda har gektar yerdan olinadigan daromad 42059-51467 ming so‘mni, intensiv usulda esa 86838-103549 ming so‘mni tashkil etgan. Mahsulot ishlab chiqarishning rentabellik darajalari mos ravishda 150,4 va 329,5 foizga teng bo‘lgan. Hisob-kitoblarga ko‘ra, bir gektar yong‘oqzor barpo etish bilan bog‘liq xarajatlar o‘rtasidagi farqlar intensiv usulda 8-9 martaga yuqoriligini ko‘rish

mumkin. Shunday boʻlsada, dissertatsiyada intensiv usulda yongʻoq yetishtirishning iqtisodiy jihatdan samarali ekanligi asoslangan.

4. Yongʻoq yetishtirishda resurslar samaradorligi ilmiy asosda hisob-kitob qilingan. 10 tonna yongʻoq mahsulotini yetishtirish uchun talab etiladigan yer maydoni, yongʻoq koʻchatlar soni talab etiladigan sugʻorish suvi, mineral oʻgʻitlar, yonilgʻi moylash materiallari, mehnat sarfi, bogʻ barpo etish xarajatlari, yillik parvarishlash xarajatlari mahsulot yetishtirishning turli usullarida taqqoslanib, mineral oʻgʻit sarfi 30 foiz, mehnat sarfi 50 foiz va sugʻorish suvi sarfi 14 foizgacha kamayishi asoslangan.

5. Monografik tadqiqot natijalariga koʻra, Andijon viloyati Oltinkoʻl tumani yongʻoqchilik xoʻjaliklarining 70 foizi, Paxtaobod tumanida xoʻjalik-larning 67 foizi va Izboskan tumanida xoʻjaliklarning 61 foizi tarmoqda konsalьting xizmat koʻrsatish turini tashkil etish va rivojlantirishning maqsadga muvofiqligi ta’kidlangan. Shuningdek, respondentlar tomonidan yongʻoqchilikda zamonaviy marketing usullarini joriy qilish uchun yongʻoq yetishtirish bilan shugʻullanadigan dehqon va fermer xoʻjaliklarining bilim va amaliy koʻnikmalarini, iqtisodiy, texnologik, huquqiy bilimlarini oshirish maqsadida oʻquv seminar-treninglar va vorkshoplarni tashkil etish muhimligi qayd etilgan.

6. Yongʻoq bozori mamlakatimiz uchun nisbatan yangi bozor boʻlib, hozirda u endi shakllanish bosqichida. Ushbu bozorning ahamiyati quyidagi sabablarga koʻra ortib bormoqda. Birinchidan, bu qandolat, non mahsulotlari uchun resurs bazasi. Ushbu sohadagi korxonalar uchun yongʻoqni xom ashyo koʻrinishida emas, xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlangan (qovurilgan, maydalangan va boshqa) shaklda yongʻoqni sotib olish ancha arzon. Ikkinchidan, bu chakana savdo tizimida qadoqlangan yongʻoqlarni sotishdir. Muallif tomonidan olib borilgan marketing tadqiqotlari aholining yongʻoqqa boʻlgan talabi tez oʻsib borayotganligini koʻrsatdi. Uchinchidan, bu qovurilgan va maydalangan yongʻoqlarning eksporti muhim ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqqan holda dissertatsiyada mavjud holat tahlil qilingan, muammolar aniqlangani holda tizimda marketing xizmatlarini tashkil etish hamda ichki va tashqi bozorda samarali sotish tizimini tashkil etish boʻyicha takliflar asoslangan.

7. Yong‘oqchilik sohasi istiqbolli rivojlanishi bo‘yicha SWOT tahlil amalga oshirildi. Unga ko‘ra, bizningcha sohani barqaror rivojlantirish bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

– respublikada grek yong‘og‘i yetishtirish va uning samaradorligini oshirishda intensiv texnologiyalardan foydalanishni kuchaytirish;

– sifatli ko‘chat yetishtirish tizimini yo‘lga qo‘yish va laboratoriya sharoitida serhosil navlarni ishlab chiqishni yanada rivojlantirish;

– hududlar iqlimiga mos yong‘oq turlarini yetishtirishni yo‘lga qo‘yish hamda malakali kadrlar bilan ta’minlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish;

– yong‘oq yetishtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirishda intensiv va raqamli texnologiyalarni joriy etish;

– yong‘oq yetishtirish va sotish hamda saqlash tizimidagi muammolarni bosqichma-bosqich bartaraf etish orqali mahsulotni yakuniy iste’molchilarga sifatli tarzda yetkazib berilishini ta’minlash va boshqalar.

8. Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, eksportbop ko‘chat navlari yetkazib beruvchilarni davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, axborot ta’minotini yaratish, kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish va o‘qitish hamda kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish orqali yong‘oq yetishtirishda intensiv ko‘chat bilan ta’minlash tizimini rag‘batlantirish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda hududlarning tuproq-iqlim shart-sharoitlari, yillik o‘rtacha yog‘ingarchilik miqdori, yillik o‘rtacha harorat, yong‘oqning serhosil navini tanlash, yong‘oq ekilgan maydon, jami sarflangan mineral o‘g‘it miqdori, yong‘oqni qayta ishlash hajmini o‘zgarib borishi kabi bir necha omillarning ta’sirlari va bevosita aloqadorlik munosabatlarini inobatga olgan holda yong‘oqchilikni tashkil etish istiqbolda mahsulot yetishtirish hajmini oshirish imkoniyatini yaratadi. Xususan, ushbu holatda Andijon viloyatida 2030 yilga borib, grek yong‘og‘ini yetishtirish hajmi 18651,5 tonnani tashkil etadi.

# FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR RO‘YXATI

## I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1.1. O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, https://lex.uz/acts/152653 O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 y., 5-6-son, 82-modda; 2003 y., 9-10-son, 149-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2004 y., 25-son, 287-modda, 51-son, 514-modda; 2007 y., 52-son, 533-modda; 2009 y., 3-son, 9-modda, 52-son, 555-modda; 2011 y., 1-2-son, 1-modda; 2014 y., 4-son, 45-modda, 36-son, 452-modda; 2015 y., 33-son, 439-modda; 2017 y., 37-son, 978-modda.

1.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 iyundagi “Yong‘oq ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasini tuzish va uning faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori. Xalq so‘zi 2017 yil 17 yanvar. https://lex.uz/docs/3225162. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 23-son, 452-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 27.01.2021 y., 06/21/6146/0065-son.

1.3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 9 yanvardagi «Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasida iqtisodiy islohotlarni chukurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi PF-3709-son Farmoni. - T.: 2006 y. https://lex.uz/docs/967545. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2006 y., 2-son, 6-modda; 2009 y., 10-11-son, 105-modda; 15-son, 180-modda; 2011 y., 4-5-son, 32-modda; 2011 y., 52-son, 558-modda.

1.4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 11 yanvardagi «Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqur-lashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-255-Qarori.-T.:2006. https://nrm.uz/contentf?doc=315531. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2006 y., 2-son, 8-modda, 27-son, 246-modda; 2009 y., 15-son, 180-modda; 2010 y.,20-son, 151-modda; 2011 y., 52-son, 561-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 21.11.2017 y., 07/17/3398/0282-son.

1.5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Meva-sabzavot, uzum va poliz mahsulotlarini eksport kilishni ragbatlantirishga doir qo‘shimcha. chora-tadbirlar” 2016 yil 19 sentabrь. PK-2603-Karori. https://lex.uz/docs/ 3031551. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari

to‘plami, 2016 y., 38-son, 447-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.12.2017 y., 06/17/5287/0425-son; 23.02.2019 y., 06/19/5668/2652-son.

1.6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 -yil 17 oktabrdagi “Meva-sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PK-3978-sonli Qarori. https://lex.uz/docs/3897678. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 18.10.2018 y., 07/18/3978/2067-son; 25.05.2019 y., 07/19/4337/3182-son; 28.09.2020 y., 06/20/6075/1330-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.02.2022 y., 06/22/67/0128-son; 09.11.2022 y., 07/22/417/1004-son.

1.7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 martdagi “Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasini rivojlan-tirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PK-4239-Karori. https://lex.uz/docs/ 4242004. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.03.2019 y., 07/19/4239/2771-son.

1.8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 dekabrdagi “Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish, sohada qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4549 sonli qarori. https://lex.uz/docs/4641164. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 12.12.2019 y., 07/19/4549/4143-son; 07.05.2020 y., 07/20/4707/0545-son, 19.05.2020 y., 07/20/4716/0598-son, 07.10.2020 y., 07/20/4850/1358-son; *Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.07.2021 y., 06/21/6263/0685-son, 16.12.2021 y., 06/21/34/1164-son; 01.04.2022 y., 06/22/95/0267-son, 10.06.2022 y., 06/22/150/0516-son*.

1.9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 31martdagi “Oziq-ovqat xavfsizligi va ichki bozorda narxlar barqarorligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 147-sonli qarori. https://lex.uz/uz/docs/5933102. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.04.2022 y., 09/22/147/0255-son.

## II. Kitob, turkum nashrlari hamda jurnallardagi maqolalarga havolalar

2.1. Куликов И.М., Воробьев В.Ф., Хроменко В.В. и другие. Основные направления инновационного развития садоводства и питомниководства в России: -Москва: ФГБНУ

"Росинформагротех", 2017.-132с. http://agro-portal24.ru/plodovodstvo/1672-osnovnye-tipy-sadov-chast-2. html.

2.2. Лесникова Г. Сады интенсивного типа с точки зрения экономики. - «Аграрная Кубань» 06 декабря 2012 г. https://agro-sputnik.ru/index.php/ rastenivodstvo/661 -sady-intensivnogo-tipa.

2.3. Umurzoqov O'.P., Toshboev A.J., Toshboev A.A. Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. Iqtisod-Moliya. Toshkent. 2008 y. 276 b. https://staff.tiiame.uz/storage/users/36/books/9FBmTTiyWWEz0MiqlvuyuDWDc1AaemxXz1EzTsMv.pdf

2.4. Муртазаев О., Ахроров Ф. Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти. – Т., 2017.

2.5. И.Ч.Намозов, И.Т.Нормуратов Ёнғоқ етиштириш 53-китоб. Ўқув қўлланма. "Агробанк" АТБ. Нашриёт уйи "Тасвир", "Colorpack" МЧЖ. 2021. – Б. 7-8

2.6. David L. Debertin. Agricultural Production Economics Textbook. -2nd ed. Published by Macmillan. University of Kentucky, USA. 2012. https://core.ac.uk/download/232567424.pdf

2.7. Andrew Barkley and Paul W. Barkley. Principles of Agricultural Economics. -1nd ed. Published in the USA and Canada by RoutlrdgeTaylor&Francis Croup. USA. 2013.

2.8. Gerge W. Norton, Jeffrey Alwang and William A.Masters. Economics of Agricultural Development. -2nd ed. Published in the USA and Canada by RoutlrdgeTaylor&Francis Croup. USA. 2010.

2.9. McConnell, Brue. Economics: principles, problems and policies. 17th edition. America, NewYork: McGraw-Hill, 2018 https://www.worldcat.org/title/ economics-principles-problems-and-policies/oclc/963631475?referer=br&ht= edition

2.10. Определяем экономическую эффективность предприятия за год. https://www.profiz.ru/peo/12_2020/effektivnost_kompanii/

2.11. Садоводство Китая. https://brodskii.ru/publ/sadovodstvo_kitaja/ sadovodstvo_kitaja/3-1-0-27

2.12. Ф.Ахроров, H.Avezov O'zbekistonning yong'oq ishlab chiqarish salohiyati va istiqbollari: Samarqand viloyati kesimida. Current issues of bio economics and digitalization in the sustainable development of regions. International scientific - practical conference. 764-769-бетлар.

2.13. Сатторов О. Интенсив боғдорчиликни ривожлантиришнинг зарурати ва иқтисодий асослари. / Ж. Agro iqtisodiyot маҳсус son. -2019. - Б. 234-235. https://staff.tiiame.uz/storage/users/41/articles/8pZWk44SsOJT8zqyInoUrvRVTMT1QMcPdxS1eIz3.pdf

2.14. Сатторов О. Интенсив боғдорчиликни ривожлантиришнинг иқтисо-дий асосларини takomillashtirish йўналишлари./ Технический институт Ёджу. -Ташкент.-Сборник республиканской научной конференции. 22.02.2020.

2.15. Сатторов О. Интенсив боғдорчиликда маҳсулотни истеъмолчиларга етказиб бериш тизимини ривожлантиришнинг иқтисодий асослари./ Ж. -Agro iqtisodiyot маҳсус son. -2020. - Б. 340-341.

2.16. Larry Harper, Dr. William Kurtz. "Economics of Eastern Black Walnut Agroforestry Systems". School of Natural Resources, University of Missouri, USA. 2014.

2.17. B.S. Rakhmonova**.** Directions for increasing investment activity in the field of walnut growing and processing at the national and regional levels. Electronic journal of actual problems of modern science, education and training. july, 2022-7. ISSN 2181-9750. 24-29 бет http://khorezmscience.uz/uz (08.00.00. №22)

2.18. B.S. Rakhmonova**.** Ways of perspective development of walnut production in Andijan region. // Electronic journal of actual problems of modern science, education and training. december, 2020-vii. ISSN 2181-9750 23-31 бет http://khorezmscience.uz/uz (08.00.00. №22)

2.19. B.S.Rakhmonova**.** Prospects for the development of walnut cultivation in Uzbekistan. //Journal "Sustainable agriculture" ISSN 2181-9408 №2(6) 2021. P. 24-27(08.00.00 №27)

2.20. Рахмонова Б.С**.** Мамлакатимизда ёнғоқ ишлаб чиқаришнинг тарки-бий ва миқдорий ўзгаришлар тенденцияси // Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар. ISSN2181-7286 №6, 2021 (08.00.00 №28)

2.21. Рахмонова Б.С Значимость ореховых плантаций на мировом рынке. //Аграрная наука ISSN 0869-8155, №5, 2019 (www. agrovetpress@inbox.ru. Agris (7) Crossref (35 ))

2.22. B.S.Rakhmonova. Prospects for the Development of Walnut Clusters in a Digital Economy in Uzbekistan. European Journal of

Business Startups and Open Society. Vol. 2 No. 3 (2022). P. 20-24. EJBSOS ISSN: 2795-9228. (Scientific Journal Impact Factor(23); Crossref (35 ))

2.23. B.S. Rakhmonova. The situation with Walnut Production in Andijan Province, efficiency, and problems. // International journal of discourse on innovation, integration and education. Volume: 02 Issue: 02 | February 2021 ISSN: 2181-1067 Page 379-386 (Scientific Journal Impact Factor(23); Crossref (35 ))

2.24. Б.С.Рахмонова. Миллий ва митақавий даражада ёнғоқ етиштириш-нинг ахамияти. //“Банк, иқтисодиёт, туризм соҳаларида тадбиркорлик ва иннавацион ҳамкорлик” мавзусидаги ҳалқаро илмий-амалий конференцияси Бухоро 2018 йил 20 январ. 425-427 бет.

2.25. Б.С.Рахмонова. Ўзбекистонда ёнғоқ индустриясини ривожланти-риш. // “Ўзбекистон бозор ислоҳотлари шароитида банд бўлмаган аҳоли муаммо-ларини ечишда олий таълим муассасалари ролини ошириш” мавзусидаги ҳалқаро илмий-амалий конференция материаллари Фарғона 11-12-февраль 2019йил 251-252 бет.

2.26. Б.С.Рахмонова. Роль производства орехов в мировой экономике.// Сборник научных трудов международной конференции молодых ученых “наука и инновации”, 01/11/2019, Ташкент. Мини стерство инновационного развития Республики Узбекистан. С 353-355

2.27. Б.С.Рахмонова. Экономическая эффективность создания фисташко-вых плантаций в Узбекистане. //Аграрная наука XXI века. Актуальные исследования и перспективы. Научные труды III международной научно-практической конференции. Казань 2019.17.10 ISBN 978-5-905201-92-9 стр 428-430

2.28. Б.Рахмонова. Ўзбекистонда ёнғоқ етиштириш самарадорлиги. // Аграр соҳани барқарор ривожлантиришда фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграцияси «2020 йил–Илм-маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлан-тириш йили»га бағишланган профессор-ўқитувчи ва ёш олимларнинг III - масофавий илмий-амалий конференцияси Тошкент 21 май 2020 йил.

2.29. B.S. Rakhmonova. The trend of structural and quantitative changes in the production of nuts in Uzbekistan. //“Development issues of innovative economy in the agricultural sector” International

scientific-practical conference on March 25-26, 2021. Samarkand.Page 110-113.Web: http://conference. sbtsue. Uz/uz

2.30. Б.С. Раҳмонова. Республикамизда ёнғоқ етиштиришнинг ташкилий-иқтисодий асосларини истиқболли йўллари. //"Ўзбекистонда "Ақлли қишлоқ хўжалиги" ва "Қишлоқ хўжалиги-4,0" концепцияларини амалга ошириш: муаммолари ва ечимлари" мавзусидаги республика илмий-амалий анжуман материаллар тўплами. ТДИУ 2021 йил 554-бет.

2.31. Б.Рахмонова. Роль производства орехов в мировой экономике. Сборник научных трудов международной конференции молодых ученых "наука и инновации", 01/11/2019, Ташкент. Министерство инновационного развития Республики Узбекистан. С. 353-355.

2.32. Sangirova U.R, Khafizova Z.K., Kurbanova D.B., Rakhmonova, B.S., Kadirkhodjaeva F.B. A special place of walnuts in the world market (for example, Uzbekistan). Journal of Xi'an University of Architecture & Technology. Volume XII, Issue II, 2020. P. 2789-2796. ISSN No : 1006-7930. DOI: 20.19001.JAT.2020.XII.I2.20.2090

2.33. Nosirov B., Rakhmonova B. Organization of production of walnuts in an industrial volumes. International online conference ECLSS Economics and Social sciences. Proceeding book. June 28-29, 2020. Istanbul, Turkey. P. 59-67. http://eclss.org/publicationsfordoi/istanbulonline.pdf

2.34. Б.Носиров, Б.Рахмонова. Ўзбекистонда ёнғоқ ишлаб чиқаришнинг ташкилий-иқтисодий асосларини такомиллаштириш йўллари. Иқтисодиётда инновациялар. №10 (2020). 173-181-бет. ISSN 2181-9491. DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9491-2020-10-23

2.35. Рахмонова Б., Носиров Б. Ўзбекистонда Эрон тажрибаси асосида ёнғоқ етиштиришнинг самарадорлиги. //Иқтисодиётда инновациялар. №3 (2020). 47-53-бет. ISSN 2181-9491. DOI: 10.26739/2181-9491-2020-3-7 https://economy.tadqiqot.uz/index.php/economy/article/view/106/107

2.36. U.Sangirova, B.Nosirov, B.Rahmonova. Properties and potential of walnut growing in Uzbekistan. //JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, Volume 6, Issue 5, Page No. 140-146. ISSN : 2581-4230, https://journalnx.com/papers/20150963-potential-of-walnut.pdf

2.37. Носиров Б., Рахмонова Б. Ўзбекистонда хорижий тажрибалар ёрда-мида ёнғоқ етиштиришнинг истиқболлари. //“Аграр соҳани ривожлантиришда фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграцияси” конференция материаллари. ТДАУ. 21 май 2020. 1557-1561 б.

2.38. B.Nosirov, B.Rakhmonova. Organization of production of walnuts in an industrial volumes. //International online conference ECLSS Economics and Social sciences. June 28-29, 2020. Istanbul, Turkey. P. 59-67. http://eclss.org/publications fordoi/ istanbulonline.pdf

2.39. Носиров Б., Рахмонова Б. Ўзбекистонда ёнғоқ етиштиришни ривож-лантириш истиқболлари. //Иқтисодиётда инновациялар. №8 (2020). 79-85-б. ISSN 2181-9491. http://dx.doi.org/10.26739/2181-9491-2020-8-9

2.40. Носиров Б., Рахмонова Б. Ўзбекистонда ёнғоқ ишлаб чиқаришнинг ташкилий-иқтисодий асосларини такомиллаштириш йўллари. //Иқтисодиётда инновациялар. №10 (2020). 173-181-б. ISSN 2181-9491.

2.41. U.Sangirova, B.Nosirov, B.Rakhmonova. Organization of walnut production based on the industrial method in Uzbekistan. //Sustainable agriculture. 2(6).2020. p.24-26. http://sa.tiiame.uz/en/page/arxiv

2.42. Керашев М. А., Хашир А. А. Формирование и развитие рынка орехов в Российской федерации. // Научные подходы к решению проблем произ-водства продуктов питания — Ростов-на Дону, 2003

2.43. Joseph A. Grant, Janet L. Saprile. Sample sosts to establish a walnut orchard and produce walnuts. University of California Cooperative extension.2013. https://coststudyfiles.ucdavis.edu/uploads/cs_public/6d/d5/6dd51838-68ce-4294-83a5-1eeb460baeda/walnutvn2013.pdf

2.44. Evaluation of a walnut orchard and a cost study of the redevlopment of a walnut orchard. Jacob F. Samuel Winter 2011 https://digitalcommons.calpoly. edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1083&context=agbsp

2.45. Тхагушев Н.А. Орехоплодные в Краснодарском крае — Майкоп, 2003. https://search.rsl.ru/ru/record/01002461123

2.46. Материалы международной конференции переработчиков ореха — фундука - Турция, 2003

2.47. Тхагушев Н.А. Орехоплодные культуры Кубани и пути их дальнейшего развития. Труды Кубанского сельскохозяйственного института. Вып. 7 (35). Краснодарское книжное изд. 1962.

2.48. Хашир А. А., Керашев М. А. Рынок орехов как объект регулиро-вания. Управление развитием социально-экономических систем: глобализа-ции, предпринимательство, устойчивый экономический рост.Ч.2- Донецк, 2003

2.49. «The cracker»/ Ежеквартальный журнал международной ассоциации производителей и переработчиков орехоплодных культур, 2001.

2.50. Mahmoud Bakhshinejad. Estimation of Walnut Production Function in Selected Province of Iran. Mediterranean Journal of Social Sciences. Vol 7 No 3 June 2016. ISSN 2039-9340. MCSER Publishing, Rome-Italy

2.51. Mahmoud Bakhshinejad. The Economic Survey of Walnut Production in Iran. British Journal of Economics, Management & Trade. 2014. 4(12):

2.52. Bakhshinejad, M., The Revealed Comparative Advantage: the empirical analysis of export of nuts. 2011, N2(10), p. 156-162

2.53. Bakhshinejad M., Hassanzadeh A., Comparative Advantage of Selected Agriculture Products in Iran: A Revealed Comparative Advantage Assessment. World Applied Sciences Journal, 19(10), 2012, PP.1449-1452

2.54. Bakhshinejad M., Economic Survey of walnut production in Iran. Agricultural Engineering Journal, 21, 2012, PP. 28-33.

2.55. Costs and Practices in Establishing walnut orchards in Oregon. Agricultural experiment station. Oregon state agricultural college. United States department of agriculture cooperating. Station bulletin 315. June 1933.

2.56. Ogunwusi A. A. Ibrahim H. D. Properties and Industrial Potential of Walnut Growing in Nigeria. Journal of Resources Development and Management. ISSN 2422-8397 An International Peer-reviewed Journal. Vol.18, 2016

2.57. Karen Klonsky, Janine Hasey, and Rich DeMoura The Economic Viability of Orchard Production on Small Acreage.. Journal of ASFMR. 2008

2.58. Krueger, W., Buchner, R., Edstrom, J., Hasey, J., Klonsky,

K., & DeMoura, R. (2007). Sample Costs to Establish a Walnut Orchard and Produce Walnuts, Sacramento Valley. Department of Agricultural and Resource Economics, Univ. of California, Davis.

2.59. Ramos, D.E. (ed.) (2004). Walnut Production Manual. Univ. of California, Division of Agricultural and Natural Resources. Publication 3373.

2.60. Yaşar AKÇA, Sebahattin Yilmaz. Walnut production in Turkey from past to present. VIII International Scientific Agriculture Symposium. Jahorina. October 05-08, 2017. P. 904-910.

2.61. Akça, Y. (2016). Ceviz Yetistiriciliği (Walnut Cultivation). 9. Baskı. ISBN: 975-97498-07. Anıt Matbaası. Ankara, Turkey.

2.62. Akca Y., Bilgen Y., and Ercisli S. (2015). Selection of superior Persian Walnut (Juglans regia L.) from seedling origin in Turkey. Acta Sci. Pol. Hortorum Cultus. Vol. 14. No 3, pp. 103-114.

2.63. Akça Y., Polat A. (2007). Present status and future of walnut production in Turkey. The European Journal of Plant Science and Biotechnology, (57-64).

### III. Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferatlari

3.1. Махмуд Бахшинежад Дастенаи. Сравнительные преимущества культур семейства ореховых в Иране. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук по специальности: 08.00.02 - “Экономика и управление хозяйством, его сферами”. Ереван – 2015 http://www.dslib.net/economika-xoziajstva/organizacionno-jekonomicheskij-mehanizm-povyshenija-jeffektivnosti-promyshlennoj.html

3.2. Хашир А.А. “Организационно-экономический механизм повыше-ния эффективности промышленной переработки орехов в России”. Краснодар, 2004. http://dslib.net/economika-xoziajstva/organizacionno-jekonomicheskij-mehanizm-povyshenija-jeffektivnosti-promyshlennoj.html

3.3. О.Б.Саттаров. Фермер хўжаликларида интенсив боғдорчиликни ривожлантиришнинг иқтисодий асосларини такомиллаштириш йўналишлари мавзусидаги иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Тошкент-2021й. http://el.tfi.uz/mahsulot/%d1%84%d0%b5%d1%80%d0%bc%

3.4. О.Жумаев. Кўп укладли иқтисодиёт шароитида мева-сабзавотчилик мажмуида кооперацияни ривожлантиришнинг

ташкилий-иқтисодий асослари. и.ф.н... дисс. авт. – Т.: ЎзБИИТИ, 2004. – 24 б.;

3.5. Ш.М.Муродов. Мева-сабзавот маҳсулотларини сотиш соҳасида коопера-ция муносабатларини шакллантириш. и.ф.ф.д. .. дисс. авт. – Т.: ТИҚХММИ, 2020. – 24 б.;

3.6. С.К.Эшматов. Мева-сабзавотчилик тармоғида қўшилган қиймат занжирини ривожлантириш йўналишлари. и.ф.ф.д. дисс. авт. – Т.: ТИҚХММИ, 2021.

## IV. Statistik materiallar

4.1. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi statistik to‘plami. -T. - 2021 yil, 64-65 b. https://stat.uz/uz/

4.2. Andijon viloyati qishloq xo‘jaligi boshqarmasi ma’lumotlari. http://www.yellowpages.uz/company/9025

4.3. https://www.uznuts.uz – O‘zbekiston Yong‘oq ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasi

4.4. Turkiya statistik ma’lumotlar portali. https://data.tuik.gov.tr

4.5. Importing and Exporting Agricultural Products in Turkey. https://www.companyformationturkey.com.

## V. Internet saytlari

5.1. https: //en.wikipedia. org/wiki/Chinese_garden.

5.2. https://e-journal.uz/2020/06/08

5.3. https://lex.uz/docs/3713560

5.4. https://www.atlasbig.com/en-ca/countries-by-walnut-production

5.5. https://www.agro.uz/yong-oq-2/

5.6. https://www.fao.org/faostat/en/#data/QCL/visualize

5.7. https:// east-fruit.com/uz/yangiliklar/bu-yilgi-bahorda-ozbekistonning-yonqoq-ekilgan-maydonlari-11-ming-gektarga-ortdi/.

*Ilmiy nashr*

**RAXMONOVA BARNO SOXIBJONOVNA**

# YONG'OQ YETISHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

## MONOGRAFIYA

*Muharrir: D.Axmedova*
*Dizayner: Z.Axmedova*
*Musahhih: B.Axmedov*

"STEP BY STEP PRINT" MChJ
Andijon shahri. Xrabek ko'chasi 94 b uy.
Nashriyot litsenziya raqami: № 040955
2022-yil 29 sentabrda berilgan.

Bosmaxonaga 2023 yil 25 oktabrda berildi. Bosishga 2023 yil 27 oktabrda ruxsat etildi. Bichimi 84x108 1/32. Hajmi 9.5. Bosma taboq. Times New Roman garniturasi. Ofset qog'ozi, offset usulida chop etildi. Buyurtma 89. Adadi 100 dona.

"Step by step print" MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Andijon shahar Xrabek ko'chasi 94-b uy.
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti admintratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 12.07.2019.dagi 12-3299. Raqamli guvohnoma.